



# ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,  
natural and social sciences*

[www.oriens.uz](http://www.oriens.uz)

ISSN: (E) 2181-1784

*Exact sciences*  
*Natural sciences*  
*Engineering sciences*  
*Pedagogical sciences*  
*Social and Human sciences*  
*Philological sciences*  
*Philosophy sciences*  
*Economic sciences*

**VOLUME 4**  
**№10**  
**2024**





**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,  
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES  
SCIENTIFIC JOURNAL**

**VOL. 4 / ISSUE 10  
ISSN 2181-1784**

**November  
2024**

---

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,  
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES  
SCIENTIFIC JOURNAL**

---

**EDITOR-IN-CHIEF**

**Prof. KADIROV MUKHAMMADJON**

Candidate of philosophical sciences, Associate professor of the department of  
“Oriental philosophy and culture” of Tashkent state university of oriental studies

**EDITORIAL BOARD**

**DSc. NODIRAKHON R. NISHONOVA**

Doctor of Philosophy,  
Head of the Department “Philosophy and  
National idea” of Tashkent State Technical  
University

**PhD. LAZIZ A. TURAEV**

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical  
Sciences, Head of the Department for the  
organization of research activities of students of  
TSUOS

**Dr. KHOLMUMINOV JAFAR  
MUHAMMADIEVICH**

Doctor of Philosophical Sciences (DSc)  
Professor of the department of "Source Studies  
and Hermeneutics of Sufism" of Tashkent State  
University of Oriental Studies. Professor at the  
Antique World International Academy of  
Sciences

**PhD. FARHOD L. USMONOV**

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical  
Sciences, Senior lecturer of the Department of  
Social Humanities of Tashkent State University of  
Economics

**Dr. AZAMAT B. KHAYRIDDINOV**

Candidate of Economic Sciences  
Associate professor of Karshi Institute of  
Engineering and Economics

**Prof. Dr. ULFATKHON MUHIPOVA**

Doctor of Philological Sciences  
Head of the department of South and Southeast  
Asian Languages of Tashkent State University of  
Oriental Studies

**Prof. Dr. SULTON F. AMIROV**

Doctor of technical sciences  
Head of the department of Electricity Supply of  
Tashkent State University of Transport

**Prof. Dr. TULKIN M. TOGAEV**

Doctor of Philological Sciences  
Head of the Department of Uzbek Linguistics of  
Tashkent State University of Uzbek Language and  
Literature named after Alisher Navoi

**Dr. NAUMENKO A. OLEG**

Candidate of Philosophical Sciences Associate  
Professor of the Department of Social Sciences  
and Technologies, National Research  
Technological University MISIS, Moscow,  
Russia

**Dr. IMAM K. WAHYUDI**

Doctor of Philosophy (PhD)  
in Philological Sciences  
Head of Office of International Affairs and  
Faculty Member, Faculty of Teacher Training and  
Education of Universitas Islam Malang, Indonesia



---

**Dr. AZIZ KH. KHUDOYBERDIEV**

Candidate of Historical Sciences, Associate professor of the department of Eastern countries and Anthropology of Tashkent State University of Oriental Studies

**Dr. SAYYORA N. KHAMRAEVA**

Doctor of Philosophy (PhD) in economics  
Head of the department of Innovative Economics of Karshi Institute of Engineering and Economics

---

**Dr. ALISHER N. NAZAROV**

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Senior Lecturer of the Department of Oriental Politics and International Relations, Tashkent State University of Oriental Studies

**Dr. ERKIN A. RAKHMATOV**

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Head of the Department of Oil and Gas Processing Technology, Karshi Engineering and Economics Institute

---

**Dr. PHOOL BADAN**

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Professor of the School of International Studies, Jawaharlal Nehru University

**Dr. SIROJIDDIN S. NURMATOV**

Candidate of Philological Sciences  
Associate professor of Tashkent State University of Oriental Studies

---

**Dr. METIN ORBAY**

Doctor of physics and mathematical science (DSc), Professor of Faculty of Education of Amasya University

**Prof. PhD. SAO FEY**

Professor of Hangzhou Normal University, Linguist.

---

**Prof. Dr ASIF MAHBUB KARIM**

Doctor of Philosophy in Business administration (PhD), Dean, professor Binary Graduate School, Binary University of Management & Entrepreneurship

**Prof. YALCHIN KAYALI**

Ankara University, Faculty of Languages and History-Geography, Department of Eastern Languages and Literatures, Sub-Department of Indology, Faculty Member.

---

**Dr. NIGORA Z. SAYDALIEVA**

Candidate of Philosophical Sciences  
Senior Lecturer of the department of Oriental Philosophy and Culture of Tashkent State University of Oriental Studies

**Dr. K.K. KHAKBERDIEV**

Doctor of Philosophy (PhD) In Economics  
Director of the Center for Scientific analysis of the study of the development of Eastern Countries at the Tashkent State University of Oriental Studies

## **O‘ZBEK VA QOZOQ OILALARIDA OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARI**

**Shadimetov Maxmudjon Negmatjanovich**

Fan va texnologiyalar universiteti ilmiy tadqiqotchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada bugungi kundagi o‘zbek va qozoq oilalarida ota-ona va farzand munosabatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Oila tarbiyasi kabi katta mas’uliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi. SHu o‘rinda bir narsani alohida uqtirish kerakki, bolalar tarbiyasida asosiy ta’sirchan kuch-qudrat, bu –Onadir. Darhaqiqat ota ko‘pchincha oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ta’minlash, qolaversa oilaning xo‘jalik ishari bilan band bo‘ladi. Bu o‘zbek oilalari tarixidan ma’lum bo‘lgan haqiqat va ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan an’anadir.*

**Kalit so‘zlar:** oila, ota, ona, farzand, tarbiya, yoshlar, urf-odatlar. an’analar, qadriyatlar, kasb-kor, ma’naviyat, madaniyat.

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье научно анализируются взаимоотношения родителей и детей в современных узбекских и казахских семьях. Большая ответственность, такая как воспитание семьи, ложится прежде всего на отца и мать. Здесь следует подчеркнуть одно: главной влиятельной силой в воспитании детей является Мать. Действительно, отец часто занят удовлетворением и обеспечением материальных потребностей семьи, а также хозяйственной работой семьи. Это факт, известный из истории узбекских семей и традиция, унаследованная от наших предков.*

**Ключевые слова:** семья, отец, мать, ребенок, воспитание, молодежь, традиции, ценности, профессия, духовность, культура.

### **ABSTRACT**

*The article scientifically analyzes the relationship between parents and children in modern Uzbek and Kazakh families. Great responsibility, such as raising a family, falls primarily on the father and mother. Here it is necessary to emphasize one thing: the main influential force in raising children is the Mother. Indeed, the father is often busy with satisfying and providing for the material needs of the family, as well as the household work of the family. This is a fact known from the history of Uzbek families and a tradition inherited from our ancestors.*

**Keywords:** family, father, mother, child, education, youth, traditions, values, profession, spirituality, culture.

## **KIRISH**

Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari, har bir oilaning iqtisodiy, madaniy, kasb-kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muammolari hamisha davlatning diqqat-e’tibori va himoyasida bo‘lib kelmoqda. Jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi hujjat bo‘lgan Qomusimiz–Konstitutsiyamizda oila masalasiga ham alohida urg‘u berilgan. Konstitutsiyamizda: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega” [1, 22-b.], deb yozilgan. Xalqimizning tarixini ko‘zdan kechirsak, oila va vazifalari, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va salmoqli ishlari haqida qimmatli fikrlar aytilgan. Demak, o‘zbek oilasi tarixi va milliy oila pedagogikasi tarixi juda qadimiydir.

O‘zbek halqining qadimgi tarixini aks ettirgan «Avesto»da ham oila munosabatlari bilan bog‘liq mantiqiy fikrlar ilgari suriladi. Unda qayd qilinishicha, erkak zurriyot qoldirish qobiliyatiga ega bo‘lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tang‘a bosishar yoki beliga zanjir bog‘lab yurishga majbur qilishardi. «Avesto»da qarindoshlarning o‘zaro oila qurishi man etilgan. Qavm va urug‘ qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan [2, 32-35-bb.].

Ajdodlarimiz azaldan oila mustahkamligi sog‘lom avlodning yaralishi yo‘lida muttasil e’tiborda bo‘lgan, oilasi, urug‘i obro‘si mustahkamligi, g‘ururi uchun doim kurashib kelgan. Bunday oilaparvarlar va bolaparvarlar zardushtiylik g‘oyalarining aynan bizning zaminda tug‘ilishi bilan ham bog‘liq. Buni tarixiy manbalarni kuzatishning o‘ziyoq anglatib turibdi. Zarudushtiylikning muqaddas kitobi “Aveto”da oila, uning mustahkamligi, tarbiya masalalariga katta e’tibor berilgani uning isbotidir. Oilaparvarlik va bolaparvarlik g‘oyalari faqat yo‘l-yo‘riqlar sifatidagina qabul qilinib qolmay, avlod turmushining baxtli-saodatli, to‘la ta’minotli, xushchaqchaq, serfarzand bo‘lishi to‘g‘risida ham katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatilgan. Bunday g‘oyalar avloddan-avlodga aynan oila tarbiyasi orqali singdirib borilgan deb, ta’kidlaydi tadqiqotchi To‘rabek Xo‘janiyozov [13, 16-17-bb.].

Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, eramizgacha bo‘lgan uzoq o‘tmishda ham biologik-fiziologik jihatdan sog‘lom erkak yohud ayol kishilar oila qurishga majbur bo‘lishgani holda ular (insonlar) qavm-urug‘ni toza saqlash, milliy qonni (avlod ma’nosida) buzmaslik, nikoh tushmaydigan qarindoshlar o‘rtasida oila qurmaslik kabi ahloq-odob normalariga amal qilishgan.

Demak, oila o‘zbek ba qozoq xalqi an`analarida insonlarning tabiiy-biologik-fiziologik, moddiy-iqtisodiy, huquqiy-qonuniy, ma’naviy-axloqiy aloqa-munosabatlari asosiga qurilgan ijtimoiy birlikdan iboratdir. Insonlarning tabiiy biologik-fiziologik munosabati deganda jinsiy aloqa va nasl qoldirish (farzand tug‘ish

va tarbiyalash)ni moddiy-iqtisodiy munosabatda – uy-ro‘zg‘orni boshqarish, mulkiy munosabatni, huquqiy – qonuniy munosabat-nikohning qonuniyligini, ma‘naviy-axloqiy munosabatda esa er-xotin inoqligi, pokligi, ota-ona bilan farzandlar o‘rtasidagi mehr-oqibat, hurmat, burch va shu kabilarni tushunish lozim. Hozirgi kunda yuqorida zikr etilgan oila va uning bilan bevosita bog‘liq masalalar qonun yo‘li bilan muhofaza qilingan va kafolatlangan. CHunki u jamiyatning ajralmas bir bo‘lagidir. Bundan jamiyat va oila dialektik birlikni tashkil qiladi degan mantiqiy xulosa kelib chiqadi [4, 235-236-bb.]. SHunga ko‘ra bola bilan ko‘proq ona birga bo‘ladi. Axir, xalqimiz: «Sut bilan kirgan-jon bilan chiqadi» deydi-ku! Tarbiya, ya‘ni yuksak axloq-odob aqidalari bola joniga (ruhiga) ko‘proq ona suti (tarbiyasi) bilan kiradi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Oila tarbiyasida hikmat (falsafiy-pedagogik yo‘nalishlar) ko‘p. YAngi o‘tkazilgan inholning to‘g‘ri yoxud egri o‘sishi bog‘bon mehnati va mahoratiga bog‘liqdir. Egri o‘sayotgan niholning qaddini rostlab qo‘yilmasa, u noto‘g‘ri rivojlanadi. YAngi tug‘ilgan go‘dak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati o‘rtasida qandaydir tabiiy o‘xshashlik mavjud [5, 102-105-bb.].

Bundan ko‘rinib turibdiki, mehnat tarbiyasi, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, axloq-odob normalari, Vatan tuyg‘usi va vatanparvarlik tarbiyasi, ma‘naviy-estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, milliy g‘urur va iftixor tarbiyasi, ijtimoiy tarbiya va shu kabilar oiladan boshlanadi. SHu zikr qilingan pedagogik-falsafiy tushunchalar oila rahbarlarining dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liqdir. Deylik, dehqon dunyoqarashi uning halol mehnat qilib, dastlab oila to‘kinligi va so‘ngra xalq farovonligini ta‘minlashda ko‘rinadi. Uning barcha faoliyati shu olijanob tuyg‘u bilan uyg‘unlashgan. Bu oilada bola mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanadi. Hayot va turmushning hamma nuqta va qirralari mehnat bilan ravshanlashadi. Zotan, mehnatkash inson har sohada o‘z yo‘lini topa oladi.

Xalq mehnatkash, yuksak axloq-odobli yigitchani ko‘rsa, «otangga rahmat», xush qiliqli, go‘zal xulq-atvorli, shirinsuhan, muloyim, chevar, pazanda qizni ko‘rsa «onangga rahmat» deydi. Bu oila tarbiyasining shirin mevasi tufaylidir.

Yana bir narsani unutmash kerakki, bir oilaning ikkinchi bola bilan munosabati ham oila tarbiyasi bilan uyg‘unlashib boradi. Boshqacha aytganda, bir oila o‘g‘il uylantirib, kelin tushiradi. Ikkinchi oila esa qizini chiqarib, kuyovlik bo‘ladi. Bu quda-andalar oilasi deb aytiladi. Oilalar ichida yangi oilalar vujudga keladi. Avvalroq aytganimizdek, yosh nihollar (kelin va kuyov) taqdiri dastlab ularning o‘zlariga, qolaversa ota va ona, qayin ona va qayin ota muomala-munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi. Bu o‘rinda yosh oilalarning mustahkamlanishi uchun ota va ona, qayin ota va

qayin ona tadbirkor dehqon kabi tarbiya mahoratiga ega bo'lishlari kerak. Ba'zi hollarda ota-ona yohud qayin ota va qayin onalarning injiqliklari, me'yoridan ortiq qattiqqo'lliklari tufayli yosh oilalar buzilib ketadi. Zotan, ota va ona, qaynота, qayin onalar farzandlarining oilasini, ya'ni yosh nihollar oilasini parvarish qilishni bilsalar va shunga harakat qilmaydi. Oila ichidagi oila ravnaq topardi, mustahkamlanadi [6, 157-159-bb.].

Professor O.Musurmonova ta'kidlaganidek: "Oilaning asosi er-xotin yoxud ota-onadir. Modomiki, er-xotin oilaning tamal toshlarini mustahkam bunyod etishga mas'ul ekanlar, ular unda uchraydigan turmush qiyinchiliklari, hayot quvonchlari-yu, tashvishlarini boshdan kechirishda, oilani idora etishda, farzand tarbiyasida mas'uldirlar" [7, 60-b.].

Oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning o'zi yoxud bir ayolning o'zi oila bo'la olmaydi. Qolaversa, oila faqat er va xotindagina iborat emas. Oila eru xotindan tashqari erning ota-onasi, ya'ni qaynота va qaynona, farzandlar, uka singillardan iborat ko'p bo'g'inli xonadon. Uning har bir a'zosi o'z mavqeiga ega, shu oilaning ichki intizomiga bo'ysunib yashaydi. Shu ma'noda oila jamiyat ichidagi jamiyatdir. Bu jamiyatning o'z saltanati bor: bunda minglab tasodiflar jarayonida er-xotin muhabbati sinovdan o'tadi, shu sinov jarayonida ular bir-birini chuqurroq tushunadilar, bir-birlarini qadrlashni o'rniga quyadigan bo'ladi, bir-birlariga kechirimli bo'lishadi, er-otaga, xotin-onaga aylanadi, farzandlarini tarbiyalab, orzu-havas ko'radi. SHu ma'noda oila inson hayotiga to'kislik baxsh etadi, jamiyatning muqaddas maskani sifatida sadoqat sarchashmasiga aylanadi [8, 297-301-bb.].

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go'zal mo'jizalaridan biri bo'lib, u insonlrga xos "tabiiy-biologik", iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir[9, 187-b.].

Huquqiy jihatdan kafolatlangan oila o'z burchlarini ham unutmasligi lozim. Shulardan eng asosiysi, oilani yaxshi oila qilib ko'rsatuvchi fazilatlaridan biri - farzandlarni oila qurishga tayyorlashdir. Darhaqiqat, mamlakatimizda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash – oilalarning mustahkamligini ta'minlashning muhim shartidir. SHu boisdan ham "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da xuddi mana shunday masalaga alohida e'tibor berilgan, ya'ni:

- oila-oilaviy an'analarni hamda ma'naviy-ahloqiy merosni saqlab qoluvchi, davom ettiruvchi;



- jamiyatning eng kichik bir qismi bo‘lib, bolaning madaniy, estetik va boshqa ehtiyojlari o‘rishini va sog‘lom turmush tarzini ta‘minlovchi;

- bolaning fe‘l-atvori asoslarini shakllantiruvchi birinchi murabbiy;

- hayotning barcha jabhalarida yosh avlodning doimo maslahatchisi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchisidir, deyiladi.

Demak, oila poydevorining mustahkamligi – jamiyat poydevori va binosini puxta qilib qurishni ta‘minlashning asosiy shartidir, uning moddiy va ma‘naviy barkamolligi esa davlat va jamiyat faroonligining negizidir.

Yangi O‘zbekiston uchun oilaning mustahkamligi, farovonligi va barqarorligini ta‘minlash bilan bog‘liq barcha masalalarni o‘zida mujassam etgan quyidagi yo‘nlishlarda muhim ishlar amalga oshirilmoqda:

- oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlarini huquqiy himoya qilishni ta‘minlash, onalik va bolalik huquqlarini muhofaza qilish;

- oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oila a‘zolarining sog‘ligini muhofaza qilish va bilim darajasini oshirish uchun imkoniyatlarni yaxshilash;

- oilaning iqtisodiy manfaatlarini ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaning daromadlarini, oila a‘zolarining ish bilan ta‘minlash darajasini oshirish, ro‘zg‘or yumushi va turmush sharoitlarini yaxshilash. Kam ta‘minlangan oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvatlash;

- oilaning ma‘naviy-ahloqiy asoslarini va madaniy manfaatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- oilaning sog‘lom, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalarini takomillashtirish;

- oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tadqiq etish, oila, xotin-qizlar va bolalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini ko‘rsatuvchi statistika hisobotini to‘plash va takomillashtirishdan iborat.

Manbalarning ko‘rsatishi va tadqiqotchilarning fikricha, kishilik jamiyati paydo bo‘lishining dastlabki davrlarida guruhiy nikoh, ya‘ni poligamiya (ko‘p nikoh) asosida erkak va ayol tartibsiz jinsiy munosabatda bo‘lgan holda turmush tarzi matriarxal, so‘ng patriarxal hukmronlik asosiga qurilgan. Ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi, jamiyatning o‘zgarishi, shu o‘zgarishlarning insonlar ongiga ta‘siri, shu asnoda ular fikrlashining o‘sa borishi oila va oilaviy munosabatlarning shakllanishiga olib kelgan [10, 153-b.].

Hozirgi zamon o'zbek ba qozoq oilasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat bo'lishi kerak? U uzoq o'tmish oilalardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Oila jamiyat, tabiat qonun-qoidalari asosida barpo etilsa va yashasa-da, oiladagi er-xotin, ota-ona farzandlar, qaynona-qaynota, qayin uka va singillar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, oila an'analari va qadriyatlari borasida mustaqil makon bo'lib qolaveradi. Lekin u yoki bu tuzum, davlat yoki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy mafkuraviy, ma'naviy-ahloqiy boradagi ustuvor g'oyalari va munosabatlarga bilvosita yoki bevosita ijobiy yoki salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi.

Oilaning o'ziga xos qator o'zbek ba qozoq oilalarida vazifalari mavjud bo'lib, uning asosiy vazifalaridan biri – reproduktivlikdir, ya'ni farzand ko'rish, avlodlar daomiyligini, er yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlashdan iboratdir. Xalqimiz “Bolalik uy bozor, bolasiz uy mozor” deganlaridek, bolalik uyda shoduxurramlik, tinchlik-osoyishtalik hukm suradi. Bunday oilaning har bir kuni mazmunli, rejali va aniq maqsadli o'tadi. Farzandsiz oila aksariyat hollarda notinch, omonat bo'ladi.

Oilaning yana bir o'ziga xos xususiyati, uning nuklearligidir. “Nuklear” lotincha so'z bo'lib, yadro degan ma'noni anglatadi. Er-xotin va bolalardan iborat bo'lgan oila nuklear oila deb ataladi. Oilaning vazifalaridan yana biri iqtisodiy-moliyaviy xo'jaligining faoliyatini to'g'ri yuritish hisoblanadi.

Oila tarixiy-ijtimoiy hodisa sifatida kishilik jamiyatida qator vazifalarni bajarib, ham o'zining, ham jamiyatning takomillashuvini ta'minlab kelmoqda. Oilaning dastlabki bosh vazifasi – demografik vazifadir. Sirasini aytganda, oila nainki jinsiy aloqani tartibga solish, balki zurriyotni davom ettirish ehtiyoji tufayli ham yuzaga kelgan ijtimoiy-biologik hodisa hisoblanadi [11, 276-279-bb.].

Jahonda ayni zamonda kechayotgan demografik siyosat o'zbek oilasini ham befarq qoldirmayotir. Xususan, mustaqillik tufayli kun tartibiga qo'yilgan sog'lom avlod uchun kurash maqsadlari ishni sog'lom oiladan boshlashni taqozo eta boshladi. Bu hol oilani rejalashtirish masalasini keltirib chiqardi. Oilani rejalashtirish bola tug'ishni tartibga solishni anglatrsa-da, bu masalada jahon demografik siyosatida ikki yo'nalish hukm surib kelmoqda.

Birinchi yo'nalish – oilani ixtiyoriy usulda rejalashtirish. Bunda qancha farzand ko'rish masalasini har bir oilaning o'zi hal qiladi. Iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda ayollarning ma'lumotlilik darajasi o'sib, ishlab chiqarishda bandliklari oshgan, shuningdek, tibbiy himoyalani imkoniyatlari kengaygan vaziyatda bir yoki ikki farzand ko'rish bilan cheklanish an'anaga aylangan. Bu hol, ayniqsa, Evropa mamlakatlarida tobora chuqurlashayotir. Bu mamlakatlarda demografik siyosat tug'ilishni rag'batlantirishga qaratila boshlandi. CHunonchi,

Germaniya va Polshada farzand ko‘rgan oila bir yo‘la katta miqdorda pul mukofoti bilan taqdirlansa, Vengriyada farzand ko‘rgan ayol birinchi yili yuz foiz, ikkinchi yili oltmish foiz miqdorida oylik maosh olib turadi. Gretsiyada esa ayol homila ta‘tiliga chiqqan kunidan bolasi etti yoshga to‘lib maktabga borguniga qadar avvalgi ish joyida qancha maosh olib turgan bo‘lsa, har oyda o‘sha oyligini olib turadi va ish joyi ham saqlanadi. Ikkinchi yo‘nalish – oilani siyosiy yo‘l bilan davlat tomonidan rejalashtirish. Bunday demografik siyosat Osiyo va Afrika hamda Lotin Amerikasi mamlakatlarida yigirmanchi asrning o‘rtalaridan qo‘llanila boshlandi. Zero, bu davrga kelib bu mamlakatlarda tug‘ilish shiddatli tus olib, aholini oziq-ovqat, kiyim-bosh va ish bilan ta‘minlash o‘ziga xos muammo sifatida jiddiy tus ola bordi. Er, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, xalq, Yangi O‘zbekistonga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik – ma‘naviyatning ma‘nosi ana shunday keng va oila asosiy rol o‘ynaydi.

Abdulla Avloniyning bayon qilishicha: “Ota-onaning farzandiga nisbatan saksonta haqi bor ekan. Ularning qirqtasi tiriklik vaqtida va qolgan qirqtasi o‘lgandan keyin amalga oshiriladi. Tiriklik chog‘idagi qirqta haqning o‘ntasi tanga, o‘ntasi tilga, o‘ntasi dilga va o‘ntasi molga taalluqlidir” [12, 30-b.]. Oilada kelinning ham qaynona-qaynota oldidagi burchi farzand burchi demakdir.

Ota-bobolarimiz: “Umr yo‘ldoshini saylashda-tanlashda tarozining xusn pallasini emas, aqlu odob pallasini tanlash maqbul. Chunki birinchisi ko‘zi uchun, tomosha uchun, ikkinchisi esa qalbing uchun, hayoting uchun kerak” [13, 36-b.], – deydilar. Darhaqiqat hayot juda murakkab tushuncha, u doim tekis bo‘lavermaydi, uni o‘nqir cho‘nqirlari ham, achchiq-chuchuklari ham, shodu-xurram, orambaxsh onglari ham bo‘ladi. Oqil inson mashaqqatlarni sabot va iroda bilan engib o‘tishi uchun oldindan o‘zini ruxiy jihatdan tayyorlaydilar.

O‘zbek oilasida o‘ziga xos milliy qadriyatlar shakllangan ma‘naviy-ahloqiy negizlar mavjuddir. Tongda turish, yuz qo‘llarni yuvish, hovli joylarni shupurish, tozalash, kattalarga salom berish, hol-ahvol so‘rash, nonushtaga oila kattalarini taklif qilish va ulardan oldin nonushtaga o‘tirmaslikdir. Oila kattalari bilan maslahatlashishi va ularni roziligi orqali ishlarni taqsimlash amalga oshiriladi. O‘zbek oilasining o‘ziga hos jihatlaridan biri “Bir kun janjal bo‘lgan joydan qirq kun baraka ketadi” maqolining mohiyati ham oilada qadimdan ham-jihat bo‘lib yashashga qaratilganligidir. Ayniqsa, bu borada Abu Ali ibn Sinoning axloqiy va falsafiy qarashlarida batafsiz keltirilgan [14, 63-b.].

Xulosa sifatida aytish joizki, o‘zbek va qozoq oilalarini mustahkamlash uning jamiyat xayotida tutgan o‘rni va nufuzini oshirishga e‘tibor kuchaymoqda. O‘zbek oilalari milliy qadriyatlar asosida millat tarbiyachisi sifatida ma‘naviy barkamol

shaxsni tarbiyalashda faol ishtirok etish zarur. Oilada sog‘lom muhit ijtimoiy faollikda namoyon bo‘lmoqda. Keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Oilada yoshlarni vatanga sadoqatli, yurtga fidoyi, Yangi O‘zbekiston uchun fidoiy shaxslar etib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

#### **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023, 24-bet.
2. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. - Toshkent: «O‘qituvchi» nashriyoti, 1995, 32-35 betlar.
3. Xo‘janiyozov T. Oila tarixi va huquq. - Toshkent: “Adolat”, 2006, 16-17-betlar.
4. Masharipova G.K. Ayollarning jamiyatda, mahallada va oilada tutgan o‘rni // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2008. - 235-236-bb.
5. Masharipova G.K. Oila mustahkamligining muhim poydevori. //“Konstitutsiya Respubliki Uzbekistan – obrazovanie i vospitanie molodeji. Materialy vtoroy traditsionnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. – Tashkent, 2013. - str.102-105.
6. Masharipova G.K. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, tarbiya maskani. // “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda xotin-qizlarning o‘rni va roli” mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. – T., 2014. - 157-159-betlar.
7. Musurmonova O. Oila ma‘naviyati-milliy g‘urur. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 2000, 60-bet.
8. Masharipova G.K. Oilaviy va mavsumiy marosimlar// “Voyaga etmaganlar o‘rtasida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ijtimoiy-ma‘naviy asoslari” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. – Toshkent, 2016. - 297-301-betlar.
9. Masharipova G.K. Xorazm Ma‘mun Akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma‘naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta‘siri. Monografiya. – Toshkent, Navro‘z nashriyoti, 2019. - 364 b.
10. Masharipova G.K. O‘rta asrning buyuk kashfiyotlari - xorazmlik matematiklarining ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissalar Monografiya. - Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2021. – 210 b.
11. Masharipova G.K. Oila va oilaviy munosabatlarda milliy urf-odatlar va an‘analarning o‘rni. // «Mustaqillik sharoitida xalqimizning g‘oyaviy tarbiyalanishining dolzarb masalalari» mavzusida onlayn respublika miqyosida ilmiy-nazariy anjuman. 2020-yil 5 may. - B.276-279.
12. Abdulla Avloniy. Odob bo‘stoni va ahloq gulistoni. - Toshkent: “Fan”, 1994, 30-bet.



13. Usmonov R. Saodatnoma. Tanlangan asarlar. - Toshkent: "O'qituvchi", 1995, 36-bet.
14. Masharipova G.K. Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy va ma'naviy merosining jamiyat hayotidagi o'rni. Monografiya. – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2020. – 144 b.

## **O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA UNING RIVOJLANISH YO‘NALISHLARIGA BIR NAZAR**

**Turdimurotova Gulnora Nazarovna**

Termiz davlat universiteti, o‘zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

[gulnoraturdimurodova362@gmail.com](mailto:gulnoraturdimurodova362@gmail.com)

+998935735121

### **ANNOTATSIYA**

*Tilning paydo bo‘lishi, uning takomillashuvida odamzotning bu ne‘matga ehtiyojida ijtimoiy muhitning, kishilik jamoasining hal qiluvchi muhim omil ekanligi inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqat hisoblanadi. Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilida rivojlanayotgan yo‘nalishlar va ularning jamiyatdagi o‘rni hamda ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *O‘zbek tilshunosligi, rivojlanayotgan sohalar, kompyuter lingvistikasi, sotsiologizm, terminlar, sotsiolingvistika, globallashuv, til taraqqiyoti.*

### **ABSTRACT**

*It is an indisputable fact that the emergence of language and its improvement is a decisive factor of the social environment and the human community in the human need for this blessing. This article discusses the current trends in the Uzbek literary language and their role and importance in society.*

**Key words:** *Uzbek linguistics, developing fields, computer linguistics, sociology, terms, sociolinguistics, globalization, language development.*

### **KIRISH**

O‘zbek tilshunosligi jamiyatimizda katta o‘rinni egallab kelmoqda. Bu yo‘nalish o‘zbek tilini mukammal o‘rganish, undan foydalanish va uning rivojlanishi hamda bu tilga oid ta‘lim va tadqiqotlar integratsiyasini o‘z ichiga oladi.

Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan alohida ajralib turadi. Insonning biologik rivojlanishini oladigan bo‘lsak, misol sifatida inson jamiyat omilisiz ham nafas oladi, o‘sadi va rivojlanishda davom etadi. Bu rivojlanish tabiat qonunlariga to‘liq mos keladi, lekin til bunday tabiiy hodisa emas, u ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning paydo bo‘lishi va rivojlanishi uchun shubhasiz, jamiyat ham juda zarur hisoblanadi. Til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish va fikr almashish ehtiyojlari natijasida paydo bo‘lganligi to‘g‘risidagi qarashlar haqiqatga yaqin. Til nasldan naslga, avloddan avlodga o‘tadigan irsiy hodisa emas, aksincha, til jamiyat taraqqiyoti mahsuli sanaladi. Bolaning qay tilda so‘zlay boshlashi, uni o‘rab turgan til muhitiga bog‘liq. Masalan, o‘zbek farzandi go‘dakligidan ruslar orasida tarbiyalansa, u faqat ruscha so‘zlab, o‘z ona tilini bilmasligi mumkin. Ammo bolaning biologik belgilari:

yuz tuzilishi, soch rangi va boshqalar o'zgarmagan holatda saqlanib qoladi. Demak, bunga aniq dalil sifatida hind psixologi Rid Sing 1920-yilda bo'ri inidan bolalarini topib olganini keltirish mumkin. Qizchalarning kattasi Kamola o'zini xuddi bo'ridek tutgan. U bo'rilar bilan hayot kechirgan va shuningdek, gapirishni butunlay bilmagan. Uni odamlashtirish jarayoni judayam sekinlik bilan amalga oshgan. Qizchani qiliqlari bo'rinikidan farq qilmas edi. Uni tik turishga, ovqatni qo'l bilan ushlab yeyishga o'rgatish juda qiyin kechgan. 1923-yil 10-iyun kuni qizcha birinchi marta boshqalarning ko'magisiz besh daqiqa qaddini rostlagan. Ayniqsa, uning nutq so'zlay olish va gaplarni tushunish borasidagi rivojlanishi katta ahamiyatga ega bo'lgan. U faqat bo'riga o'xshab ovoz chiqara olar edi, xolos. 1926-yilning boshiga kelib, Kamola 30 ga yaqin so'zni o'rgangan. 1929-yil 26-sentabrda u ichterlama bilan og'rib qoladi va ana shu kasallik mobaynida til o'zlashtirishda anchagina rivojlanishga erishgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

XX asr boshlarida tilshunoslikda tilni ijtimoiy hodisa sifatida hisoblashga asoslangan sotsiologizm ta'limoti yaratildi va bu ta'limotning asoschilari F.de Sossyur va uning shogirdi Antuan Meyelar hisoblanadi. Ular tilshunoslik yo'nalishiga yangi "sotsiologik lingvistika" nomini beradilar. Sotsiolingvistika sohasining rivojlanishida A.Meyening ishlari salmoqli o'rin tutadi. Uning "So'z semantikasining o'zgarishi" nomli asarida jamiyat hamda til o'rtasidagi bog'lanishlar mavjudligi yaqqol ko'rsatib beriladi. Uning fikricha, "Til insonlar uchun jamiyatning asosiy mezoni bo'lib, u jamiyatda eng kerakli muomala qurolidir". Fransuz psixologi A.Meye tilni jamiyatdan tashqarida tasavvur qilinishi mumkin bo'lmagan ijtimoiy fakt deb hisoblaganida, tilsiz inson jamiyatining ham mavjud bo'lmasligini ta'kidlaydi. A.Meyening fikricha, tilda yuz beradigan hodisalarni ijtimoiy sharoit yuzaga keltiradi; tildagi o'zgarishlarni esa kishidagi psixologik va fiziologik sabablar emas, balki jamiyatdagi o'zgarishlar belgilaydi. U til faktlarining bir tildan ikkinchisiga o'tishiga sotsiologik pozitsiyadan yondashgan.

O'zbek tilshunosligida tilning ijtimoiy tabiati, jamiyatning til taraqqiyotiga ta'siri masalasiga XX asrning 80-yillarida "Tilshunoslikka kirish" o'quv qo'llanmasida alohida to'xtalgan bo'lsa-da, til va jamiyat muammolari ancha oldinroq tahlil qilina boshlangan. Abdurauf Fitrat, Elbek, Botu kabi jadidlarning asarlarida bu masala to'g'risida qaydlar bor. Shuningdek, tilshunos olim S.Mo'minovning "O'zbek muloqot nutqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasini sotsiolingvistik sohadagi dastlabki ish sifatida qayd qilish mumkin. Ilmiy-nazariy ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sotsiolingvistikada tilning uch vazifasi mavjud: tayanch, etnoijtimoiy va ijtimoiy tarzda tasnif qilinadi.

Jahon miqyosida sotsiolingvistika sohasiga ertaroq ahamiyat berib boshlangan. Uning jamiyat va til o'rtasida umumiy o'zgarishlarni o'rganuvchi fan ekanligi va buni tilshunoslikda termin sifatida ilk bor 1952-yilda amerikalik tadqiqotchi hisoblanmish X.Karri tomonidan tatbiq etilgan. Bu ter4min ostidagi tushunchalar, umuman olganda, tilshunoslik sohasining allaqachon paydo bo'lganini anglatish bilan bir qatorda, undan ko'zlangan asosiy maqsad tilning umumbashariy tushuncha ekanligini e'tirof etishdir. Rus tilshunos olimlari ikki xil nomlash sosida o'rganib kelganlar va "Sotsialnaya lingvistika" va "Sotsiolingvistika" singari atamalar ana o'sha davr ruhi va muhiti bilan bog'liq tarzda hosil qilingan.

O'zbek tilshunosligi rivojlanayotgan yo'nalishlarining muhim xususiyatlari, uning asosiy qismlari va ularning ijtimoiy hayotdagi o'rnining beqiyosligi bilan izohlanad. O'zbek tilshunosligining rivojlanish bosqichlari qadimiy va tarixiy davrlar bilan bog'liq jarayondir. Tilshunoslikka oid asarlar qadim zamonlardan ma'lum bo'lib, so'nggi ikki asr, yani IX-X asrlar uning faol rivojlanish davriga aylandi, natijada ushbu fanning ko'plab sohalari vujudga kela boshladi va shakllanish, rivojlanish bosqichiga yangi izlanishlar hamda o'zbek tilshunos olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining mahsuli sifatida namoyon bo'ldi. Albatta, o'zbek tilshunosligining rivojlanishi barcha kishilar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-tarixiy rivojlanishning asosiy qonuniyatlariga ham bog'liqdir. Shuning uchun ham biz o'zbek milliy tilshunosligimizning rivojiga nazar tashlar ekanmiz, o'rganar ekanmiz, avvalo hamisha uni diaxronik va sinxronik jihatdan tahlil qilamiz, uning tarixiy rivojlanishi asosida bugungi holatini yoritamiz. Agar biz o'zbek tilshunosligini uning o'tmish tarixi bilan hech qanday aloqasiz tarzda o'rganadigan bo'lsak, munosabat bildiradigan bo'lsak, bu sinxronik jihatdan tavsif berish bo'ladi. Mabodo biz o'zbek tilimizni uning tarixi, o'tmishi bilan, yani O'rta asrlar, X, XI-XII, va XV asrlar bilan taqqoslab tavsif qilsak, bu – diaxronik tavsiflash bo'ladi.

O'zbek milliy tilshunosligimiz fan sifatida bir qancha alohida fanlarni o'z ichiga oladi, ular orasida tilning ichki tuzilishini o'rganuvchi fanlarni va tilning jamiyatdagi faoliyatini o'rganuvchi fanlarni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, fonetika, leksikologiya va grammatika kiradi. Fonetika nutq tovushlari va intonatsiyasini, leksikologiya tilning lug'atini, grammatika so'zlarning tuzilishini (morfologiyasini) va gaplarning tuzilishini (sintaksisini) o'rganadi. Tilning jamiyatdagi faoliyati bilan bog'liq fanlar orasida birinchi navbatda sotsiolingvistika mavjud. Ijtimoiy lingvistika tilshunoslikning ijtimoiy muhitning odamlarning tili va nutqiy xulq-atvoriga ta'sirini o'rganadigan maxsus yo'nalishidir. Ijtimoiy lingvistika odamlarning til birliklaridan qanday foydalanishi bilan qiziqadi: tildan foydalanish xususiyatlariga insonning



yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, umumiy madaniy darajasi, yashash joyi va tildan tashqaridagi boshqa omillar ta'sir qiladi. Bugungi kunda tilning kelib chiqishining biologik nazariyalari juda ko'p. Biologik nazariyalar tilning kelib chiqishini inson tanasi - sezgi organlari, nutq apparati va miya evolyutsiyasi bilan izohlaydi. Bu nazariyalarning ijobiy tomoni shundaki, ular tilning paydo bo'lishini tabiatning uzoq davom etgan taraqqiyoti natijasi deb hisoblaydilar. Tilning kelib chiqishining ijtimoiy nazariyalari tilning vujudga kelishini mehnat jarayonida va inson ongining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan ijtimoiy ehtiyojlar bilan izohlanadi.

O'zbek tilshunosligining rivojlanayotgan yo'nalishlari uni o'rganish jarayonida quyidagi o'rinlarda namoyon bo'ladi: Dinamik lingvistika, sinxron lingvistika, diaxron lingvistika, intralingvistika, ekstralingvistika, paralingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturalogiya. Dinamik lingvistikada asosan, tilni haqiqiy borligida, kommunikativ jarayonlarda o'zining har xil funksiyalarini bajarishda, rivojlanish va taraqqiyot bosqichlarida o'rganadi hamda tadqiq qiladi.

Tilshunoslikda yana bir zamonaviy yo'nalishdagi fan paydo bo'ldiki, u milliy xalqning madaniyati, etnografiyasi va tarixiy-madaniy rivojlanish bosqichlarini lingvistik jihatdan tahlil qilishga hamda o'rganishga xizmat qiladi. Sinxron lingvistika tilning ma'lum bir davri, faoliyat bosqichlarini yoritishga bag'ishlangan bo'ladi. Diaxron lingvistika esa tilning taraqqiyot qonuniyatlari o'rganishi bilan tavsiflanadi.

O'zbek tilshunosligida bugungi kunda shunday bir zamonaviy yo'nalishlar rivojlandiki, bu sohalar o'zining olamshumul izlanish tadqiqotlari bilan fanlar olamida haqiqiy mazmuniga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, kompyuter lingvistikasi tilshunoslikka oid muammolarni kompyuter vositasida hal qilishda faolligi bilan, kognitiv lingvistika inson bilimni o'rganuvchi fan sifatida, pragmalingvistika esa lisoniy birliklarning qo'llanilish vaziyatlarini, nutqiy faoliyatlarini sistema sifatida o'rganishi bilan ajralib turadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O.Azizov "Tilshunoslikka kirish" T. 1996.
2. Mahmudov N. Til, Toshkent.1998
3. R. Normurodov. Sotsiolingvistika.Termiz – 2008 yil.
4. Yusupova S.A (2022-yil, sentabr). XALQARO ILMYIY-AMALYIY KONFERENSIYADA "ILMIY TARAQQIYOT DAVRI" (1-jild,1-son,10-14-betlar).

## **POWER OF TESTS: STANDARDIZED TESTS AND THEIR IMPACT ON EDUCATION IN UZBEKISTAN**

**Asrorov Ilgor**

International Islamic Academy of Uzbekistan

[i.asrorov@iiiau.uz](mailto:i.asrorov@iiiau.uz)

### **ABSTRACT**

*This article explores the power and influence of standardized language tests, particularly in the context of Uzbekistan's educational system. It examines how tests, especially those aligned with the Common European Framework of Reference (CEFR), act as gatekeeping mechanisms that shape educational outcomes and social mobility. Drawing on the work of scholars like Foucault (1979) and Shohamy (2001), the article highlights the ethical concerns surrounding the use of tests as tools of control and surveillance. It discusses the negative impacts of these tests on teaching, learning, and individuals, urging for more democratic testing practices that prioritize educational equity and integrity.*

**Keywords:** *Standardized tests, education, power, CEFR, gatekeeping, washback, ethics, Uzbekistan*

## **TESTLARNING KUCHI: STANDARTLASHTIRILGAN TESTLAR VA ULARNING O'ZBEKISTON TA'LIMIGA TA'SIRI**

**Asrorov Ilg'or**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

[i.asrorov@iiiau.uz](mailto:i.asrorov@iiiau.uz)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola, O'zbekiston ta'lim tizimida, standartlashtirilgan til testlarining kuchi va ta'sirini o'rganadi. Xususan, CEFR (Common European Framework of Reference) bilan moslashtirilgan testlarning ta'lim natijalarini va ijtimoiy harakatlanishni shakllantiruvchi "gatekeeping" mexanizmlari sifatida qanday rol o'ynashini tahlil qiladi. Fukolt (1979) va Shohamy (2001) kabi olimlarning ishlari asosida maqola, testlarning nazorat va kuzatuv vositalari sifatida ishlatilishining axloqiy muammolarini yoritadi. Ushbu testlarning o'qitish, o'rganish va shaxslar hayotiga salbiy ta'sirini muhokama qilib, ta'limda tenglik va adolatni ustun qo'yadigan demokratiyaga asoslangan test amaliyotlariga chaqiradi.*

**Kalit so'zlar:** *standartlashtirilgan testlar, ta'lim, testlarning kuchi, CEFR, gatekeeping, washback, axloq (ethics), O'zbekiston*

## **INTRODUCTION**

The power and influence of standardized tests in educational systems is a topic of growing concern and debate, particularly regarding their role in shaping individual lives and broader societal structures. Tests, once viewed primarily as tools for assessment, have increasingly become instruments of control and surveillance, affecting not only the test takers but also teachers, policymakers, and educational institutions. In this context, tests are often used to determine educational outcomes and career opportunities, making them key players in decisions that impact social mobility and access to resources. Scholars such as Foucault (1979) and Shohamy (2001) have highlighted the ways in which tests serve as mechanisms of power, shaping behavior and expectations within educational systems. These effects are particularly visible in high-stakes testing environments, where test outcomes influence admission to universities, job placements, and even professional certifications. This article examines the use of standardized language tests in the educational system of Uzbekistan, where such tests, particularly those aligned with the Common European Framework of Reference (CEFR), are employed for gatekeeping purposes. It explores the potential negative impacts and washback effects these tests can have on teaching, learning, and the overall educational experience. The paper argues for a more democratic approach to testing that considers the ethical implications of using tests as instruments of power and control.

### **Power of tests**

Tests are powerful devices and they are capable of dictating many decisions. In language testing, for example, we may collect evidence based on which make decisions and inferences. These decisions or inferences have profound implications for individuals and the society, which means tests have undeniable power highlighted by many researchers. Spolsky (1997) points out that so-called “Shibboleth test” in the Bible was used for control and power in order to recognize outsiders. In modern times, the power of tests in our lives is being felt even more. Foucault (1979) argues that “test is an act of surveillance by the educational system” (p. 184). He also points out that educational systems develop tests because they want to observe students and “it is a normalizing gaze, a surveillance that makes it possible to quantify, classify and punish” (Foucault, 1979, p.184). According to Shohamy (2001), traditional testing pays much attention to the quality of tests in order to maximize accuracy of tests. However, the testing experience of test takers is given very little attention. Shohamy (2001) also claims that the evidence of power that tests have can be observed if we listen to the voices of test takers. At the same time, authorities are using tests as disciplinary tools and this leads test takers to fear tests and obey the

rules those authorities put with the help of tests. Madus (1990) states that a single test performance can often indicate the future of individuals and “a single standardized test score independently triggers as an automatic admission, promotion, placement or graduation decision” (p.5). Because of their power and authority, tests can be used as an effective tool to control educational systems and prescribe the behaviour of individuals who are affected by the results. In a variety of contexts, this issue can be observed. Policymakers who are aware of such power of them use tests to manipulate systems of education and curricula. At school levels, tests can be used to urge teachers to teach and tests can also be used to force students to focus on their studies. Tests can serve to enforce student learning and teachers can use them to motivate learning and introduce discipline. As a result, tests which are designed to find out achievements or select suitable individuals for a certain job have turn into controlling and manipulating devices over educational systems. Shohamy (1991) asserts that countries with centralized educational systems commonly practice tests for power and control because central agencies usually control the curriculum in those countries. Tests can be seen as the primary tools to introduce changes in the system of education without changing other components such as curricula or teacher training. In Uzbekistan, for example, “when the CEFR was introduced in 2013, there were different concerns by the Ministry of Education and foreign language teachers on how to implement it smoothly in the education system. Almost all teachers took and are still taking exams based on tests to the CEFR proficiency levels called National System of Assessment of Foreign Language Proficiency for certification” (Musoeva, 2020, p. 388). The number of tests which are used for such purposes by policy makers in Uzbekistani context has been increased to 16 including both standardized tests and other types of certificate of achievement (for the full list of language certificates, see **Appendix A**). However, the variety of tests in this list caused the debate among stakeholders on the validity issues, particularly consequential validity (or known as impact), in the next section. In language testing the consequences of tests were present in even ancient “Shibboleth tests” we mentioned above, however, the awareness of this power of language tests was introduced in the previous century with Messick’s concept of validity. Researchers started studying the impact of language testing on individuals, which we to it as consequential validity as well.

Test impact is observed in different levels from micro to macro. This clearly suggests that tests have might have impact on students, teachers, schools, parents, making policy, instructions, social mobility. In Uzbekistani educational context, stakeholders, especially, teachers are concerned about the detrimental effects of standardized language tests which are serving as gatekeeping on the life of



individuals. Choi (2008) argued that the use of standardized tests for gatekeeping purposes may prevent students from opportunities to gain productive language skills because test takers can be disillusioned with testing. Another aspect of impact that have caused teachers' concern is standardized test industry. Test takers are willingly ready to pay high prices to pass such tests no matter how expensive these tests are because the power of these tests as gatekeeping urge them to do so. McNamara (2000) criticizes the effects of opportunities for test preparation on test results. He argues that test takers who have coaching opportunities thanks to their financial affordability might have impact on performance.

### **Washback issues related to standardized tests**

Another instance of impact (consequential validity) is a range of effects of testing on teaching and learning which is known as washback in the language assessment. Messick (1996) claims that washback may serve for both promotion and inhibition of learning. Thus, beneficial washback and negative washback are differentiated by scholars and researchers. In Uzbekistani context, teachers are concerned the effects of standardized tests on language learning and instructions. For example, students who are preparing for a test usually think about the preparation phase rather than language development. The main aim of the students can be just passing the required level of a standardized language test or taking as highest level as possible since a good result they take from a standardized test may bring them a lot of opportunity. Brown and Abeywickrama (2010) criticize the modern use of standardized tests which serve as gatekeeping and claim that those standardized language tests “can lead students to focus on simply gaining an acceptable score rather than on language development” (p. 38). Another concern about the effect of standardized tests on learning in Uzbekistani context is the summative character of standardized language tests used in this educational context. It is claimed that, compared to other formative assessment forms, standardized tests “do not need to offer much in the way of washback” (Brown & Abeywickrama, 2010, p. 39) because a simple numerical (for example IELTS band 6.5) or letter (for example B+) score usually do not provide beneficial washback. However, stakeholders, especially teachers, are optimistic about the positive effects of tests on instructions, learning, and teaching and looking for ways of how to achieve beneficial washback.

### **Ethical issues in a testing context**

It is commonly believed that testing industry is growing rapidly and almost everyone is subject to tests at least once in their life. The issue of using tests as a means of abuse of power by authorities is another topic among scholars which is being widely discussed today. The use of standardized tests by policy makers has also

become an ethical issue that many researchers and stakeholders pay attention. Medina and Neill (1990) claim that the complexity issue of testing issues has been ignored by many policymakers and there are obvious limitations of standardized test use we should deal with. In Uzbekistan, teachers are also against of standardized test use as gatekeeping on the grounds of absence of democratic principles. From my experience, many teachers believe that the requirement of standardized test result equivalent to C1 level of CEFR for placing EFL teachers at workplaces is violating democratic principles. They claim that such tests should not be the mechanism of enforcing control and power by government and businesses as Shohamy (2001) claims that

“The uses of tests as instrument of power violate fundamental values and principles of democratic practices. The power of tests are in the hands of powerful organizations that control and define knowledge in their own terms, often without any form of consultation with pedagogical experts and negating existing knowledge as expressed in curricula. Tests are often used as ideologies in the belief that their introduction will upgrade learning, although there is no evidence that this in fact occurs.” (p. 375).

The introduction of CEFR standards and standardized language tests in Uzbekistani education context aims that very reason of improving foreign language learning mentioned above according to Presidential Decree №.1875 “On the measures of strengthening the system of learning foreign languages” (2012). Although the aim of using standardized language tests in Uzbekistani context is defined as developing foreign language learning, teaching and assessment, we should not forget that “the large-scale standardized testing is not an unbiased process” (Brown & Abeywickrama, 2010, p. 99) but it can shape the lives of individuals as the agent of political and ideological agendas. Thus, individuals, especially teachers and students affected from high-stakes tests in Uzbekistani context, are in favor of and expecting a number of principles under the notion of critical language testing should be observed in order to have more democratic testing practices such as limiting the tests as a tool of power, transferring power from elites to locals, making test creators responsible for the consequences of tests (Shohamy, 2001).

### **Conclusion**

As we discussed above high-stakes tests have been widely used to make decisions in educational systems and their impact on test takers can be significant. In Uzbekistani educational context like many others, policymakers declare that they use certain standardized language tests for gatekeeping in the selection of suitable candidates for university admissions and EFL teachers linking the tests CEFR standards but the role of the tests does not end in the examination and certification

process. All the stakeholders should be aware of the impact and washback of the tests on teaching and learning. Tests should not only be the way of imposing policies but they should serve the improvement of teaching and learning system as declared in policy documents (Shohamy, 1993). In this essay, I have tried to argue that certain standardized language tests used in Uzbekistani context might have negative impact and washback on teaching and learning and emphasize the role of democratic assessment as alternative since such using such tests as power might violate the democratic principles of assessment (Shohamy, 2001) as ethics of testing should not be ignored in testing process.

### REFERENCES

1. Brown, H. D., & Abeywickrama, P. (2010). Language assessment. *Principles and Classroom Practices*. White Plains, NY: Pearson Education.
2. Choi, I. C. (2008). The impact of EFL testing on EFL education in Korea. *Language testing*, 25(1), 39-62.
3. Council of Europe. (2001). *The Common European Framework of References for Languages: Learning, teaching, assessment*. Cambridge: Cambridge University Press
4. Foucault, M. (1979). *Discipline and punish*. New York: Vintage Books.
5. Labour Code. (1995). *The Labour Code of the Republic of Uzbekistan*. <https://lex.uz/docs/-142859>
6. Madaus, G. F. (1990). *Testing as a social technology*. Boston College.
7. Menken, K., Hudson, T., & Leung, C. (2014). Symposium: Language Assessment in Standards-Based Education Reform. *TESOL Quarterly*, 48(3), 586–614. <http://www.jstor.org/stable/43267981>
8. Messick, S. (1996). Validity and washback in language testing. *Language Testing*, 13(3): 241-56.
9. Musoeva, A. (2020). Teacher professional development and its link with the CEFR. *Digital technologies in modern education: current trends and development factors in philology and pedagogy*. Tashkent.
10. Presidential Decree №.1875 “On the measures of strengthening the system of learning foreign languages” (December 10, 2012). <https://lex.uz/docs/2126032>
11. Spolsky, B. (1997). The ethics of gatekeeping tests: what have we learned in a hundred years? *Language Testing*, 14(3), 242–247. <https://doi.org/10.1177/026553229701400302>
12. Shohamy, E. (1993). *The Power of Tests: The Impact of Language Tests on Teaching and Learning*. NFLC Occasional Papers.

13. Shohamy, E. (2001). Democratic assessment as an alternative. *Language testing*, 18(4), 373-391.
14. Shohamy, E. G. (2001). *The power of tests: A critical perspective on the uses of language tests*. Pearson Education.
15. Fayzi ogli, A. I. (2022). Teaching English to Students with Visual Impairments: Problems and Solutions. *Thematics Journal of English Language Teaching*, 6(1).
16. Fayzi ogli, I. (2021, May). PROBLEMS AND SOLUTIONS OF TEACHING CLASSES WITH BLIND STUDENTS. In *Archive of Conferences* (Vol. 26, No. 1, pp. 13-15).
17. ogli Asrorov, I. F. (2020). The Content Of Teaching Foreign Languages. *Scientific Bulletin Of Namangan State University*, 2(11), 322-326.
18. Asrorov, I. (2021). TIPS FOR THE TEACHERS WORKING WITH BLIND STUDENTS IN A LANGUAGE CLASSROOM. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(05), 474-476.
19. kizi Eshboeva, D. A., Akbarova, S. K., ugli Hafizov, A. A., & ugli Asrorov, I. F. (2022). PSYCHOLINGUISTIC FEATURES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO PRESCHOOL CHILDREN. *Journal of Positive School Psychology*, 6(2), 4509-4518.
20. Ogli, A. I. F. (2020). Defining learning disorders and learning disabled children (Children who have problems learning). *Наука и образование сегодня*, (3 (50)), 71-73.
21. Asrorov, I. F. (2020). THE IMPORTANCE OF INDIVIDUAL FEATURES IN THE CLASSROOM. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, 2020(1), 98-105.
22. Asrorov, I. (2024). SOCIAL DIMENSIONS OF STANDARDIZED ASSESSMENT IN LANGUAGE TEACHING IN UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(9), 84-90.



## **SPORT SOHASIDA MOLIYAVIY BOSHQARUV TIZIMI VA MEXANIZMLARI**

**Boymurotov Botirjon Nizomiddinovich**

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, assistent

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada sport sohasida moliyaviy boshqaruv tizimi va mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Jismoniy tarbiya va sportning holati bevosita ishlatilgan tashkiliy-iqtisodiy tizimning samaradorligiga, shu jumladan, moliyalashtirishni rivojlantirish strategiyasi, sport inshootlarining ijobiy imidjini shakllantirish va sport xizmatlari marketingiga bog‘liqdir. Davlatning ishtiroki zarur bo‘lgan joylarga jismoniy tarbiya va sport xizmatlari sohasidagi davlat tomonidan mablag‘ ajratiladi, jumladan, bolalar sporti, ommaviy sport, moslashuv dasturlari uchun. Jismoniy tarbiya va sportning boshqa faoliyati tijorat asosida ta‘minlanishi va bilvosita davlat tomonidan tartibga solinadi. Maqolada moliyaviy boshqaruv tizimlari va uning elementlari, vositalari va qanchalik darajada sportni rivojlantirishga hissa qo‘shishi tahlil qilindi.*

**Kalit so‘zlar:** sport, moliyaviy boshqaruv, yangi texnologiyalar, iqtisodiy jarayonlar, eksperimental ishlanmalar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot.

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье научно обоснованы система и механизмы финансового управления в сфере спорта. Состояние физического воспитания и спорта напрямую зависит от эффективности используемой организационно-экономической системы, в том числе стратегии финансирования развития, формирования положительного имиджа спортивных объектов и маркетинга спортивных услуг. Государственные средства выделяются в сфере физкультурно-спортивного обслуживания там, где необходимо участие государства, в том числе на детский спорт, массовый спорт, адаптационные программы. Физическая культура и другие виды спортивной деятельности осуществляются на коммерческой основе и косвенно регулируются государством. В статье проанализированы системы финансового управления и их элементы, инструменты и в какой степени они способствуют развитию спорта.*

**Ключевые слова:** спорт, финансовый менеджмент, новые технологии, экономические процессы, экспериментальные разработки, научно-технические разработки.

## **ABSTRACT**

*The article provides scientific substantiation of the system and mechanisms of financial management in the field of sports. The state of physical education and sports directly depends on the efficiency of the organizational and economic system used, including the strategy for financing development, forming a positive image of sports facilities and marketing sports services. State funds are allocated in the field of physical education and sports services where state participation is necessary, including children's sports, mass sports, adaptation programs. Physical education and other types of sports activities are carried out on a commercial basis and are indirectly regulated by the state. The article analyzes financial management systems and their elements, tools and the extent to which they contribute to the development of sports.*

**Keywords:** *sports, financial management, new technologies, economic processes, experimental developments, scientific and technical developments.*

## **KIRISH**

Innovatsion iqtisodiy jarayonlarda sportning ahamiyatini ta'kidlash kerak. Yangi texnologiyalarni o'rganish va qo'llash uchun, eksperimental ishlanmalar va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning boshqa atributlari ko'pincha yuqori darajadagi yutuqlar sportida birinchi marta sinovdan o'tkazilib, ekstremal sharoitlarda va odamlar o'z imkoniyatlari chegarasida amalga oshiradi. Moliyaviy mexanizm korxonalar mablag'larini boshqarish uchun ishlatiladi va bu ularning funksiyalari va o'zaro munosabatlari tomonidan to'liq va samarali bajarilishiga hissa qo'shishi kerak. Moliyaviy mexanizm - bu iqtisodiy qonunlarning talablariga muvofiq ishlab chiqarishning yakuniy natijalariga samarali ta'sir ko'rsatish maqsadida shakllar va usullarning kombinatsiyasidan foydalangan holda korxonani moliyaviy boshqarish tizimi.

Moliyaviy boshqaruv tizimi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi.

- moliyaviy usullar;
- moliyaviy vositalar (vositalar);
- qonuniy qo'llab-quvvatlash;
- axborot va uslubiy ta'minot.

Moliyaviy usullar moliyaviy munosabatlarga biznes jarayoniga, mablag'larni shakllantirish va ulardan foydalanishga ta'sir qilish usullari. Moliyaviy usullarga quyidagilar kiradi: moliyaviy rejalashtirish, buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, moliyaviy tartibga solish va moliyaviy nazorat [1, 23-b.].

Moliyaviy natijalar moliyaviy usullarda ishlatiladigan vositadir. Bularga iqtisodiy faoliyat ta'sir qiladigan iqtisodiy ko'rsatkichlar kiradi: foyda, daromad,

solliq, moliyaviy sanksiyalar, narx, dividendlar va foizlar, ish haqi, shuningdek amortizatsiya, o'zaro badallar, ustav kapitaliga badallar, portfel investitsiyalari va boshqalar.

Moliyaviy vositalarga ikkala asosiy vositalar (debitorlik va kreditorlik qarzlari, aksiyalar) va derivativlar (moliyaviy imkoniyatlar, fyuchers va forvardlar, foiz stavkalari va valyuta svoplari) kiradi [2, 67-b.].

Moliyaviy aktivlik quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: naqd pul, naqd pul olishning shartnomaviy huquqi, moliyaviy vositani boshqa kompaniya bilan almashtirish uchun shartnoma huquqi, boshqa kompaniyaning kapital vositasi. Moliyaviy majburiyat bu moliyaviy aktivni topshirish yoki almashtirish bo'yicha har qanday shartnoma majburiyatidir.

Moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar xavflar bilan birga keladi: narx, valyuta, foizlar, bozor, kredit, likvidlik, pul oqimi va boshqalar.

Korxonaning moliyaviy mexanizmining ishlashini huquqiy ta'minlashga qonun hujjatlari, boshqaruv organlarining buyruqlari, buyruqlari, xatlari va boshqa huquqiy hujjatlari kiradi. Korxonalarining moliyaviy mexanizmlari faoliyatini tartibga solishda aylanma mablag'lar normalari va standartlari, amortizatsiya stavkalari, tarif va soliq stavkalari qo'llanilishi ta'minlanadi [3, 231-b.].

Moliyaviy mexanizmning ishlashini axborot bilan ta'minlash har xil turdagi va iqtisodiy, tijorat, moliyaviy va boshqa ma'lumotlardan iborat. Ushbu ma'lumotlarga sheriklar va raqobatchilarning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyati, narxlar, valyuta kurslari, dividendlar, tovarlar, fond va valyuta bozoridagi foizlar to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi.

Shunday qilib, boshqaruv jarayoni sifatida moliyaviy menejment moliyaviy mexanizmdan foydalanishga asoslangan - moliyaviy tizimni tashkil etish, rejalashtirish va undan foydalanish tizimi. Moliyaviy mexanizm - bu moliyaviy sohada boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini tartibga soluvchi asosiy elementlar tizimi, ya'ni korxonalarini moliyaviy boshqarish tizimi. Moliyaviy mexanizm ularning funksiyalari, o'zaro munosabatlari tomonidan eng samarali tarzda amalga oshirilishiga yordam berishi kerak.

Ishlab chiqarish tizimini boshqarish siyosati moliyaviy siyosat bilan belgilanadiganligi sababli, moliyaviy siyosat usullari va usullari sizga tahlil qilish va baholash imkonini beradi:

- davom etayotgan jarayonlar va hodisalarning belgilangan maqsadlarga muvofiqligi;
- boshqariladigan jarayonlarga ta'sir qilish qobiliyati va imkoniyatlari nuqtai nazaridan moliyaviy siyosat samaradorligi;

Moliyaviy va siyosiy munosabatlarni moliyaviy boshqaruv strategiyasi va taktikasini moslashtirish uchun real sharoitlar va imkoniyatlarga muvofiqligi.

Missiyani ishlab chiqishda me'yoriy hujjatlar talablari, bozorning kosmik segmentlari (mahsulot iste'molchilari) tahlili natijalari, korporativ tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning holati, resurslar, atrof-muhit sharoiti (omillar) hisobga olinadi. Missiya asosida korporatsiya maqsadlarni (eng umumiy ko'rsatmalarni) va muayyan muhim sohalardagi faoliyat strategiyasini belgilaydi [4, 89-b.].

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, strategik rejalashtirish maqsadlarni belgilash va sabablarni aniqlashni o'z ichiga oladi


Sportni moliyalashtirish tizimida muhim rolni kirish chiptalarini sotib olish va sotish, sport musobaqalari va tadbirlarining televizion, radio va Internet-translyasiyalariga obuna bo'lish huquqi. \* Asosiy mahsulot namoyish etiladigan professional sport turlari uchun cheklangan sonlar mavjud. uni sotish usullari.

Birinchidan, sport anjomini (xizmatini) musobaqada haqiqatan ham qatnashgan, stadionlar va sport majmualariga maxsus tashrif buyurgan tomoshabinlarga sotish mumkin. Ushbu odamlar sport musobaqalarini "tomosha qilish" huquqini to'lab, sportni moliyalashtirishning birinchi manbasini (bilet deb ataladigan) tashkil etadigan kirish musobaqalari va mavsum chiptalarini sotib olishadi.

Ammo, ko'pincha musobaqalarni tomosha qilishni xohlaydigan sport muxlislari stadion yoki sport inshooti sig'adigan joydan ko'ra ko'proq narsa bo'lishi ko'pincha sodir bo'ladi. Ko'pgina sport ishqibozlari har xil sharoitlar (moliyaviy sabablar, ish joyida ishlash, xizmat safari va boshqalar) sababli o'yinlar va musobaqalarni o'tkazish joylariga shaxsan tashrif buyurolmaydilar. Va keyin, ushbu keng iste'molchilar talabini qondirish uchun texnik vositalardan - radio, televizor, Internet foydalaniladi. Shunday qilib, sport mahsulotlarini sotishning ikkinchi muhim vositasi elektron ommaviy axborot vositalari (ommaviy axborot vositalari) bo'lib, ular bir tomondan, muxlislarning sport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, boshqa tomondan, musobaqalarda va sport musobaqalarida o'z hisobotlariga reklama kiritish orqali daromad oladi. kliplar. Ushbu hajmda elektron ommaviy axborot vositalari mavjud talab va taklifni o'zida mujassam etgan sport va keng auditoriya o'rtasida tijorat vositachisi vazifasini bajaradi.

Sport mahsulotlarini chiptalar va obunalar, shuningdek elektron vositalar orqali sotish xususiyatlari biz quyida ko'rib chiqamiz. Sport klublari yoki boshqa sport biznes tuzilmalari tomonidan moliyaviy mablag'larni jalb qilishning asosiy vositalaridan biri bu ular ishlab chiqaradigan xizmatlarga chiptalarni sotish hisoblanadi. Sport tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar oraliq ichki jarayonlarning yakuniy mahsuloti - ishlab chiqarish, mashg'ulot, transport, reklama,

marketing, kommunal xizmat va boshqa xarajatlarni tayyorlash. Oraliq jarayonlarning umumiy qiymati, shuningdek inson resurslarining sifati oxirgi foydalanuvchilarga sotilishi kerak bo'lgan xizmatning mumkin bo'lgan narxini belgilaydi. Sxematik ravishda bu jarayonni quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Sport xizmatlarini ishlab chiqarish va sotish sxemasi.

Dastlab, sport biznesining tashkilotchisi xodimlar, vositalar, jihozlar, sportchilar, murabbiylar, menejerlarga tegishli investitsiyalarni amalga oshiradi. Barcha zarur manbalar olingandan so'ng, zarur xizmatlar va sport xizmatlarini ishlab chiqarish bo'yicha tadbirlar boshlanadi. Professional sport klublari uchun bu o'quv jarayonining yagona tayyorgarlik bosqichi, murabbiylarning intellektual ishi, moliyaviy, texnik va moddiy resurslarni birlashtirishdir. Ushbu omillarning barchasini birgalikda bajarish natijasida sport shousi sifatida amalga oshiriladigan xizmat yaratildi [5, 76-b.].

Fitnes klublari uchun vaziyat biroz boshqacha. Bu erda zarur tadbirkorlik qobiliyati va ishlab chiqarish omillarini birlashtirish natijasida odamlarning go'zallik, sog'liq, faollik, aloqa, uzoq umr ko'rish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlar ishlab chiqarilmoqda.

Sport biznesi tomonidan ishlab chiqariladigan xizmatlar to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilish va keyinchalik qayta sotish uchun sotib oladigan ko'plab iste'molchilarning bo'sh vaqtlarini to'ldirishga mo'ljallangan. Birinchi holda, sport biznesi o'z xizmatlarini oxirgi foydalanuvchilarga sotadi - bu jarayon B2S deb nomlanadi (iste'molchilar (mijozlar uchun biznes) - iste'molchilar (xaridorlar) uchun biznes, ikkinchisida - boshqa tadbirkorlarga yoki korxonalariga - B2B (biznesdan biznesga - biznesdan biznesga).) Iste'molchilarning ushbu asosiy toifalariga tayyor yoki potensial (kelajakda ishlab chiqariladigan) sport xizmatlarini baholash va sotish jarayoni quyida muhokama qilinadi.

Boshlash uchun biz sport xizmatining egaligini aniqlaymiz. Xizmatning egasi rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tgan ishlab chiqaruvchidir, u sportchilar va murabbiylar, savdo markalari, kompaniya nomlari, patentlarga oid barcha huquqlarga ega va ushbu faoliyat turiga tegishli litsenziyalarga ega. Xizmatga egalik qilish ishlab



chiqaruvchiga uni mustaqil ravishda qonuniy ravishda sotish imkoniyatini beradi. SHu bilan birga, ishlab chiqaruvchi o'zi tomonidan ishlab chiqarilgan sport va boshqa xizmatlarni turli yo'llar bilan amalga oshirishi mumkin.

Muvaffaqiyatli biznes uchun sport tashkilotining moddiy bazasi va moliyaviy resurslari muhim rol o'ynaydi. Ushbu muhim tarkibiy qismlarsiz biznesni yuritish juda qiyin, garchi bu iqtisodiy faoliyatning ma'lum bosqichlarida mumkin bo'lsa. O'zining moddiy bazasi va etarli mablag'i bo'lmagan holda, sport tashkiloti qarzga botib yashashga majbur bo'ladi, bu esa barcha ishlarida salbiy iz qoldiradi. Sport tashkilotining ushbu rejimida ishlashning eng yaxshi natijasi bankrotlik va bozordan chiqishdir.

### **XULOSA.**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiya dasturini ishlab chiqish jarayonida sport xizmatlari bozorining rivojlanishi va sport imkoniyatlari aniqlanadi. Shu munosabat bilan iqtisodiyotni modernizatsiyalashda sport majmualari faoliyatidan foydalanishning samaradorlik darajasini yanada oshirish, sport xizmatida raqobat muhitini shakllantirish, kelgusida sport xizmatiga bo'lgan talabni yanada chuqurroq o'rganish, sport tashkilotlarida innovastion faoliyatni yanada rivojlantirish sohasidagi vazifalarni hal qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun sport tashkiloti muammosiz rivojlanish uchun etarlicha moddiy va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak, ular boshqa barcha biznes operatsiyalari - aksiyalar, raqobatbardosh va mashg'ulot faoliyati, xodimlarga ish haqi va bonuslarni to'lash, transfer faoliyati va boshqalar uchun asos bo'ladi.

### **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Экономические и социальные аспекты развития спортивных услуг: Монография /Под. ред. Н.А. Восколович – Москва: ТЕИС, 2012. - 144 с.
2. Восколович Н.А. Экономика платных услуг. - Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.
3. Галкин В.В. Экономика спорт и спортивный бизнес. Учебное пособие.- Москва: Кнорус,2009. - 320 с.
4. Гурков И.Б. Стратегический менеджмент организации. Учебное пособие. – Москва: ТЕИС, 2009. - 250 с.
5. Shomurodov H.S. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport faoliyatida tadbirkorlik. Monografiya. - Toshkent: "Tafakkur qanoti", 2014.

## **LIBOS MILLAT KO'ZGUSI**

**Nishonova Sayyora Djuravayevna**

Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

“Libos dizayni” kafedrası o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada o‘zbek milliy liboslari moddiy va ma’naviy madaniyatning ajralmas qismi ekanligi yoritib berilgan. O‘zbek xalq san’ati uzoq tarix davomida shakllanar ekan, mavjud ijod namunalarining eng qimmatli va hayot bilan bog‘langanligi bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** madaniyat, an’ana, xalq og‘zaki ijodi, estetik, etnik, libos, kiyim, milliy, liboslar, urf-odatlar, kamzul, bosh kiyimi, do‘ppilar, ustki kiyimlar.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье узбекские национальные костюмы являются неотъемлемой частью материальной и духовной культуры. Поскольку узбекское народное искусство формировалось давно, описаны наиболее ценные образцы существующих творений и необходимость связи с жизнью.*

**Ключевые слова:** культура, традиция, фольклор, эстетическое, этническое, платье, одежда, обычаи, жилет, головной убор, тубетейка, верхняя одежда

### **ABSTRACT**

*In this article, Uzbek national costumes are an integral part of material and spiritual culture. As Uzbek folk art has been formed for a long time, the most valuable examples of existing creations and the necessity of connection with life have been described.*

**Key words:** culture, tradition, folklore, aesthetic, ethnic, dress, clothes, national, dresses, customs, waistcoat, headdress, hats, Outerwear

### **KIRISH**

O‘zbek xalqi ming yillar davomida shakllanib, sayqallanib kelayotgan boy madaniyatga ega. Madaniyat o‘zida moddiy va ma’naviy boyliklarni mujassam etadi. Moddiy madaniyat inson hayot faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olgan holda, uning qobiliyatlari va ijodkorligining natijasi sifatida inson tomonidan yaratilgan moddiy ne‘matlarni o‘zida namoyon etadi. Ma’naviy madaniyat esa bilim, estetik qadriyatlar, xulq-atvor normalari, dunyoqarash, axloq, diniy e‘tiqodimiz, an‘analarimizni qamrab oladi. Moddiy va ma’naviy madaniyatning bir ko‘rinishi sifatida milliy liboslar shu qadar ko‘p qirrali va noyob hodisa bo‘lib, u xalqning etnik

tarixi va madaniyatini, o'ziga xos estetik qarashlari, didi va an'alarini o'zida aks ettiradi. Til madaniyati, xalq og'zaki ijodi, an'ana va urf-odatlar bilan birga milliy liboslar ma'lum bir millatning muayyan hayot tarzi haqida e'tiborli ma'lumotlar beradi.

An'anaviy milliy liboslar o'ziga xos belgi, timsol sifatida ma'lum bir ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bular amaliy, utilitar, estetik, yosh, ijtimoiy-jins (turmushga chiqqan ayol libosi) va u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan axloqiy funktsiya, shuningdek bayramona libos, marosimlar uchun, kasbiga bog'liq bo'lgan, diniy liboslarni ajratib ko'rsatadi. Liboslarda inson yashagan joy va zamon, uning hayoti, turmushidagi quvonchli yoxud qayg'uli kunlari aks etadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Milliy liboslar muayyan madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi ijtimoiy belgi sifatida madaniyatlarning o'zaro ta'siri va moslashuvchanligini ta'minlaydi, va shu bilan birga, turli davrlarda turli etnik guruhlarining madaniyatlar muloqotini amalga oshiruvda vositachi bo'lib, ushbu madaniyat uchun muhim bo'lgan muayyan axborot assimilyatsiyasini tashkil qiladi. F.Ataxanova, U.Xojdaeva, U.Raxmatullaeva, M.Abdukarimovalar tomonidan tayyorlangan ilmiy maqola va o'quv qo'llanmalari kostyum va aksessuarlar loyihalash jarayonlarining bugungi kundagi ilg'or ta'lim dasturlari asosida shakllantirilgan.

### **MUHOKAMA**

Kiyim va libos tushunchalari mazmun-mohiyati jihatdan bir-biri bilan mushtarak ko'rinsa-da, ushbu tushunchalar o'rtasida birmuncha farqlar ham mavjud.



Kiyim deganda, avvalo, inson tanasining turli qismlarini berkitish uchun zarur bo'lgan, uni tashqi muhitning turli ta'sirlaridan himoyalaydigan buyumlar tushuniladi.

Kiyimning qator turlari mavjud. Bular: ichki kiyim, ustki kiyim, turli uzunlikdagi paypoqlar, poyabzal, bosh kiyimlari. Mana shu predmetlar turli vazifalarni bajaruvchi aksessorarlar, bezaklar, soch turmagi, pardoz bilan birga libosni tashkil etadi. Libos yaxlit kompozitsiyadir. Aynan libos insonning ijtimoiy kelib chiqishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, yoshi, jinsi, xarakteri va estetik didini namoyon etadi.



Xalqimizning yorqin va o'ziga xos urf-odatlarini asrlar davomida shakllanib

kelgan, shu bilan birga an'anaviy liboslarimiz ham uzoq davrlardan rivojlanish bosqichini o'tagan. Liboslarning tarkibi o'zgargan, unga kiritilgan buyumlardan tortib, ularning shakli, kesimi, matolari va ranglari, kiyinish uslubi o'zgarib borgan. Aytish joizki, qadimdan liboslar uchun matolarni asosan ayollar ishlab chiqarganlar. Avvalo jundan, keyinchalik esa boylik ramzi hisoblangan ipak, paxta, zig'ir tolalaridan matolar to'qilgan.

O'zbek milliy liboslarining birinchi o'ziga xos xususiyati, hokimiyat va badavlatlik belgisi bo'lmish oltin kashtachiligidir. Arxeologlar Toshkent viloyatidagi qazishmalar paytida oltin kashta izlarini topganlar: kiyimning bunday bezagi ipak paydo bo'lishidan oldin ham ma'lum bo'lgan degan faraz mavjud. Asl matolar gulli, ayrim hollarda geometrik bezaklar bilan bezatilgan. Bunday liboslar ijtimoiy mavqe'ning yorqin belgisi bo'lgan. Masalan, hukmdor va saroylardagi mulozimlar oltin naqshinkor liboslar kiyishi urf bo'lgan, ushbu qimmatbaho qiyimlarni hukmdorlar o'z mulozimlariga sovg'a qilganlar. Lekin qadimdan oddiy kishilarning kiyimi ham oddiy bo'lgan. "An'anaviy o'zbek libosi asosan, ustki ko'ylak, ishton va chopondan, boshga do'ppi, oyoqqa mahsi-kalish yoki etikdan iborat bo'lgan. Erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslar oddiy usulda, ba'zan qaychisiz va ulgusiz, yaxlit matodan yirtib tikilgan. Bir parcha gazlamani ikkiga buklab, elka tomonga ko'ndalangiga ikki eng bilan bir parcha to'rt burchak xishtak (qo'ltig'iga solingan) tikib kiyilavergan"



O'zbek milliy liboslari juda yorqin, chiroyli, qulay bo'lib, xalqning boy madaniy an'analari va turmush tarzining bir qismidir. Shaharlarda milliy libosdagi odamlarni topish kamdan-kam uchraydi, bugungi kunda u an'anaviy bayram tadbirlarida



kiyiladi, ammo qishloqda u hali ham kundalik va dam olish kunlari liboslarining bir qismi bo'lib xizmat qiladi.

Erkaklarning ko'ylak-ishtoni, odatda, bir rangda, asosan, oq rangda, ayollarniki rang-barang matolardan tikilgan. Ayollarning milliy liboslari ichki, ustki va kishilik kiyimdan iborat bo'lgan. Ustki kiyimlar – kamzul, engil xalat (mursak, kaltacha), engsiz nimchalardir. Ayollarning o'ziga xos chopon shaklida bichib tikilgan ust kiyimi – mursak ilgari juda keng tarqalgan. Ular Buxoro, Xorazm va Qashqadaryoda engi tirsakkacha kalta va kengligi bilan,

Samarqand va Toshkentda uzun, engsiz, bilakkacha engi bo'lgani bilan farqlangan. Mursak astarli qavima qilib tikilgan, qishki mursakka esa paxta solingan.

### **O'zbek erkaklar kiyimlari**

Erkaklar milliy libosining asosini chopon tashkil etadi, u belga ro'mol – kiyikcha bilan bog'lanadi. An'anaviy bosh kiyim - do'ppi. Badaniga ko'ylak, ishton - pastki qismiga torayib turadigan keng shim kiyiladi. Oyoqlari yupqa teridan tikilgan etiklarda. To'liq libosdagi kamarlar ko'pincha juda oqlangan - baxmal yoki kashta tikilgan, kumush naqshli blyashka va tokalar bilan. Kundalik ko'ylak uzun ro'moldek kamar bilan bog'langan.





O'zbek milliy liboslari juda yorqin, chiroyli, qulay bo'lib, xalqning boy madaniy an'analari va turmush tarzining bir qismidir. Shaharlarda milliy libosdagi odamlarni topish kamdan-kam uchraydi, bugungi kunda u an'anaviy bayram tadbirlarida kiyiladi, ammo qishloqda u hali ham kundalik va dam olish kunlari liboslarining bir qismi bo'lib xizmat qiladi

Erkaklar milliy libosining asosini chopon tashkil etadi, u belga ro'mol – qiyikcha bilan bog'lanadi. An'anaviy bosh kiyim - do'ppi. Badaniga ko'ylak, ishton - pastki qismiga torayib turadigan keng shim kiyiladi. Oyoqlari yupqa teridan tikilgan etiklarda. To'liq libosdagi kamarlar ko'pincha juda oqlangan - baxmal yoki kashta tikilgan, kumush naqshli blyashka va tokalar bilan. Kundalik ko'ylak uzun ro'moldek kamar bilan bog'langan. Oyoq kiyimi mahsi (ichig'i — orqasi yo'q, tagligi yumshoq, to'pig'i yo'q chiroyli etik) va dag'al charmdan yoki rezinadan tikilgan etiklardan iborat bo'lgan. Bu bugungi kungacha obro'ga ega bo'lgan juda qulay va issiq poyabzal edi.

### **Ayollar va erkaklar milliy bosh kiyimi. Do'ppilar**



An'anaviy o'zbek kiyimidagi asosiy detallardan biri bu bosh kiyimdir. Markaziy Osiyoning ko'pgina mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda milliy bosh kiyimi do'ppi hisoblanadi. Do'ppi nomi turkiy «tube» dan kelib chiqqan bo'lib, «yuqori, tepa» deb tarjima qilinadi. Uni erkaklar, ayollar va bolalar kiyishadi. Faqat yoshi katta ayollar do'ppi

kiymaydi. Endi yirik shaharlarda do'ppi kiygan odamni ko'rish kamdan-kam uchraydi va ko'pincha bu oilaviy va diniy bayramlar uchun kiyimning muhim detalidir. An'anaviy do'ppi tetraedral konussimon shaklga ega bo'lib, u qora rangda, 4 ta «qalampir» va 16 ta miniatyura kamar shaklida oq naqshli kashta tikilgan. Kundalik do'ppi «kalampir» eng oddiy va eng keng tarqalganlaridan biridir, ammo uning ahamiyatini e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. O'zbekistonning har bir viloyatida o'ziga xos do'ppi bo'yi va



naqshlari bor. Eng boy xilma-xilligi bilan O'zbekistonda do'ppi tikish bo'yicha oltita asosiy maktab mavjud: Farg'ona, Toshkent, Qashqadaryo-Surxondaryo, Samarqand, Buxoro va Xorazm-Qoraqalpoq. Maxsus, tantanali tadbirlar uchun nafis do'ppilar mavjud - ular yorqin va rang-barang kashta va naqshlarga, tilla kashtalarga boy.

### **XULOSA**

Ko'p asrlar davomida yaratilgan xalq liboslari moddiy va ma'naviy madaniyatning ajralmas qismidir. Xalq ijodiyoti namunalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, liboslarda maqsadga muvofiq tarzda funktsional va estetik fazilatlar birlashtirilgan. Xalq san'ati uzoq tarix davomida shakllanar ekan, mavjud ijod namunalarining eng qimmatli va hayot bilan oqlangan zaruriylari saqlangan. Tasodifiylari inkor etilgan, natijada o'zida barcha zaruriy xususiyatlarni mujassam etgan milliy liboslargina olib qolingan. Zamonaviy kiyinishda sharm-hayo me'yorlariga amal qilib, o'zbekona kiyinish madaniyatini targ'ib qilish, shu orqali urf-odat va qadriyatlarimizni saqlash, albatta milliy madaniyatimizni, milliy o'zligimizni asrashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Liboslar tarixi. D.Rahmatullayeva, U.Xodjayeva, F.Ataxanova// <http://milliycha.uz/kr/liboslar-tarixi/>.
2. J.S.Ergashev O.B. Mamadaliyeva M.A.Nazarova. Kostyum tarixi. O'quv qo'llanma. Namangan Muhandislik-texnologiya instituti, 2020.
3. Kiyim va libos, ular o'rtasida qanday farq bor? N.ALIMUHAMEDOVA, "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti katta o'qituvchisi
4. Богатырев П.Г. Вопросы теории народного искусства. М.: Искусство, 1971. 544 с.
5. "Libos dizayni sohasi ta'limida kostyum va aksessuarlar loyihalashning ustuvor aspektlari" Abdullaeva F., Nishanova S. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(02), Feb., 2024

## **YOSHLARNI G‘OYAVIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI**

**Zoirova Sojida Umbarovna**

Termiz davlat pedagogika instituti

Falsafa, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrası o‘qituvchisi

+998936289115

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola yosh avlodni g‘oyaviy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Maqolada g‘oyaviy tarbiyaning mazmuni, usullari va vositalari tahlil qilinib, ularni yoshlar ongiga singdirish orqali milliy ong va vatanparvarlik hissini shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *g‘oyaviy tarbiya, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, nazariy asoslar, metodologiya, milliy ong, fuqarolik mas’uliyati.*

### **ABSTRACT**

*This article is devoted to researching the theoretical and methodological foundations of ideological and patriotic education of the young generation. The article analyzes the content, methods and tools of ideological education and reveals the possibilities of forming a sense of national consciousness and patriotism by instilling them in the minds of young people.*

**Key words:** *ideological education, patriotism, youth education, theoretical foundations, methodology, national consciousness, civic responsibility.*

### **KIRISH**

Bugungi kunda global va milliy jarayonlarning o‘zaro ta’siri kuchaygan, dunyoqarash va g‘oya xilma-xilligi ortgan bir davrda yoshlar tarbiyasi masalalari muhim o‘rin egallamoqda. Ayniqsa, yosh avlodning g‘oyaviy-vatanparvarlik ruhida shakllanishi, o‘z yurtiga sadoqat va milliy g‘ururni uyg‘otish kabi qadriyatlarni yoshlarga yetkazish dolzarb ahamiyatga ega. Vatanparvarlik yoshlarning jamiyatdagi o‘rnini, ularning milliy manfaatlarga munosabatini shakllantiradi va davlat barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va metodologik asoslarini shakllantirishda yoshlarning g‘oyaviy dunyoqarashini rivojlantirish, ularda ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini kuchaytirish va milliy o‘zlikni anglashni mustahkamlashga qaratilgan yondashuvlar ustuvor hisoblanadi. Bu jarayonda ta’lim tizimining o‘rni katta bo‘lib, maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda vatanparvarlik

tarbiyasini joriy etish orqali yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirish muhim hisoblanadi.

Yoshlarni g'oyaviy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish muhim hisoblanadi. Unda, vatanparvarlik tarbiyasining jamiyat taraqqiyoti uchun tutgan o'rni, ushbu jarayonni samarali tashkil etish omillari hamda ilmiy-adabiy manbalarda mavjud yondashuvlar tahlil qilinadi.

“Vatan ostonadan boshlanadi” degan chuqur ma'noli ibora mavjud. Bundan Vatan tuyg'usini oiladan shakllanishi kelib chiqadi. Haqiqatan, vatanparvarlik tushunchasining negizi bolaning kindik qoni to'kilgan yerdan boshlanadi. Shunday ekan, Vatan tuyg'usini tarbiyalashni oiladan boshlashishimi zarur. Barkamol avlodni shakllantirishda oilaning o'rni bo'lak, chunki, inson avvalo oila bag'rida unib-o'sadi va shaxs sifatida shakllanadi. Buyuk jadidchi, mutafakkir Abdurauf Fitrat o'zining “Oila” asarida: “Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi” deb yozgan. [1].

Qadimgi yunon adiblaridan biri «Vatan sha'niga» asarida: «mening bu gaplarim g'oyat eski gapdir, lekin haqiqat shunday: o'z otasini hurmat qilmagan farzand o'zganing otasini ham hurmat qila olmaydi, o'z Vatanini sevmagan kishi uzga Vatanni qadrlay olmaydi» deb yezganedi. Bu gaplar hozir naqadar zamonaviydir.

Vatan – bu odamlar tug'ilib o'sgan, tarbiyalangan, mehnat quvonchini totgan, shu odam mansub bo'lgan xalq tarixi bilan bog'langan, hamda tarixdan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy muhitdir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Vatanparvarlik vatanga muhabbat, unga sodiqlik, uning manfaatlari yo'lida hizmat qilishga tayyor turish demakdir. Vatanparvarlik ijtimoiy, tarixiy, ahloqiy his-tuyg'u sifatadi odamning ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo bo'ladi. Ijtimoiy jamoa tuzumida vatanparvarlik faqat o'z urug'lariga, ona yerga, ona tilga, urf-odatlariga bog'lik his bo'lgan bo'lsa, sinflar paydo bo'lishi bilan vatanparvarlik g'oyalari chuqurlashib, ijtimoiy hayot tobora ko'proq sohalariga chuqurroq kirib berdi. Vaqtlar o'tishi bilan bu tuyg'u buyuk qudratga aylandi [2]. Buyuk mutaffakirlar “Biz tugilgan yurtimizdan uzoq ketsak, bizni tortib kelaturgon quvvat o'z vatanimizning, ona tuproqning mehr-muhabbatidir”.

Hozirgi kunda ko'p odamlar vatanparvarlik o'ynashadi va aslida vatanparvar emaslar. Bu, birinchi navbatda, jamiyat amal qiladigan moda bilan bog'liq. Vatanparvar bir nechta fuqarolikka ega bo'lishi mumkin emas, chunki inson qiyin tanlov oldida turibdi, bunday zarurat tug'ilganda u qaysi Vatanni himoya qilishi va muammoli vaziyatlarda kurashishini anglatadi.



Vatanparvarlik tamoyili Vatanga muhabbat, unga g'amxo'rlik qilish, tabiatni asrash, Vatanni dushmandan himoya qilishga shaylik, tarixga hurmat va milliy merosga hurmat bilan munosabatda bo'lish, davlat yutuqlari bilan faxrlanishdan iborat. O'shanda jamiyat keng ko'lamli umummilliy vazifalarni hal qilganda, ma'naviy-axloqiy yo'l-yo'riqlar tizimini yaratsa, o'z Vatani uchun vatanparvarlarni qabul qiladi. Bunday yo'riqnomalar o'z ona tili, o'ziga xos madaniyati va xalq qadriyatlarini hurmat qilgan, ajdodlari xotirasini, milliy tariximizning har bir sahifasini saqlagan joyda paydo bo'ladi. Madaniy va oilaviy anhanalarda saqlanib qolgan asosiy milliy qadriyatlar avloddan-avlodga o'tadigan joy [3].

Yoshlarni g'oyaviy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni ko'plab nazariy-metodologik asoslarga tayanadi. Ushbu asoslar yosh avlodni milliy g'oya va qadriyatlarga hurmat bilan qarashga, Vatan taqdiriga daxldorlik hislarini shakllantirishga, shuningdek, ular orasida ijtimoiy mas'uliyat va milliy iftixor tuyg'ularini rivojlantirishga yordam beradi. Quyida ushbu asoslar yoritiladi:

1. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy asoslar muhim o'rin tutadi. O'zbekiston tarixi, qadimiy madaniyati va milliy qahramonlarning jasorati yosh avlod uchun ibrat bo'lib xizmat qiladi [4]. Tarixiy asoslarni o'rganish orqali yoshlar milliy o'zlikni anglashni va Vatan ravnaqi uchun kurashish zaruratini tushunadilar.

2. G'oyaviy asoslar yoshlarni mustahkam dunyoqarashga ega, mafkuraviy jihatdan sog'lom shaxs sifatida tarbiyalashni nazarda tutadi. Ushbu asosda milliy g'oya va qadriyatlar, insonparvarlik, adolat, erkinlik kabi tushunchalarni yoshlarga singdirish orqali ularni jamiyatdagi turli mafkuraviy oqimlarga qarshi immunitetini kuchaytirish maqsad qilingan.

3. Yoshlarning psixologik rivojlanish xususiyatlari va yosh davrlari ularning g'oyaviy va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda hisobga olinishi lozim. Psixologik-pedagogik yondashuvda yoshlarning qiziqishlari, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga mos tarzda ta'lim-tarbiyaviy usullar qo'llaniladi. Bunda ijobiy o'rnak ko'rsatish, ta'sirchan suhbatlar, drama va teatrlashtirilgan ko'rinishlar orqali yoshlar ongiga Vatanga muhabbat va mas'uliyat tuyg'usi singdiriladi.

4. Falsafiy asoslar milliy o'zlikni anglash, jamiyat va shaxsning ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Madaniy qadriyatlarni chuqur anglash va ularni saqlash mas'uliyati yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytiradi. Shu jihatdan falsafa va madaniyat milliy g'oyaning shakllanishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

5. Yoshlarni g'oyaviy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda huquqiy asoslar ham muhimdir. Davlatning qonunchilik tizimida vatanparvarlik va g'oyaviy tarbiyani qo'llab-quvvatlovchi qonun va qarorlar mavjud. Yoshlar huquq va majburiyatlarini



bilishlari orqali o'z Vatanlariga xizmat qilish va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga undaladi.

6. Yoshlarni g'oyaviy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va milliy manfaatlarini anglash muhim ahamiyatga ega. Mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari va bunyodkorlik ishlari yoshlar orasida milliy g'urur va yurtparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Shu boisdan, milliy taraqqiyot jarayonida yoshlar faol ishtirok etishi uchun ularni rag'batlantirish muhim sanaladi.

Bu asoslar orqali yoshlarni g'oyaviy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni ilmiy asoslangan holda amalga oshiriladi. Shu orqali yoshlar orasida vatanparvarlik, milliy iftixor va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ulari yanada mustahkamlanadi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi avlod yetishib chiqadi [5].

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish zarurki, yoshlarni g'oyaviy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunda jamiyatning barqarorligi, milliy qadriyatlarning saqlanishi va rivojlanishi, shuningdek, mustaqil davlatning qudratini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon nazariy va metodologik asoslarga tayangan holda olib borilishi zarur, chunki faqat puxta o'ylangan tarbiya usullari orqali yoshlar ongida milliy g'urur, vatanparvarlik va mas'uliyat tuyg'ulari shakllantirilishi mumkin.

Mazkur tarbiya jarayonida tarixiy, g'oyaviy, psixologik-pedagogik, madaniy-falsafiy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslar bir-birini to'ldirib, yoshlarni har tomonlama rivojlantiradi va ular orasida Vatanga sadoqat, milliy iftixor va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu asoslar orqali tarbiyalangan yoshlar jamiyatda faol ishtirok etishga, mamlakat manfaatlarini himoya qilishga va milliy taraqqiyotga hissa qo'shishga tayyor bo'ladi.

Shunday qilib, yoshlarni g'oyaviy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali yurtimizni yanada ravnaq toptirish, o'z tarixini va madaniyatini qadrlaydigan, Vatanga sodiq va jonkuyar avlodni tarbiyalashga erishiladi. Bu esa mamlakatimiz kelajagi uchun ishonchli poydevor yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 11 maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-241-son Qaror
2. Najimitdinov M. K. "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash". Международный научный журнал «Научный импульс» № 21 (100), часть 2
3. Juraev B.X. "Vatanparvarlik" O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnal. 13-son. 2022.

4. Raxmankulov, F. R. (2024). VATANARVAR MULKDORLARNI TARBIYALASH BUGUNGI DAVRNING DOLZARB VAZIFASI. Academic research in educational sciences, 5(2), 536-543.
5. Rakhmankulov, F. R. (2023, October). THE NEED TO FORM A SENSE OF SOCIAL RESPONSIBILITY AMONG THE OWNERS. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 10, pp. 17-19).

## **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МОДИФИКАТОРА СЕРА 2,4-ДИНИТРОФЕНИЛГИДРАЗИН ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ КАЧЕСТВА БЕТОНА**

**Шавкатова Дилноза Шавкатовна**

доктор философии технических наук, доцент

Шахрисабзский государственный педагогический институт

### **АННОТАЦИЯ**

*В ходе этого исследования была разработана новая разновидность бетона, включающая модификацию серы-2,4-динитрофенилгидразина, и были изучены его разнообразные свойства. Этот инновационный бетон был произведен с использованием серо-2,4-динитрофенилгидразиновой модификации и ряда компонентов. Синтезирован вновь созданный модификатор сера-2,4-динитрофенилгидразин, его образование подтверждено методами ИК-спектроскопии и ТГ-анализа. Текстура поверхности, полученная в результате применения этого модификатора, была исследована с использованием методов SEM и EDS.*

*Ключевые слова: Деформация, Упругость, Серобетон, Коэффициент термического расширения, 2,4-динитрофенилгидразин.*

## **USING SULFUR MODIFIER 2,4-DINITROPHENYLHYDRAZINE TO IMPROVE CONCRETE QUALITY**

**Shavkatova Dilnoza Shavkatovna**

*Doctor of Philosophy of Technical Sciences, Associate Professor*

*Shakhrisabz State Pedagogical Institute.*

### **ABSTRACT**

*In the course of this study, a new variety of concrete was developed, including a modification of sulfur-2,4-dinitrophenylhydrazine, and its various properties were studied. This innovative concrete was produced using sulfur-2,4-dinitrophenylhydrazine modification and a number of components. A newly created sulfur-2,4-dinitrophenylhydrazine modifier was synthesized, its formation was confirmed by IR spectroscopy and TG analysis. The surface texture obtained from the application of this modifier was examined using SEM and EDS techniques.*

***Key words:** Deformation, Elasticity, Sulfur Concrete, Coefficient of Thermal Expansion, 2,4-Dinitrophenylhydrazine.*

## **ВВЕДЕНИЕ**


В ходе этого исследования была разработана новая разновидность бетона, включающая модификацию серы-2,4-динитрофенилгидразина, и были изучены его разнообразные свойства. Этот инновационный бетон был произведен с использованием серо-2,4-динитрофенилгидразиновой модификации и ряда компонентов. Синтезирован вновь созданный модификатор сера-2,4-динитрофенилгидразин, его образование подтверждено методами ИК-спектроскопии и ТГ-анализа. Текстура поверхности, полученная в результате применения этого модификатора, была исследована с использованием методов SEM и EDS. Соотношение компонентов в бетоне, химические и физические свойства, обусловленные модификатором сера-2,4-динитрофенилгидразин, химическая и коррозионная стойкость бетона, устойчивость бетона к водопоглощению, устойчивость бетона к замерзанию, физико-механические свойства, долговечность, модуль упругости, и коэффициент теплового расширения исследуемого серосодержащего бетона.

## **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**


Анализ EDS (энергодисперсионной спектроскопии) играет решающую роль в понимании элементного состава серобетона. Этот передовой аналитический метод предоставляет важную информацию о распределении и концентрации элементов, присутствующих в материале. Используя EDS-анализ, исследователи могут получить ценную информацию о характеристиках серобетона и оптимизировать его свойства для различных применений. Посредством оценки изображений EDS и карт элементов можно подтвердить наличие серы наряду с другими элементами, что позволяет получить более полное представление о составе и характеристиках материала.

На рис.3 представлены ЭДС-изображения и соответствующая ЭДС-карта элементов модификатора сера-2,4-динитрофенилгидразин. Для выяснения элементного состава выбранного модифицирующего вещества проведен углубленный поверхностный элементный анализ модификатора сера-2,4-динитрофенилгидразин. Отмечается, что содержание серы установлено равным 33,91 % от общей массы, что подтверждает наличие серы в исследуемом модификаторе. Анализ показал, что атомы кислорода составляют 9,2 % от общей массы, а углерода — 56,63 % от общей массы. Эти результаты подтвердили существование 2,4-динитрофенилгидразина в составе модификатора сера-2,4-динитрофенилгидразин. В результате изображения EDS и результаты карты элементов EDS показали, что модификатор сера-2,4-

динитрофенилгидразин состоит из элементов азота, углерода и серы, причем сера служит связующим компонентом в модификаторе.



(a)



(б)

Рисунок 3. Результаты EDS-анализа серы-2,4-динитрофенилгидразина с (а) картой элементов и (б) данными EDS.

Исследование морфологии поверхности



В последние годы растет интерес к разработке новых модификаторов бетона для улучшения его механических свойств, долговечности и устойчивости. Среди этих модификаторов добавки на основе серы-2,4-динитрофенилгидразина показали многообещающие результаты в улучшении общих характеристик бетона. В этом исследовании представлен подробный анализ бетона, модифицированного серой-2,4-динитрофенилгидразином, с помощью сканирующей электронной микроскопии (СЭМ), чтобы лучше понять его микроструктурные характеристики и влияние модификатора на бетонную матрицу.

Морфологию поверхности модификатора сера-2,4-динитрофенилгидразин исследовали с помощью анализа сканирующей электронной микроскопии (СЭМ). На рис.4 представлены СЭМ-изображения модификатора сера-2,4-динитрофенилгидразин различных размеров: (а) 100 мкм и (б) 50 мкм. Результаты ясно демонстрируют, что модификация сера-2,4-динитрофенилгидразина образует структуру с повышенной пористостью и отсутствием обнаруживаемых кристаллических форм, что указывает на аморфную природу модификатора.

Порошок модификации сера-2,4-динитрофенилгидразин играет основополагающую роль в составе бетона. Повышенная пористость и аморфные характеристики модификатора сера-2,4-динитрофенилгидразин способствуют повышению эффективности бетонов на основе серы. Кроме того, отсутствие продуктов окисления на поверхности модификатора сера-2,4-динитрофенилгидразин подтверждает, что бетон на основе серы не подвергается окислению и продукты окисления не образуются. Если бы произошли процессы окисления, полученный бетон был бы нестабильным при воздействии атмосферных условий.

СЭМ-анализ бетона, модифицированного серой-2,4-динитрофенилгидразином, выявил многообещающие микроструктурные улучшения в цементном тесте и межфазной переходной зоне. Эти улучшения можно коррелировать с наблюдаемым улучшением механических свойств и долговечности. Это исследование подчеркивает потенциал серы-2,4-динитрофенилгидразина как эффективного модификатора бетона, открывая путь для дальнейших исследований и оптимизации этой новой добавки в технологии бетона.




Рисунок 4. СЭМ-изображения бетона, модифицированного серо-2,4-динитрофенилгидразином, при различных увеличениях: (а) 100 мкм и (б) 50 мкм.

### ЗАКЛЮЧЕНИЕ

1. Коэффициент устойчивости бетона, модифицированного серой-2,4-динитрофенилгидразином, против замерзания составил примерно 1,0.
2. Водопоглощение на поверхности бетона, модифицированного серой-2,4-динитрофенилгидразином, колебалось в пределах 0,1-0,34%, а коэффициент водопоглощения бетона составлял 0,85, что означает повышенную стабильность в водных условиях и условиях высокой влажности.
3. Бетон, модифицированный серой-2,4-динитрофенилгидразином, продемонстрировал исключительную стабильность в различных агрессивных растворах.
4. Результаты СЭМ выявили пористую структуру модификатора сера-2,4-динитрофенилгидразин. ЭДС-анализ показал, что атомы углерода составляют 56,63% от общей массы, а сера — 33,91% от общей массы.

### ЛИТЕРАТУРА

1. Карчевский С.Г., Сангалов Ю.А., Ларионов С.Л., Лакеев С.Н., Яковлев В.В., Яковлева Л.А. Композиционные материалы на основе серополимерных вяжущих // Хим. пром. Сегодня. 2010. №1. С.25-33.

2. Фомин, А.Ю. Новое эффективное вяжущее на основе полимерной серы /А.Ю. Фомин, Р.Т. Порфирьева, В.Г. Хозин, Я.Д. Самуилов, М.В. Рылова //Вестник Казан, технол. ун-та. Казань, 2001. – №2. – С.49-52.
3. Хозин, В.Г. Эффективное вяжущее на основе органического полисульфида/В. Г. Хозин, Р. Т. Порфирьева, А.Ю. Фомин, М.В. Рылова / /Известия Казан, гос. Архитектурно-строительной академии. Казань, 2003. – №1. – С. 62-64.
Ingliz huquqida farzandlikka olish jarayonlari, birinchi navbatda, bolaning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'ygan holda olib boriladi. Ushbu jarayon bolaning xavfsizligi, uning ruhiy va jismoniy sog'lom bo'lishi va rivojlanishi, shuningdek, mehribon va bag'rikeng oilaviy muhitda o'sishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Huquqiy ishlar davlatning vakolatli organlari tomonidan nazorat qilinib, noqonuniy farzandlikka olish holatlarini oldini olishni ko'zlaydi.

<sup>51</sup> Children looked after by placement statistics, year ending 31 March 2017:

<https://www.gov.uk/government/statistics/children-looked-after-in-england-including-adoption-2016-to-2017>

Shunga qaramay, farzandlikka olish bilan bog'liq muammolar ham mavjud bo'lib, asrab olingan bolalarning savodxonlik va ish bilan ta'minlanganlik darajasi pastligicha qolmoqda. Shuningdek, yosh qizlar o'rtasidagi erta onalik hollari ham asrab olinganlar orasida anchagina yuqori foiz ko'rsatkichlarini ko'rsatmoqda.

Undan tashqari, farzandlikka olinganlarning identifikatsiya huquqi, ya'ni ular o'zlarining biologik oilasi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatlari ham ko'pgina munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu esa farzandlikka oluvchi oilalarning manfaatlari bilan bolaning shaxsiy huquqlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash zaruriyatini namoyon qilmoqda.

Shunday qilib, farzandlikka olish jarayonida bolaning shaxsiy manfaat va qiziqishlarini asosiy o'ringa qo'ygan holda, bu boradagi byurokratik to'siqlarni kamaytirish va farzand asrab oluvchilar bilan bir qatorda, bolaga ham psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xizmatlarining sifatini oshirish kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Adoption and Children Act 2002, s. 1 (England); originally Children (Scotland) Act 1995, s. 95, but see now Adoption and Children (Scotland) Act 2007, s. 14 (Scotland).
2. Department for Education. Children looked after in England (including adoption), year ending 31 March 2017. SFR 50/2017.
3. Ibid., p. 295. See also Committee on the Rights of the Child, General Comment No 7 (2005): Implementing Child Rights in Early Childhood (CRC/C/GC/7/Rev.1, 2006) at [36(b)].
4. <https://www.historyandpolicy.org/docs/dfe-jenny-keating.pdf>
5. [https://www.compactlaw.co.uk/pages/the-adoption-and-children-act-2002-guide-to-the-act?srsId=AfmBOoqi8Iqfi8hWjU3XHUPb8s6Wvn9LUuk9A0Jat2\\_qDOyUSw5Quynx](https://www.compactlaw.co.uk/pages/the-adoption-and-children-act-2002-guide-to-the-act?srsId=AfmBOoqi8Iqfi8hWjU3XHUPb8s6Wvn9LUuk9A0Jat2_qDOyUSw5Quynx)
6. Department for Education and Skills. Care Matters: Transforming the Lives of Children and Young People in Care, 2006.
7. The Association of Directors of Children's Services Ltd. Safeguarding Pressures Phase 5, December 2016, page 3.
8. Children looked after by placement statistics, year ending 31 March 2017: <https://www.gov.uk/government/statistics/children-looked-after-in-england-including-adoption-2016-to-2017>

## ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Исмаилова Диёраой Хурсанджон кизи

Термезский государственный университет, магистр 2 курса

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье описывается значение и роль женщин в общественно-политической жизни Узбекистана, значение гендерного равенства в Узбекистане, ее проблемы и пути решения.*

**Ключевые слова:** образование, здравоохранение, экономика, политика, роль женщин, перспективы гендерного равенства, проблемы и их решения.

### ABSTRACT

*This article describes the importance of women in the social and political life of Uzbekistan, the issue of gender equality in Uzbekistan, its problems and solutions.*

**Key words:** education, healthcare, economics, politics, the role of women, prospects for gender equality, problems and their solutions.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarning o'рни, o'zbekistonda gender tengligi masalasi, uning muammo va yechimlari haqida bayon etiladi.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisod, siyosiy faoliyat, xotin-qizlarning mavqeyi, gender tengligi masalalari, muammo va yechimlar.

### ВВЕДЕНИЕ.

Гендерное равенство — это основа устойчивого развития общества, где мужчины и женщины имеют равные права и возможности во всех сферах жизни. В Узбекистане, как и в других странах Центральной Азии, вопросы гендерного равенства приобрели особую актуальность в последние десятилетия, особенно после обретения независимости в 1991 году. Несмотря на ряд положительных изменений, существует много вызовов, которые необходимо преодолеть для достижения реального гендерного равенства в стране.

Исторические и культурные особенности

Узбекистан, как и большинство стран региона, имеет глубокие исторические и культурные корни, где традиции, религиозные нормы и патриархальные установки играли важную роль в жизни общества. Женщины в Узбекистане долгое время находились в подчиненном положении, и их роль в обществе была ограничена сферой домашнего хозяйства, семейных

обязанностей и ухода за детьми. Традиционные взгляды на женскую роль, особенно в сельских районах, до сих пор оказывают влияние на восприятие женщин в обществе. Однако, в постсоветский период ситуация начала изменяться. Образование, здравоохранение и участие женщин в экономике и политике постепенно начинают выдвигать их на более заметные позиции. Важной вехой стало провозглашение Узбекистаном ряда социальных реформ, направленных на улучшение положения женщин.

**Законодательные и институциональные изменения.**

В последние десятилетия в Узбекистане были предприняты шаги по созданию законодательных и институциональных механизмов для защиты прав женщин. В 1992 году была принята Конституция, которая гарантирует равенство всех граждан перед законом, независимо от пола. В последующие годы разработаны и реализованы ряд программ и инициатив, направленных на поддержку женщин, включая меры по борьбе с насилием в семье, улучшению репродуктивного здоровья и поддержке женщин-предпринимателей.

Важным шагом стал 2019 год, когда был создан Министерство по делам женщин и семьи, что свидетельствует о повышении внимания к вопросам гендерного равенства на государственном уровне. Это министерство стало основным органом для разработки и реализации политики, направленной на улучшение положения женщин в стране.

**Экономические возможности и участие женщин в трудовой деятельности.**

Одной из важнейших проблем гендерного равенства в Узбекистане является экономическая активность женщин. Женщины составляют значительную часть рабочей силы в таких отраслях, как сельское хозяйство, образование, здравоохранение, а также в сфере услуг. Однако они сталкиваются с множеством препятствий в достижении карьерных высот и равенства на рабочем месте. Многие женщины, особенно в сельской местности, ограничены в доступе к финансовым ресурсам и возможностям для открытия собственного бизнеса. В то же время, в последние годы наблюдается рост числа женщин-предпринимателей, что является положительным трендом для улучшения их экономического положения. Одним из важнейших вызовов остаются разрывы в оплате труда между мужчинами и женщинами, особенно в высококвалифицированных и технических областях. Женщины часто вынуждены работать на менее оплачиваемых должностях, а также сталкиваются с дискриминацией при продвижении по карьерной лестнице.

**Образование и участие женщин в научной и политической жизни.**

Узбекистан достиг значительных успехов в сфере образования, включая улучшение доступа женщин к обучению на всех уровнях. Сегодня женщины составляют большую часть студентов в университетах и других учебных заведениях. Однако, несмотря на высокий уровень образования среди женщин, их представительство в науке, политике и управлении остается недостаточным. В последние годы наблюдается тенденция к увеличению участия женщин в политической жизни, однако их присутствие в парламенте, на высоких государственных постах и в бизнесе все еще ограничено. Женщины редко занимают ключевые позиции в управлении, что подчеркивает необходимость изменений в политической культуре и практике для обеспечения равных прав и возможностей.

**Проблемы насилия и дискриминации.**

Несмотря на прогресс в области защиты прав женщин, проблемы насилия в семье и дискриминации остаются одними из самых острых в Узбекистане. Исследования показывают, что насилие в семье, физическое и психологическое, все еще широко распространено, несмотря на законодательные инициативы, направленные на борьбу с этим явлением.

Социальные стереотипы и традиционные взгляды на роль женщины в семье и обществе продолжают поддерживать дисбаланс в отношениях между полами, что затрудняет развитие равноправных отношений в обществе. Женщины часто сталкиваются с трудностями в поиске защиты от насилия и предвзятости, а также ограничениями в доступе к правосудию.

**Перспективы и шаги вперед**

Достижение гендерного равенства в Узбекистане требует комплексного подхода, включающего не только законодательные и политические изменения, но и преобразования в сознании общества. Основные шаги для улучшения положения женщин включают:

1. Укрепление правового механизма: Продолжение работы по улучшению законодательства, направленного на защиту прав женщин, особенно в сфере борьбы с насилием и дискриминацией.

2. Образование и профессиональное развитие: Повышение доступности образования и профессионального обучения для женщин, особенно в технических и научных областях.

3. Снижение разрыва в оплате труда: Принятие мер по сокращению разрыва в оплате труда между мужчинами и женщинами, а также по улучшению условий труда для женщин.



4. Социальные изменения: Продолжение работы по разрушению стереотипов и предвзятых установок, связанных с ролью женщин в обществе, а также повышение осведомленности о гендерном равенстве.

В заключение, можно сказать, что хотя Узбекистан уже достиг определенных успехов в области гендерного равенства, остаются важные вызовы, которые необходимо преодолеть для того, чтобы обеспечить женщинам полное участие в социальной, экономической и политической жизни страны. Только с комплексным подходом, включающим законодательные, социальные и культурные изменения, можно достичь реального равенства и улучшения положения женщин в Узбекистане.

### **ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Asian Development Bank. Uzbekistan Country Gender Assessment. Update 2018
2. Закон Республики Узбекистан о гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин № ЗРУ-562 от 2 сентября 2019 г.
3. Гендерная экспертиза Семейного и Трудового кодексов Республики Узбекистан. Копирайт: Азиатский Банк Развития 2008.
4. Женщины и мужчины 2015-2019: стат. сб. Ташкент, 2019. 276 с.
5. Берн Ш. Гендерная психология. М.: ОЛМА Медиа Групп, 2002.
6. Мальцева И. О., Рощин С. Ю. Гендерная сегрегация и мобильность на российском рынке труда. М.: ГУ ВШЭ, 2006. 296 с.

## **GLOBALLASHUV JARAYONINING IJTIMOIIY HAYOTDAGI AHAMIYATI**

**Panjiyev Suhrob**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ijtimoiy fanlar kafedrası v.b. dotsenti  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada globallashuv jarayonining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, uning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, milliy qadriyatlarga ma'naviy va g'oyaviy jihatlariga ta'siri borasida fikrlar bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Globallashuv, ijtimoiy hayot, g'oyaviy tarbiya, milliy qadriyat, madaniyat, ma'naviyat, g'oyaviy immunitet, mafkuraviy jarayonlar.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the importance of the globalization process in social life, its impact on the worldview of young people, and its impact on national values, their spiritual and ideological aspects.*

**Key words:** *Globalization, social life, ideological education, national values, culture, spirituality, ideological immunity, ideological processes.*

### **KIRISH**

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarning murakkablashib ketishi, ijtimoiy taraqqiyotning jadallashuvi shaxs va jamiyat orasidagi aloqadorlik muvozanatini buzmoqda. Natijada shaxsning ijtimoiy voqelikka ta'siri kamayib, jamiyatning esa shaxsga ta'siri yo'nalishlari ko'payib bormoqda.

Globallashuv jarayoni keltiradigan qulaylik va imkoniyatlardan ko'proq foydalanish uchun uni chuqur o'rganish, foydali va zararli jihatlari atroflicha tahlil qilish zarur. Faqat shundagina u keltirishi mumkin bo'lgan foydadan ko'proq manfaatdor bo'lib, uning zararli tomonlarini chetlab o'tish imkoniyati tug'iladi. Globallashuvni to'la va chuqur o'rganmay turib, uning imkoniyatlaridan foydalanish ham, zararli oqibatlaridan saqlanish ham mumkin emas.

Globallashuv jarayoni ijtimoiy intergatsiyalashuv orqali oldiga qo'ygan maqsadga erishish mumkinligini dunyo xalqlari bugungi kunda anglab yetishmoqda. Globalizatsiyaning hozirgi kunda mavjud manbalari kommuni katsiya vositalaridagi tub o'zgarishlar, investitsiyadagi yangi jarayon; dunyoga yangicha qarashning vujudga kelishi. Dunyodagi biron bir mamlakatni globalizatsiya chetlab yoki ayirib o'ta olmaydi. U barcha mamlakatlarga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Globalizatsiyaga to'g'ri yondashilsa taraqqiyotni tezlashtiradi, tinch-totuvlikni ta'minlaydi va qo'shni

davlatlar bilan munosabatni yaxshilaydi. Globalizatsiya jarayoni ko‘pincha iqtisodiy omillarga bog‘liq hodisa sifatida izohlanadi. Haqiqatdan esa u ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga o‘z ta‘sirini o‘tkazib, taraqqiyot yoki yangilanishlar manbai hisoblanadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Globallashuvga biz chuqurroq yondashib fikr yuritganimizda insoniyatga ko‘rsatadigan ijobiy ta‘siri bilan birga, chuqur tafovutlarni ham keltirib chiqardi. Agar ularga e‘tibor berilmasa jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

**Birinchidan,** Globallashayotgan dunyo, jadallashayotgan progress, farovonlashayotgan turmush shaxsning jamiyatdagi o‘rniga, ijtimoiy mavqeiga putur yetkazmoqda. V. Parsvaniya ta‘kidlaganidek: “Konkret “Men” mavhumlashib, umumiy “Men” bag‘riga singib bormoqda. Individ nochorlashib, uning mavjudligi bema‘nilashib ketmoqda. Ijtimoiy munosabatlar eng asosiy qadriyat bo‘lmish insonni ulug‘lashga, uni o‘z maqsadiga aylantirishga ojizlik qilmoqda”[1].

**Ikkinchidan,** globalizatsiya natijasida rivojlangan mamlakatlarda aholi daromadi foiz hisobiga oshib bormoqda kam taraqqiy etgan daromadi foiz hisobiga oshib bormoqda, kam taraqqiy etgan mamlakatlarda esa tobora aholi daromadi foiz hisobiga tushib, qashshoqlashuvni keltirib chiqarmoqda, ya‘ni bu mamlakatlar xomashyo tovarlarini ishlab chiqib eksport qilayotir;

**Uchinchidan,** Globallashuvning turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta‘siri ham turlicha. Jamiyatning shaxsga ta‘siri kuchaygani sayin hozirgi zamon kishilarining ayrim qismida ijtimoiy o‘zgarishlardan hayiqish, qo‘rqish tuyg‘usi rivojlanmoqda. Qo‘rquv–bir tomondan, shaxsdagi tashabbuskorlikni yemirsa, ikkinchi tomondan, insonni g‘ayriinsoniy maqsadlarga bo‘ysundirish imkoniyatini kengaytiradi.

**To‘rtinchidan,** Globallashuv sharoitida jahon xalqlarining milliy-madaniy qadriyatlari uyg‘unlashib, yangi faoliyat normalari va prinsiplari, qoidalari va qadriyatlari qaror topib borayotganini kuzatish mumkin. Bunday sharoitda esa dunyo xalqlari, xususan kam sonli millatlarning milliy an‘ana va qadriyatlari xavf ostida qolmoqda. G‘arb olimlari tomonidan ayni shu jihatni ko‘zda tutgan “erituvchi qozon nazariyasi” ilgari surilmoqda. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha, globallashuv sharoitida millatlarning qadriyatlari, an‘ana va urf-odatlarini bir qozonda qaynagan taomdek qo‘shilib, aralashib ketadi.[2]

**Beshinchidan;** Rivojlangan mamlakatlarda shaxs ongi va faoliyatining kriminalizatsiyasi va nigilizatsiyasi sodir bo‘lmoqda. Rivojlanayotgan va rivojlanmagan mamlakatlar fuqarolarining qadriyatlari sistemasida milliylikning yemirilib borayotgani sezilib turadi.

**Oltinchidan:** Jahondagi globallashuv jarayonlari ko‘p qutbli dunyoning shakllanishiga zamin hozirladi. Ko‘p qutbli dunyo deganda umumjahon barqarorligi, xavfsizligi va taraqqiyotini ta‘minlab turgan bir necha iqtisodiy va siyosiy markazlarni o‘z ichiga oluvchi sistema tushuniladi. Jahonda turli siyosiy va iqtisodiy markazlarning mavjudligi barcha millatlarning manfaatlarini inobatga olish imkonini beradi, albatta. Ayni paytda u barcha xalqlarni yagona standart, turmush tarzi va mafkuraga bo‘ysundirish xavfidan sug‘urta qiladi.

Biroq ko‘p qutbli dunyoning shakllanishi jahonni to‘rtinchi bora bo‘lib olishga intilishni boshlab berishi ham mumkin. Ma‘lumki, birinchi bor (birinchi jahon urushi mobaynida) dunyo hududini, ikkinchi bor (ikkinchi jahon urushi mobaynida) kapitalini, uchinchi bor esa (XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bugungi qadar) o‘zga mamlakatlarga mafkuraviy, infor-matsion, texnologik ta‘sir meyorini bo‘lib olishga urinildi. Ko‘p qutbli dunyo esa mamlakatlarning intellektual salohiyati uchun kurashni boshlab berishi mumkin. Bunday vaziyat o‘zbek kishisini yangi taraqqiyot modellari, yangi texnologiyalar bilan tanishtiradi. Bu yaxshi, albatta. Biroq, ushbu tani-shuv milliy madaniyat, til va an‘analardan voz kechish evaziga sodir bo‘lsa-chi? Bunday geosiyosiy vaziyat millatlarning eng yetuk aql sohiblarini o‘zga manfaatlar ta‘siri ostiga tushirib qo‘ysa-chi? Ko‘p qutbli dunyoning asosiy xavf-xatarlari ham ana shu savollarda jamlangan.

**Yettinchidan:** Yigirmanchi asr madaniy taraqqiyoti ommaviy madaniyatning avj olishiga va keng tarqalishiga poydevor yaratdi. G‘arb mamlakatlarida madaniyat yutuqlaridan keng ommani “bahramand” qilish maqsadida madaniy durdonalarning soddalashtirilgan, primitivlash tirilgan muqobillari ishlab chiqila boshlandi. Bu jarayon oxir-oqibatda “ommaviy madaniyat” nomini oldi. Bugun esa “ommaviy madaniyat” niqobi ostida axloqiy buzqlik va zo‘ravonlik, individualizm va egotsentrizm g‘oyalari tarqala boshladi[3]

## **XULOSA**

Yuqorida sanab o‘tilgan glaballashuvning oqibatlari kishilardan har bir qadamini o‘ylab bosishni taqozo qilmoqda. Globallashuv jarayonlari bu amalga oshishi va bo‘lishi tabiiy bo‘lgan hodisaga aylanib qoldi. U hech bir davlat va jamiyatni chetlab o‘tmaydi. Shunday ekan globallashuvga jamiyatni tayyorlab, buning mohiyatini fuqarolarga tushuntirib, keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ijobiy va salbiy oqibatlar haqida dunyoqarash hosil qilib bormog‘imiz kerak. Aks holda globalizatsiyaga jamiyatni tayyorlamas ekanmiz, globalizatsiya bizni o‘z yo‘rig‘iga solib, rivojlangan mamlakatlarga xom-ashyo yetkazib beruvchi mamlakat holatida qolaveramiz. Buning oldini olish va mamlakatimizni rivojlantirish uchun har birimiz ma‘suliyat hissini sezmog‘imiz davr talabidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. <http://globalanti.risa.ru/admin/FCKeditor/fckeditor.html>.
2. Ёқубов С. Ахборот жамияти: хаёлот эмас, ҳақиқат.// Тафаккур.-2007.- №4.- 15-б.
3. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч.- Т.: Маънавият, 2008.- 117-б.
4. Panjiyev, S. (2019). CONCEPTS OF TRUTH OF THE NEW TIME. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(7), 170-173.
5. Suhrob, P. (2022). GLOBALIZATION PROCESS AND NATIONAL-SPIRITUAL FACTORS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 636-638.
6. Suhrob, P. (2022). THE NOOSPHERE STAGE AND THE INCREASING RESPONSIBILITY OF MANKIND IN THE PERSPECTIVE OF THE PLANET EARTH. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 6, 55-58.
7. Панжиев, С. (2022). ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ШАХС МАЪНАВИЙ ҚИЁФАСИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 863-866.
8. Suhrob, P. (2021). The philosophical content of truth and its forms. *World Bulletin of Social Sciences*, 4(11), 176-178.
9. Suhrob, P. (2024). Importance Of Globalization Process in Social Life. *Czech Journal of Multidisciplinary Innovations*, 29, 21-23.
10. Панжиев, С. (2024). ЁШ АВЛОД ҚАЛБИДА МИЛЛИЙ ҒУРУР ВА ИФТИХОР ТУЙҒУЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА НАВОИЙ МАЪНАВИЙ МЕРОСИНИНГ РОЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(5), 482-487.
11. Panjiyev, S. (2023). APPROACH TO THE QUESTION OF TRUTH IN THE HISTORY OF PHILOSOPHY.
12. Panjiyev, S. (2022). YUKSAK MA'NAVIYAT HAQIQAT MEZONI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1156-1159.
13. Panjiyev, S. (2022). The relevance of the philosophical comprehension of truth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(12), 195-197.
14. Babamuratov, E., Ulmashon, D., & Zhurabek, Z. (2023). METHODS OF IDEOLOGICAL WORK FOR YOUTH WITH IDEOLOGICAL DEPRESSION. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 136-143.
15. Allamuratov, S. A., & Dzhuraeva, U. C. (2021). Irrigation and reclamation works in the surkhan oasis.



## **ДОСТОЕВСКИЙНИНГ “ЖИНОЯТ ВА ЖАЗО” АСАРИДА ДИАЛОГИЗМ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ**

**Абдуллаева Насиба Бўроновна**

ЎзМУ” Фалсафа ва маънавий асослари” кафедраси

доценти.,ф.ф.д

### **АННОТАЦИЯ**

*Мақолада Достоевский асарларида диалог, диалогизм ва мунозаранинг намоён бўлиши, ўзига хос жиҳатлари таҳлил этилган. Диалогларнинг турли типлари, диалогизмнинг трансформацияси, унда қаҳрамонларнинг маънавий-ахлоқий қарашлари, мафкуравий йўналганлиги кўрсатилган. Достоевскийнинг “Жиноят ва жазо” асарида қаҳрамонлар мунозараси ва ички монологи, руҳият манзаралари таҳлил қилинган.*

**Таянч тушунчалар:** диалог, диалогизм, диалог типлари, мунозара, муҳокама, суҳбат, тушуниш, нутқ, монолог.

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье исследуются проявления, особенности, значения диалога и дискуссии в произведениях Достоевского. Анализируются выявляемые различные типы диалогов, трансформация диалогизма в котором раскрываются духовно-нравственные взгляды персонажей, идеологическая направленность. Исследуется диалог, диалогизм и его роль, функции в романе "Преступление и наказание" и определяются особенности внутреннего монолога героев.*

**Ключевые слова:** диалог, диалогизмы, типы диалога, обсуждение, дискуссия, беседа, понимание, речь, монолог.

### **ABSTRACT**

*The article examines the manifestations, features, and meaning of dialogue and discussion in Dostoevsky's works. The article analyzes the identification of various types of dialogues, the transformation of dialogism in which the spiritual and moral views of the characters, ideological orientation are revealed. The dialogue and its role and functions in the novel "Crime and Punishment" are investigated and the features of the inner monologue of the characters and psychological states are determined.*

**Keywords.** dialogue, dialogism, types of dialogue, discussion, discussion, conversation, understanding, speech, monologue.

## КИРИШ

Диалог инсон нутқини ва инсон ҳаётининг барча муносабатлари ва кўринишларини, умуман, маъно ва мазмун касб этувчи ҳамма нарсаларни қамраб олувчи универсал ҳодиса бўлиб, файласуфлар, адабиётшунослар, тилшунослар томонидан турли аспектда таҳлил этилган. Қаҳрамонларнинг қадриятлари, руҳияти, ўз-ўзи, ўзгалар, жамият ва дунё билан муносабатлари, қаҳрамонларнинг воқеа ҳодисаларга мустақил нуқтаи назари борлиги ёки йўқлигини очиб беришга хизмат қилади ва шу орқали ёзувчи асарлари диалогизмининг ўзига хос хусусиятларини намоён эттиради. Жаҳон адабиётига катта ҳисса қўшган Фёдор Достоевский асарларида диалог ва диалогизм, инсоннинг икки табиий интилиши: сўзлаш ва ўзини эшитишларига эришиш, тушуниш ва тушунилиш масаласини тадқиқ этиш долзарб саналади. Достоевскийнинг ижодида мунозара, диалогларни ўрганилиши адибнинг маҳорати, асарнинг бадиий ютуқларини кўрсатиш билан бирган, инсон маънавияти, руҳияти, ундаги эврилишларни намоён этади. Зеро, диалог ва диалогизм воситасида қаҳрамон ва персонажларни тушуниш инсонни тушуниш ва тушунтиришга олиб келишини кўриш мумкин.

Ушбу мақсадни амалга ошириш учун қуйидаги вазифалар белгилаб олинди:

- Достоевский асарларида диалог, диалогизм ва мунозаранинг ўзига хос жиҳатларини кўрсатиш;
- Достоевский асарларида диалогизм трансформациясини кўрсатиш;
- Достоевскийнинг “Жиноят ва жазо” романи қаҳрамонлари нутқида ички ва ташқи диалогнинг намоён бўлишини таҳлил қилиш;
- Мунозара жараёнида қаҳрамонлар руҳиятидаги ўзгаришларни очиб бериш;
- Қарама-қарши ва мунозарали ҳолатларда диалог маданиятининг аҳамиятини очиб бериш.

**Тадқиқотнинг назарий ва амалий аҳамияти.** Достоевский асарлари бўйича илмий излагишлар олиб борилаётган тадқиқотлар учун назарий-методологик манба сифатида фойдаланиш мумкин.

**Методлар.** Достоевский асарларида диалог ва диалогизмнинг фалсафий хусусиятлари масалаларини ўрганишда мантиқийлик, анализ ва синтез, умумлаштириш, таққослаш каби усуллардан фойдаланилган.

**Илмий муаммони қўйилиш.** Достоевский ижоди замонавий олимлар томонидан турли йўналишларда таҳлил қилинган ва кўплаб тадқиқотлар олиб борилган. Жумладан, Н.А.Бердяев, М.М. Бахтин, А.Ковач, А.Б.Криницын, Е.А.

Богатырева, И.В. Нестеров, А.А. Казаков, М. Холквист, О.Ю.Рождественскаялар Достоевский асарларида диалог ва диалогизм, ёзувчи романларида полифония, психологизм масалаларини тадқиқ этишган.<sup>52</sup>

Ўзбекистонда филолог олимлардан И. Гафуров, Х.Дўстмуҳаммад, Ш.Назарова, Иқбол Қўшшаева, С.Эшбаев ва Н.Нурматовлар Достоевский ижодида доир мақола ва тадқиқотларини кўрсатиш мумкин<sup>53</sup>.

Аммо, Достоевский ижодида мунозара ва унинг инъикоси масалалари фалсафий жиҳатдан етарлича таҳлил этилмаган. Ушбу мақолада Достоевскийнинг “Жиноят ва жазо” асарида диалог ва мунозаранинг қаҳрамонлар ҳаёти, руҳияти, дунёқараши, маънавий оламини очиб беришдаги ўзига хос хусусиятларига эътибор қаратилади.

### **Асосий қисм.**

Диалог тушунчаси ижтимоий амалиётда психология, фалсафа, социология, филология, сиёсатшунослик каби билимларнинг турли соҳаларида қўлланилади. Ушбу тушунча тилшунослик ва адабиётшунослик каби фалсафада ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Мулоқотни тушуниш учун асосий материал инсон нутқи, чунки у она тилида сўзлашувчиларнинг нутқ амалиётида, турли хил адабиётларга, биринчи навбатда эпик ва драматик адабиётларга тегишли асарлар ва илмий манбаларда ҳам намоён бўлади. Турли соҳадаги тадқиқотчилар томонидан мулоқот масаласини таҳлил этишнинг зарурий шарти кўпинча маълум бир тарихий даврда, маълум бир халқ ҳаётида шаклланган мафкуравий ва ахлоқий муҳит бўлиб, бу миллий тарихий ҳамжамият ичидаги одамларнинг мураккаб муносабатлари ҳақида фикр юритишга ундайди.

Мулоқот нафақат қадим замонлардан бери ишлаб чиқилган нутқ фаолиятининг шакли, балки ҳаётни, дунёқарашнинг табиатини, маънавий очиқлик тимсолини, дунё билан мулоқот қилиш усулини тушуниш тамойилидир. Мулоқот диалог шаклида амалга ошади. Диалог ижтимоий билишда (сухбат, сўзлашув) муҳим рол ўйнайди. Диалог қадим замонлардаёқ

<sup>52</sup> Бердяев Н. А. Миросозерцание Достоевского // Философия творчества, культуры и искусства. М., 1994. Т. 2. С. 7-140. Бердяев Н. А. Откровение о человеке в творчестве Достоевского // Философия творчества, культуры и искусства. М., 1994. Т. 2. Ковач А. Поэтика Достоевского. М.: Водолей Publishers, 2008; Криницын А.Б. Сюжетология романов Ф.М. Достоевского. М: МАКС Пресс, 2017. 6 Богатырева Е.А. Драмы диалогизма: М.М. Бахтин и художественная культура XX века. М.: Школа культурной политики, 1996. С. 84-119. Нестеров И.В. Диалог и монолог как литературоведческие понятия: Дис. ... канд. филол. наук. М., 1998.8 Казаков А.А. О природе полифонии в романах Достоевского: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Томск, 2005. О.Ю.Рождественская. Диалог: его роль и функции в творчестве Ф.М. Достоевского тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 10.01.08, кандидат наук. М.2018. А. А. Федоров Ф. М. Достоевский - Возрождение - Русский Ренессанс - ренессансный миф о человеке. Российский гуманитарный журнал. 2014. Том 3. №5 С.45

<sup>53</sup> И.Гафуров. С.Эшбаев Н.Нурматов. [Вестник науки и творчества](https://cyberleninka.ru/article/n/e-t-a-gofman-v-tvorchestve-f-m-dostoevskogo).2021 <https://cyberleninka.ru/article/n/e-t-a-gofman-v-tvorchestve-f-m-dostoevskogo> [https:// Telba](https://Telba)» & Romandan tagiga chizilgan parchalar & Iqbol Qo'shshayeva. Kechir bizni, baxtsizlik kh-davron.uz/kutubxona/jahon/fyodor-dostoevskiy-telba-tagiga-chizilgan-parchalar.html

муаммоларни диалектика ёрдамида баён этиш учун фойдаланилувчи адабий шакл сифатида машҳур бўлган. Юнончадан таржимада диалог икки ёки бир неча шахс ўртасидаги суҳбат, улар ўртасидаги ёзма тарзда қайд этилиши мумкин бўлган оғзаки мулоқот шакли деган маънони англатади.

Диалог мураккаб, ранг-баранг мазмунга бой ва тушуниш билан узвий боғлиқ ўзаро алоқа шаклидир. Диалогда инсоннинг икки табиий интилиши: айтиш ва ўзини эшитишларига эришиш, шунингдек тушуниш ва тушунилишга интилиш рўёбга чиқади. Инсоннинг тинглай олиши ва тинглашларига эришиши чуқур билимга эгалигидан далолат беради. Диалоглар турлича бўлиб, ахборот диалоглари, маълум бир мақсадга йўналтирилмаган, ахборот бермайдиган, ҳақиқатдан йироқ бўлган ритуал, ўйин услубидаги ва бошқа турдаги диалоглар ҳам мавжуд.

Диалог ёзма ва оғзаки шаклда бўлади. Албатта, оғзаки ва ёзма диалог ўзига хос хусусиятларга эга. Маълум бир сўзлар жумласидан ташкил топган, қатъий қолипга солинган ёзма шаклдаги диалогларнинг илмий-маърифий, сиёсий-ҳуқуқий турлари бўлиши билан бирган бадиий асарлардаги диалогларни ҳам таъкидлаш мумкин. Оғзаки шаклдаги диалог ижтимоий – психологик характерга эга бўлиб, нафақат сўз, тушунчалар, балки имо- ишоралардан ҳам ташкил топади.

Диалог ва диалогизмни фарқламоқ зарур. Диалогизм бу диалогик фалсафанинг бир қатор концепцияларини умумлаштирилган характеристикаси (баъзан диалогик фалсафа синоними, диалогнинг муҳимлиги тасдиқловчи концепциялардан келиб чиқиб диалогик фалсафа, ёки персонализм, экзистенциализмнинг ўзига хос кўриниши, барча тушунчаларни умумлаштирувчи ҳодиса сифатида ҳам характерланади). Бугунги кунда диалогизмнинг долзарблигини айниқса замонавий маданиятдаги "коммуникатив портлаш" билан ҳам изоҳлаш мумкин. Субъектларнинг бир-бирини билиши ва ўзаро тил топиши айнан диалогда амалга ошади. Бу жараёнда икки субъектив дунёнинг ҳар бири ўз теран маъноларини намоён этади.

Ижтимоий фанларда диалог мантиқи кўп жиҳатдан эксперимент ўрнини босади, десак, муболаға бўлмайди. Давримизнинг кўпгина муаммоларини ечишда диалог муҳим рол ўйнайди. Бу ижтимоий тафаккур соҳасида ҳам ўз аксини топади. Зеро, диалогик муносабат, Бахтин таъбири билан айтганда, инсон нутқини ва инсон ҳаётининг барча муносабатлари ва кўринишларини,

умуман, маъно ва мазмун касб этувчи ҳамма нарсаларни қамраб олувчи универсал ҳодисадир.<sup>54</sup>

Диалог ва диалогизмнинг назарий жиҳатлари XX-XXI аср бошларида хориж олимлари томонидан турли аспектларда талқин қилинган, айниқса файласуфлар томонидан диалогизмнинг моҳияти диалог, формализм, монологизм, герменевтика, рецептив эстетика билан ўзаро боғлиқликда очиб берилган. Файласуфлар, ёзувчи, шоирлар ижодида диалог ва диалогизмлар, ундаги полифония ғоялари, ижтимоий плюрализм, сўзнинг турли маъноларини таҳлил қилиш фалсафий, ахлоқий ва сиёсий жиҳатдан муҳим саналади. Диалогик муносабатлар (шу жумладан сўзловчи, маърузачининг ўз-ўзи билан диалогик муносабатлари) металингивистиканинг предмети, диалогик алоқа тилнинг амалий соҳасидир.

Бадиий адабиётда диалоглар асарнинг ғояси, моҳиятини юзага чиқариш билан бирган қаҳрамонни характери, руҳияти ва ундаги эврилишларни ҳам очиб беради. Шоир ва ёзувчилар асарларида диалог ва диалогизмдан кенг фойдаланилади. Жаҳон маданиятига катта ҳисса қўшган, адабий мероси нафақат ватани балки хорижда ҳам юксак баҳога эга, адабиётда буюк ҳодиса сифатида қаралган Фёдор Михайлович Достоевский асарларини ўрганиш, ундаги юксак ғоялар билан бирга бадиий маҳоратини таҳлил қилиш замонавий нуқтаи назардан ҳам муҳим аҳамиятга эга. Ёзувчи асарлари кино ва театр санъати ривожига ҳам катта ҳисса қўшди дейиш мумкин, чунки унинг асарлари асосида етуқ сахна асарлари дунёга келди.

Диалогизмнинг турли шакллари персонажларнинг воқеаларга ўз нуқтаи назарига эга ёки йўқлигини аниқлашга ёрдам беради, ривоятчиларнинг тасвирлари Достоевский асарларининг диалогизмининг умумий хусусиятларини очиб беради. Достоевский ижодида диалогизм қаҳрамонларнинг қадриятлари, руҳияти, ўз-ўзи, ўзгалар, жамият ва дунё билан муносабатлари, қаҳрамонларнинг воқеа ҳодисаларга мустақил нуқтаи назари борлиги ёки йўқлигини очиб беришга хизмат қилади ва шу орқали ёзувчи асарари диалогизмининг ўзига хос хусусиятларини намоён эттиради.

“Достоевскийнинг ижодида нафақат диалогларнинг турли типлари, балки диалогизмнинг трансформацияси яъни, турли қаҳрамонларнинг маънавий-ахлоқий қарашлари, мафкуравий йўналганлиги, диалогик тушунмовчиликнинг диалог-низо, диалог-фожиа билан якун топганини кузатиш мумкин.”<sup>55</sup>

<sup>54</sup> Бахтин М. М. *Проблемы поэтики Достоевского*. М., Ausgburg 2002. Стр.125

<sup>55</sup> Рождественская О.Ю. Диалогический компонент в речи повествователя (по материалам романа Ф.М. Достоевского «Идиот») // Вестник ЦМО МГУ. Филология. Культурология. Педагогика. Методика. 2013. № 3. С. 104-108.



Тилнинг бутун ҳаёти, уни ишлатишнинг ҳар қандай соҳасида (маиший, бизнес, илмий, бадиий ва бошқалар), диалогик муносабатлар билан сингиб кетган ана шу жиҳатлар Достоевский асарлари қурилишининг хусусиятларини аниқлаш, унинг моҳиятини акс эттиришда муҳим аҳамият касб этади. Чунки турли қаҳрамон ва персонажлар мунозаралар орқали ўзини, руҳиятини, қадриятларини намоён этади юқорида таъкидланган каби.

Достоевский асарлари биринчи навбатда, сўзнинг ғайриоддий хилма-хиллиги, ўзгаришлари, кўп маъноли, кўп ифодалилиқ, қаҳрамонларнинг турли ғоялари, ўзи ва ўзгалар билан муросасиз баҳслари, ички полемикадан диалогга ўтиши, уларнинг трансформацияси билан ҳайратга солади. “Жиноят ва жазо» 1865–1866 йилларда Фёдор Достоевский томонидан ёзилган ижтимоий-психологик, ижтимоий-фалсафий роман. Асар жаҳон адабий жараёнига жуда катта таъсир кўрсатган. Достоевский қаҳрамонлари жумладан, романининг бош қаҳрамони Раскольниковнинг ички монологининг бойлиги, ҳикояларининг жонлилиги, ҳаётийлиги, барча ўйлаётган фикрини барчага нисбатан баён этиши адибнинг диалогдан унумли фойдаланиш орқали қаҳрамони дунёқараши, маънавияти, ахлоқини акс эттиради. Раскольниковнинг монологи ўзининг ўта ички диалогизацияси ва ўйлаган ва айтган ҳамма нарсага жонли шахсий мурожаати билан ҳайратланарли. Раскольников учун объект ҳақида ўйлаш унга мурожаат қилишни англатади. У ҳодисалар ҳақида ўйламайди, балки улар билан гаплашади. У тез-тез ўзига мурожаат қилади, ўзи билан мулоқот қилади, ўзини ўзи ишонтиради, масхара қилади. Ҳеч кимга айтолмаган гапларини ўзига айтади.

“ Достоевский реализмида "инсон қалбининг чуқурлиги" фақат қизғин баҳсларда очилади. Унингча, одамни ички дунёсини тушуниш, уни англаш ва кўриш учун уни бефарқ, нейтрал таҳлил объектига айлантириш мумкин эмас, у билан бирлашиш, уни ҳис қилиш орқали ҳам уни ўзлаштириш мумкин эмас. Йўқ, сиз унга яқинлаша оласиз ва уни очиб беришингиз мумкин - аниқроғи, уни ўзини очиб беришга мажбур қилишингиз мумкин ва фақат у билан мулоқот қилиш орқалигина. Достоевский таъкидлаганидек, инсон ички оламини фақат бошқаси билан мулоқотини тасвирлаш орқали кўриш мумкин.”<sup>56</sup>

Одамни ички дунёсини уни ҳис қилиш, уни таҳлил объектига айлантириш орқали тушуниб, кўриб, ҳис қилиб бўлмайди. Фақат у билан мулоқот қилиш орқали унга яқинлаша оласиз ва уни очиб беришингиз мумкин - аниқроғи, уни ўзини очиб беришга мажбур қилишингиз мумкин дейди Достоевский.

<sup>56</sup>А.Б.Крицин. О счастье и радости в мире Достоевского. И здательство: [ИД ЯСК](#), 2022 "С.56

Фақат мулоқотда, одамнинг одам билан ўзаро муносабатларида, бошқалар учун ҳам, ўзи учун ҳам "инсон ичидаги инсон" очилади.

Достоевский бадий оламининг марказида диалог туради, бундан ташқари, мулоқот восита сифатида эмас, балки ўз-ўзидан мақсад сифатида бўлиши керак. Бу ерда диалог ҳаракатнинг чегараси эмас, балки ҳаракатнинг ўзи. Бу одамнинг тайёр характерини очиб бериш воситаси эмас; йўқ, бу ерда инсон ўзини ташқи томондан нафақат бошқалар учун балки ўзи учун ҳам ўзини намоён қилади. Мулоқот тугагач, ҳамма нарса тугайди. Шунинг учун, Достоевский асарларида диалог тугамайди, ички ёки ташқи тарзда намоён бўлаверди. Зеро ички нутқ кишининг ўз-ўзига қаратилган нутқи, овозсиз ички мулоҳазаси бўлиб, ички кодга мувофиқ, ошқора товушсиз амалга оширилади, товушсиз артикуляр ҳаракат – ичда гапиришни ўрганиш, тажриба асосида қайд этиш тил ва тафаккур, тил ва нутқ, фикрлаш шакли ҳамда нутқни идроклашни тадқиқ этишга имкон беради.

Бадий адабиётда ички нутқнинг жами уч хил кўриниши мавжуд бўлиб, булар ички диалог, ички монолог ҳамда ички луқма (реплика)дир. Булар барчаси бир бўлиб ички нутқ воситаси сифатида шахс ички алоқаларининг узлуксиз жараёнини ташкил қилади. Ички нутқ ва унинг кўринишлари ўз навбатида бадий асар психологизмининг кучайтиришга хизмат қилиб, асар унинг қаҳрамонлари руҳиятини очиб беришда асосий омиллардан бири ҳисобланади. Шартли равишда инсон онгида кечаётган ўйлов (ҳис этиш) жараёни сифатида қабул қилинади.

“Жиноят ва жазо”да ички диалог, ички монолог ҳамда ички луқма (реплика) ҳар биридан ўринли фойдаланилган. Айниқса ички монолог Раскольниковнинг ўз-ўзи билан суҳбати қаҳрамонни очиб бериш билан бирга асар ечим ва кульминациясида ҳам муҳим ўрин тутаяди. Шунингдек бу образда диалогнинг бойлиги ва рангбаранглиги, ички монологнинг зиддиятли жиҳатлари ҳам акс этади. Раскольников судхўр кампирни ўлдиришни мақсад қилар экан ичида бир қанча овозлар ўзаро қарама қаршилигини ифодалайди, бу Достоевскийни ҳам зиддиятли ёзувчи эканлигини кўрсатади. Зеро, ўзи томонидан баён этилаётган бир неча фикрлардан тўғриси танилаб олиш нафақат ўзи балки жамият учун ҳам муҳимлигини ҳис этади ёзувчи. Раскольников ўзи билан ўзи баҳсга киришар экан “сен қачонгача ўқишдан ҳайдалиб юрасан, сен туфайли синглинг хароб бўляпти, сен уни қутқаришинг керак, сен кимсан буюкмисан Наполеонмисан бундай ишларни амалга оширишинг керак, мен ифлос, одамнинг қонини сўрадиган битни, ҳеч кимга кераги бўлмаган ўша судхўр кампирни ўлдирган бўлсам, бунақанги

камбағалнинг қонини сурадиган одамни ўлдирганнинг қирқта гуноҳи бўлса, ҳаммаси тўкилади”<sup>57</sup> дея ўзини оқлашга ҳаракат қилади. Аммо у қилмоқчи бўлган ишини англаганда азобга қолади.

«Ё Парвардигор! Бунчалар ярамас ҳаммаси! Ва наҳотки, мен... йўқ, бўлмаган гап, беъманилик! -деб қўшиб қўйди у қатъият билан. - Наҳотки, шундай даҳшатли бир нарсани килиш менинг қўлим-дан келса? Наҳот, менинг дилимда шунчалар қабоҳат яшириниб ётган бўлса!Қанчалар палид, ифлос, расво, расво!»<sup>58</sup>

Раскольников ўзи режалаштираётган иш қабоҳат, ёвузлик эканини тушунади, ундан воз кечганда ўзини енгил ҳис қилади. Асарда Раскольников бот бот шу фикр юзасидан ўзига мурожаат қилади, шу ишни амалга ошира олишига ишонмайди. ”Разумихиннинг олдига боришим тайин, ҳа, албатта. лекин ҳозир эмас... Мен унинг олдига ўша ишнинг эртасига бораман, ўша иш бутунлай бартараф бўлгандан сўнг, бутун ишлар бошқача бўлиб кетгач, бораман.. У бирдан сергак тортди.Ўша ишдан кейин, - кичкириб юборди у ўриндикдан сакраб туриб кетар экан, - наҳот ўша иш амалга ошса? Ростдан ҳам шундай бўлармикин? У ўриндикни ташлаб тез-тез шитоб билан юрибкетди; у уйга қайтмоқчи ҳам бўлди, лекин бу фикридан қайтди, сира ҳам уйга боргиси келмай қолди: бу ўша иш ҳақидаги фикр ўша ерда, даҳшатли каталакда туғилиб мана бир ойдан ошибди-ки, унинг бутун тинчлигини ўғирлаб азоб беради, шунинг учун ҳам у уйга бормай бош оққан томонга қараб йўл олди. “<sup>59</sup>

Аммо барибир Раскольников ўз танловини қилди ва унинг оқибати яъни кампир ва беихтиёр уни синглисини ҳам ўлдирганидан кейин, руҳий азоблари, қийноқлари уни ўз жонига суийқасд қилишга ундайди. Достоевский асарларида монолог мулоҳаза ва монолог муҳокама мана шу жараёнда ҳам акс этади. «Қаерда эди, - ўйлаб йўлда давом этди Раскольников, - қаерда ўкиган эдим, бир ўлимга ҳукм этилган одам қатл этилмасдан бир соат олдин, агар мен жуда ҳам баланд бир ерда, қоянинг тепасида, факат икки оёқ сиғадиган бир жойда яшашимга тўғри келганда, атрофим эса зимистон қоронғулик, тубсиз, интиҳосиз океан, абадий зулмат, абадий ёлғизлик ва абадий бўрон эсиб ётган бир муҳит булса-ю шу бир қарич ерда тик туриб бир умр, минг йил, миллион йил яшашга тўғри келса, шунда ҳам шу ҳаёт ўлиб кетганга қараганда минг марта афзал, деб билардим! - деган экан. Фақат яшамоқ, яшамоқ ва яна

<sup>57</sup>Ф.Достоевский. Жиноят ва жазо . Тошкент, Янги аср авлоди 2017 803 бет

<sup>58</sup> Ф.Достоевский. Жиноят ва жазо . Тошкент, Янги аср авлоди 2017. 13 бет

<sup>59</sup> Ф.Достоевский. Жиноят ва жазо . Тошкент, Янги аср авлоди 2017.83 бет

яшамоқ;! Қандай яшамагин, факат яшамоқ! Нечоғлик ҳақ экан у! Ё Раббим, қандай ҳақ гап бу<sup>60</sup>.

Раскольников нақадар катта гуноҳ қилганини англаб етади. Зеро, ўлим даҳшатини ҳис қилиш ёзувчи учун бегона эмас. Достоевский 1847 йилдан рус инқилобчиси ва утопик социалисти М.В. Петрашевский тўғарагига фаол қатнашиб, унинг ғоясини қўллаб-қувватлайди. Мазкур тўғарақда қатнашиб, мавжуд давлат тузумини куч ишлатиб ўзгартиришга ҳаракат қилгани учун ўлим жазосига ҳукм қилинади. Нуфузли давлат ва жамоат арбобларининг аралашувидан сўнг, подшо Александр II ўлим жазосини 4 йиллик каторга сургуни билан алмаштиради. Ёзувчи Омск каторга қамоқхонасида (1850—54) ва Семипалатинскда интизомий ҳарбий хизматда бўлди (1854—59). 1859 йилдан Петербургда Узоқ муддатли тутқунлик ва сургун Достоевский ижодида ўз ифодасини. Сургунда декабристлар билан танишади, улар унга Инжил совға қилишади. У Инжилни ўқиш жараёнида диний манбалар жумладан Қуръонга ҳам қизиқа бошлайди. Осиёда сургунда пайтда Чўқон Валихонов, мусулмон маҳкумлар билан танишади ва улар орқали ислом дини, Муҳаммад пайғамбар ҳақида ўрганади. Диний манбалардан хабардорлиги, маҳкумлар орасида яшаганлиги уларнинг феъл атвори, уларнинг гапиришларидан асарларида улардан фойдалангани учун асарлари ҳаётий, ишонарли.

Достоевский учун тазарру сифатидаги мулоқот катта аҳамиятга эга. Ички монолог ички нутқнинг нисбатан мураккаб шакли бўлиб, у ўқувчига икки хил усулда тақдим этилиши мумкин – кўчма ички монолог ҳамда тўғридан-тўғри ички монолог. Кўчма ички монологда персонажнинг ичида кечаётган ўй-фикрлари муаллиф нутқи орқали баён қилинса, тўғридан-тўғри ички нутқда персонажнинг ички монологи тўлиқлигича ўз тилидан айтилади ва жонли нутқда мавжуд конструкция сақлаб қолинади: оғзаки қисқартмалар, фонетик копрессиялар, ҳис-туйғуни янада таъсирли тасвирловчи кўплаб ундов, сўроқ ва тиниш белгилари (пауза воситаси), қисқа жумлалар, такрор сўзлар, тугалланмаган ва мантиқсиз иборалар.

«Борайми, бормайми», - деб ў й л а р д и Раскольников, кимдандир қатъий бир сўз эшитишни кутган каби чорраҳада йўлнинг ўртасига келиб, тўхтаб атрофга сарасоф солиб. Лекин ҳеч бир ердан акс садо чикмади ҳамма нарса у оёқ босиб турган тошлар каби гунг ва безабон, ўлик эди, унинг учун ўлик эди, ёлғиз унинг учун. Бирдан у ўзидан икки юз қадамча нарида кўчанинг нариги бошида қуюқлашиб бораётган қоронғилик ичра тўдалашиб турган одамларни кўрди, бақирган-чақирган товушларни эшитди. Одамлар орасида қандайдир бир

<sup>60</sup> Ф. Достоевский. Жиноят ва жазо . Тошкент, Янги аср авлоди 2017. 244-бет

экипаж турарди. Кўчанинг ўртасида липиллаб чироқ кўринди. Нима бўлди? Раскольников ўнга йўл солди, тўпланган одамлар томонга қараб юрди. У чўкаётган одамдай дуч келган нарсага илинишга уринмоқдайди, шуни уйлаб совуқ жилмайиб кўйди, негаки, идорага бориш тўғрисида у бир қарорга келиб қўйган ва ҳозир ҳаммаси тамом бўлади, деб қаттиқ, ишонарди”<sup>61</sup>.

Достоевский романларидаги ҳамма нарса диалогга, унинг маркази сифатида диалогик қарама-қаршиликка яқинлашади. Ҳамма нарса восита, диалог-мақсад. Бир овоз ҳеч нарсани тугатмайди ва ҳеч нарсани ҳал қилмайди. Достоевскийнинг диалогининг асосий схемаси жуда оддий: инсоннинг инсон билан қарама-қаршилиги, "мен" ва "бошқаси" қарама-қаршилиги сифатида. Бош қаҳрамонга Раскольников фамилиясининг танланиши ҳам бежиз эмас.

Муайян персонажларнинг, айниқса камгап, одамови ва сирли қаҳрамонларининг борлиғига ҳамда ички дунёсига кириб бориш, уларнинг ички ҳаётини, руҳият оламини тасвирлаб беришда ички нутқ янада муҳим аҳамият касб этади. Асарнинг асосий қисмини Раскольниковнинг ўзи билан суҳбатларини ташкил қилади. Онсининг унга ёзган мактуби ҳам ички монологнинг гўзал шакли дейиш мумкин. Ички монолог асосида Ғариб тафаккурининг янги қирралари ёритиб борилади. Бир ҳолатдан иккинчи ҳолатга ўтилиши, қалб драматизмининг кучайиши тасвирни жонлантиради.<sup>62</sup>

Достоевский ҳикоячи-персонаж сифатида ҳам кўринади. Ҳикоя давомида муаллиф ички монологнинг турли кўринишларига мурожаат қилади, образ ички дунёсини ифодалашда монолог-мулоҳазадан фойдаланса, унинг ўтган кунларини, ўз ўтмишига саёҳатларини монолог-хотиралар орқали баён қилади, қаҳрамоннинг ўзи билан бўлган ички курашларини монолог-музокаралар орқали тасвирлайди. Ички монологларда баъзан ёзувчи бир сўзни такрор-такрор келтиради, шу сўзга логик урғу беради ва китобхон диққатини ушбу сўз моҳиятига жалб қилади, чунки бу сўзларда қаҳрамон психологиясининг асл моҳияти ифодаланган бўлади.

“Шу пайт унинг калласига галати бир фикр келиб қолди, ҳозироқ ўрнидан туриб, Никодим Фомичнинг олдида боргиси ва кечаги бўлган воқеаларни барча тафсилотлари билан айтиб бергиси, кейин уни уйга олиб бориб туйнукка тиқиб қўйилган нарсаларни корсатгиси келиб кетди. Бу истак шунчалар ҳам кучли эдики, у ҳатто ниятини адо этиш учун ўрнидан турди. «Бир нафас уйлаб олсаммикин? - хаёлидан ўтди унинг. - Йўқ; яхшиси ўйлаб ҳам ўтириш керак эмас, шартга бўйиндан соқит қилиб қўя қилиш керак!»<sup>63</sup>

<sup>61</sup> Ф. Достоевский. Жиноят ва жазо . Тошкент, Янги аср авлоди 2017. 269-бет

<sup>62</sup> Ковач А. Поэтика Достоевского . — М.: Водолей Publishers, 2008. - С.234.

<sup>63</sup> Достоевский. Жиноят ва жазо .Тошкент, Янги аср авлоди 2017. 160-бет



Бош қаҳрамон ҳолати, хатти- ҳаракати тўлақонли ёритилишида унинг атрофдаги кишилар билан муносабатига ҳам эътибор қаратилади. Бу вазиятда муаллиф содир бўладиган воқеликдан огоҳ этиш, муносабат билдириш, асрорга ишора бериш, бош қаҳрамон линиясига доир зарур маълумот киритиш мақсадида фойдаланади. Эпизодик қаҳрамон нутқи, ҳаракати, сюжетга бевосита ё билвосита боғланиши мумкин. У воқеа тизимида бурилиш яшаш, баъзан аввалги ҳодиса сабабини кўрсатишга хизмат қилади. Ижодкор асардаги диалоглар орқали ҳам эпизодик образнинг дунёқарашини, муддаосини англатиши мумкин. Демак, асардаги эпизод образларга ҳам маълум ғоявий вазифа юклатилади. Шу нуқтаи назардан Разумихин, Свидригайлов, Порфирий, Дуня, Соня образлари мисолида кўриш мумкин.

Романда мудҳиш қотилликнинг узлуксиз уқубатлари билан бирга Раскольников ва Сонянинг гўзал муҳаббати тасвири киши қалбини беихтиёр жунбишга келтиради, қаҳрамонни ҳар томонлама инкишоф этиш, тафаккур ҳаракати жараёнини бадиий гавдалантиришга эътибор берилади.

“Лекин бу ёғига энди янги тарих бошланади, инсоннинг аста-секин янгилашиб бориши тарихи, унинг аста-секин қайта туғилиши, аста-секин бир оламдан бутунлай бошқа бир оламга ўтиши, янги, илгари ўзига мутлаққо нотаниш бўлган воқелик билан ошно бўлиши тарихи бошланади. Бу янги бир қиссанинг мавзуси бўлиши мумкин эди, лекин бизнинг ушбу ҳикоямиз шу ерда тугайди.<sup>64</sup>

Асар умидбахш сатрлар билан ниҳояланади. Раскольников қалбидаги эврилишлар, Сонянинг юксак муҳаббати, унга берган азобларини ўзини туганмас муҳаббати билан ювишини ният қилганини ўқиган киши қалбида қаҳрамон билан бирга тозаланиш, покланишни ҳис қилади.

Хулоса қилганда, Достоевский бадиий образларда нафақат воқеалар оқимини, инсонлар тақдирини, қалб курашини, балки жамият маънавий ҳаётидаги фожиавий конфликтларни ҳам бера олди. Ўзининг интеллектуал романларида фикрларнинг кескин курашини, ғоя ва дунёқарашнинг фожиавий тўқнашувини маҳорат билан тасвирлайди.

Достоевский романлари вазмин тасвир услуби эмас, аксинча, соф драматик жанрларга хос кескинлиги ва лиро-публицистик пафоси билан ажралади. Достоевский қаҳрамонларининг ҳаёти, ахлоқи, руҳияти, маънавий оламини очиб диалог турларидан унумли фойдаланади. Китобхон ҳам беихтиёр қаҳрамонлар билан мунозарага киришади, қайғуради, азобланади. Диалог воситасида қаҳрамонларни тушунади, уларнинг қадриятларини англайди,

<sup>64</sup>Достоевский. Жиноят ва жазо. Тошкент, Янги аср авлоди 2017. Б. 851.

ёзувчи энг камгап қахрамонларни ҳам гапиртиради ва диалогнинг барча шакллари Достоевский фалсафасини очиб хизмат қилган дейиш мумкин.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Бахтин М. М. Проблемы поэтики Достоевского.. М.. Ausgburg 2002.
2. Достоевский. Ф.М. Жиноят ва жазо .Тошкент, Янги аср авлоди 2017.
3. Ковач А. Поэтика Достоевского. М.: Водолей Publishers, 2008;
4. Криницын А.Б. Сюжетология романов Ф.М. Достоевского. М: МАКС Пресс, 2017.
5. Казаков А.А. О природе полифонии в романах Достоевского: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Томск, 2000.
6. Рождественская О.Ю. Диалогический компонент в речи повествователя (по материалам романа Ф.М. Достоевского «Идиот») // Вестник ЦМО МГУ. Филология. Культурология. Педагогика. Методика. 2013. № 3.

## **INGLIZ TILI VA O‘ZBEK TILI MEHR MAZMUNLI AFORIZMLARNING STATISTIK TAHLILI**

**Sultonova Gulchehra Husanovna**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar  
universiteti O‘zbek tili kafedrası assistenti

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillarida mehr mazmuniga ega bo‘lgan aforizmlarning statistik tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi mehr haqidagi aforizmlari qiyosiy tahlil qilingan.*

**Kalit So‘zlar:** *aforizm, mehr, sevgi, ingliz, o‘zbek, til, tahlil, she‘r, vatan, muhabbat.*

### **АННОТАЦИЯ**

*This article presents information about the treatise "A Brief History of Islam" by Abdurauf Fitrat, one of the famous representatives of Jadidism. In his treatise, Fitrat attempted to study a brief history of Islam aimed at understanding the identity of the people and the nation.*

**Keywords:** “A Brief History of Islam”, Islam, the “Blessed” era, the Rightly Guided Caliphs, the Umayyads, the Abbasids.

*Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim: “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi,*

*e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z otanalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".*

**Shavkat Mirziyoyev**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti<sup>78</sup>**

## **KIRISH.**

Fitrat (1886-1938) o'z davrining mashhur ma'rifatparvar insonlaridan biri bo'lib, o'zbek milliy uyg'onish harakatida muhim rol o'ynagan. U Turkiston xalqining milliy o'zligini anglashiga xizmat qiluvchi ko'plab asarlar yozgan, jumladan "Muxtasar islom tarixi"<sup>79</sup> kabi diniy-ma'rifiy kitoblar ham mavjud. Fitrat Islom dinini nafaqat diniy nuqtai nazardan, balki uning jamiyatdagi o'rni, ma'naviyati va madaniyatiga bo'lgan ta'sirini ham chuqur tahlil qilgan. Fitrat o'zining "Muxtasar islom tarixi" asarida Islomning paydo bo'lishi, uning dastlabki davrlari va musulmon jamoatining shakllanish jarayonlari haqida qisqa, ammo mazmunli tarixiy ma'lumot beradi. Ushbu asar mustabid tuzum davrida ota bobolarimizni milliy o'zlikni anglashida Islom dini muhimligini bilgan holda, Islom tarixiga qiziqqan o'quvchilarga diniy va tarixiy bilimlarni yetkazish maqsadida yozilgan. Fitrat bu asarida Muhammad (s.a.v.) hayoti, ilk musulmon jamoasi va Islomning birinchi davridagi muhim voqealar haqida muhim manbalardan olingan ma'lumotlarni qisqacha, lekin aniqlik bilan taqdim etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Fitratning «Muxtasar islom tarixi» asarini yurtimiz tadqiqotchi olimlaridan filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev<sup>80</sup> o'z tadqiqotlarida o'rganib chiqib, o'sha davr islom tarixi bo'yicha asarlar yozgan Mahmudxo'ja Bexbudiy (1914), Abdulla Avloniy<sup>81</sup>, Alixonto'ra Sog'uniy kabi jadidchilik namoyondalari yozgan asarlaridan Fitratning asari voqealarning aniq, jonli ifodasi, millatparvarlik ruhi tasvir qatiga singlirilgani va xolis yozilgani bilan ulardan farqlanad.<sup>82</sup>

Fitratning «Muxtasar islom tarixi» asarini o'rganish orqali diniy va ma'rifiy islohotlar haqida aniq tahlil qilish mumkin. U asosan o'sha davrda hukmron bo'lgan diniy muhitning chuqur tahlilini beradi. Kitobdagi asosiy fikrlaridan biri shuki,

<sup>78</sup> Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: "O'zbekiston", 2017 yil. 124-bet // Hamidulla Boltaboyev. Abdurauf Fitrat. –Toshkent.: "Yoshlar nashriyot uyi". 2022 yil. 3-bet

<sup>79</sup> Фитрат А. Танланган асарлар: 6-жилдлик. 5-жилд. – Тошкент.: Маънавият, 2010 йил. 36-бет

<sup>80</sup> Абдурауф Фитрат. Мухтасар ислом тарихи(сўзбоши муал. ва таржимон Ҳ.Болтабоев). –Т.: «Янги аср авлоди», 2004

<sup>81</sup> Абдулла Авлоний. Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи Ислом(нашрга тайёрловчи, изоҳ. ва сўнгсўз муал. Р. Баракаев). –Т.:«ТИУ» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2008.

<sup>82</sup> Абдурауф Фитрат. Мухтасар ислом тарихи(сўзбоши муал. ва таржимон Ҳ.Болтабоев). –Т.: «Янги аср авлоди», 2004

Islomning ilk davrlari, ya'ni Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) davri va to'rt xalifa (Roshidun xalifalari) boshqaruvi paytidagi Islom qadriyatlari keyinchalik yo'qola boshlagan va bu davr dinning haqiqiy mohiyatini ko'rsatib beruvchi davr bo'lib qolgan. Shuni nazarda tutib, Fitrat o'z risolasida islom tarixini qismlarga bo'lib o'rganadi. Bular: birinchi qism – Saodat davri;

ikkinchi qism – birinchi to'rt asl halifalar davri;

uchinchi qism – ummaviylar va abbosiylar halifaligi davri.<sup>83</sup>

Fitrat kitobida, Muhammad (s.a.v.) davridagi islohotlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ahamiyatiga to'xtalib, ularning jamiyatdagi ijobiy ta'sirlarini ta'kidlaydi. Fitratning fikriga ko'ra, Muhammad (s.a.v.) davrida kiritilgan islohotlar nafaqat diniy, balki ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va tenglikni ham o'z ichiga olgan. Shuning uchun u kitobda bu davrni "saodat" davr sifatida ta'kidlaydi va musulmon jamoasining keyinchalik bu qadriyatlardan uzoqlashganini tanqid qiladi.

Fitratning diniy islohotlarga bo'lgan qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, "Muxtasar islom tarixi" asarida u Islomning qadimiy tamoyillariga qaytish va yangicha ma'rifiy islohotlarni amalga oshirish zarurligini urg'ulaydi. Fitrat bu jihatdan asarda chuqur fikrlarni bayon qilib, diniy va ma'rifiy islohotlarni milliy uyg'onish bilan bog'laydi.

Muhammad (s.a.v.) hayoti va Islomning dastlabki davrlari haqida Fitrat o'z asarida atroflicha yoritgan bo'lib, unda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hayoti va u zotning payg'ambarlik faoliyatini turli bosqichlarga bo'lib o'rganadi: uning ilk da'vati, Makka va Madina davrlaridagi faoliyati, hijrat, keyingi voqealar va Islom davlatining tashkil etilishi kabi bosqichlarga bo'lib o'rganadi. Fitrat, Muhammad (s.a.v.) ning payg'ambarlik da'vosi va uning musulmonlar jamoasini tashkil etishdagi mehnatlarini tafsilotlari bilan bayon qiladi. Ayniqsa, hijrat va Madina davri Islom tarixida yangi davrning boshlanishi sifatida katta ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi.

Fitratning asarida keltirilishicha, Muhammad (s.a.v.) o'z da'vati orqali insonlarni adolatga, haqiqatga va ijtimoiy tenglikka chaqirgan. Islomning asosiy tamoyillari bu davrda shakllangan va aynan shu davrda musulmonlar jamoasi kuchayib, siyosiy va diniy jihatdan mustahkamlangan.

Asarda Muhammad (s.a.v.) ning siyosiy, ijtimoiy va diniy rahbarlik qobiliyatlarini yuqori baholab, uni nafaqat din yetakchisi, balki adolatparvar rahbar sifatida tasvirlaydi. Madina davridagi voqealar Fitrat tomonidan alohida e'tirof etiladi, chunki bu davrda musulmonlar jamoasi ilk bor mustaqil davlatga ega bo'lgan va Islom hukumati shakllangan.

Risolada Muhammad (s.a.v.) ning vafotidan keyingi davr, ya'ni to'rt xalifa boshqaruvi ham batafsil yoritilgan. Fitrat ushbu davrda musulmon jamoasining

<sup>83</sup> Фитрат А. Танланган асарлар: 6-жилдлик. 5-жилд. – Тошкент.: Маънавият, 2010 йил. 36-бет



siyosiy va hududiy kengayishini, shuningdek, Islomning boshqa hududlarga yoyilishini aniq tasvirlaydi. Xalifalar davri tarixidagi eng muhim voqealar — Abu Bakr, Umar, Usmon va Alining xalifalıkları davrida sodir boʻlgan ijtimoiy, siyosiy va diniy islohotlar tahlil qilinadi. Fitrat xalifalik davrida Islomning hududiy kengayishi, bu davrda olib borilgan siyosiy va ijtimoiy islohotlar haqida maʼlumot beradi. Xususan, Umar ibn Xattobning xalifaligi davridagi adolatli boshqaruv va ijtimoiy islohotlar Fitrat tomonidan katta hurmat bilan tilga olinadi. Usmonning Qurʼonni jamlashdagi hissasi, shuningdek, Abu Bakrning musulmonlar birligini saqlab qolish yoʻlidagi mehnati Fitrat tomonidan yuqori baholanadi.

Kitobda bu davrdagi ijtimoiy barqarorlikning oʻrnini ichki mojarolar egallagani, ayniqsa, Ali davridagi fuqarolar urushi va fitnalar musulmon jamoasiga qanday salbiy taʼsir qilgani haqida tahliliy fikrlar berilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

Fitrat kitobda Islom tarixida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi haqida ham toʻxtalib oʻtadi. Islom madaniyatining yuksalishi, ayniqsa, Abbosiylar davrida Bagʻdod va boshqa ilmiy markazlarning tashkil etilishi, musulmon olimlarining dunyo ilm-faniga qoʻshgan hissasi haqida Fitrat aniq dalillar keltiradi. U musulmon olimlari matematikadan tortib astronomiya, falsafa va tibbiyot sohalarigacha katta ilmiy yutuqlarni qoʻlga kiritganliklarini taʼkidlaydi.

Fitrat ilm-fan va diniy bilimlarni oʻzaro bogʻlaydi. U kitobda musulmon olimlarining antik yunon, hind va fors ilm-fani bilan tanishib, ulardan qanday foydalanganini va oʻz ilmiy yutuqlarini qoʻshganini tasvirlaydi. Fitratning fikricha, Islom dunyosidagi ilmiy va madaniy yuksalish diniy qadriyatlar va maʼrifatning uygʻunlashuvi natijasida yuzaga kelgan.

Fitrat “Muxtasar islom tarixi” asarini yozar ekan, uning maqsadi oʻz davrining musulmon yoshlariga diniy va tarixiy bilimlarni yetkazish, ularda oʻz diniga, tarixiga boʻlgan hurmat va qiziqishni oshirish edi. Fitratning ushbu asari oʻz davrida diniy va maʼrifiy islohotlarni amalga oshirishda muhim oʻrin tutgan. U oʻz xalqiga milliy va diniy uygʻonish uchun islomiy qadriyatlarni bilish va oʻrganish zarurligini tushuntirishga intilgan.

Kitob milliy uygʻonish harakatining bir qismi sifatida diniy bilimlarni targʻib qilish, yoshlarni Islomning tarixiy ahamiyatini anglashga chaqirish va milliy maʼnaviyatni kuchaytirishga qaratilgan. Fitrat Islomni milliy uygʻonishning asosiy vositalaridan biri deb bilgan va bu asarda ham bu gʻoyani ilgari surgan. Fitrat Makka va Madina davrini oʻzaro taqqoslab, ularning ijtimoiy va siyosiy tuzilishidagi farqlarni ham ochib beradi. Makka davrida musulmonlar soni oz boʻlsa-da, ular bir-birlariga mustahkam yordam koʻrsatganini, Madina davrida esa islom jamoasi

mustaqil davlat sifatida shakllanib, nafaqat diniy, balki siyosiy boshqaruv tizimini ham o'z zimmasiga olganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Fitrat ilk musulmonlar o'rtasida sodir bo'lgan asosiy voqealar, xususan, hijrat va Madinada yangi davlatning barpo etilishi haqida ham ma'lumotlar beradi. Bu voqealar islom tarixi uchun juda muhim hisoblanadi, chunki ular musulmonlarning o'zaro hamjihatlikda harakat qilishini va islom ta'limotlarini amalga oshirishga bo'lgan intilishlarini ko'rsatadi.

Fitrat o'z asarida islom tarixini ilmiy va ob'ektiv yondashuv bilan talqin qiladi. U tarixiy voqealarni faqat diniy nuqtai nazardan emas, balki ijtimoiy va siyosiy omillarni ham inobatga olgan holda tahlil qiladi. Bu esa asarning ahamiyatini oshiradi va o'quvchiga islom tarixini kengroq va chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Fitrat tarixiy dalillarga asoslangan holda voqealarni tasvirlagan va ularni keng ilmiy bazaga asoslab yoritgan. Asarda diniy hissiyotlar ustuvor emas, aksincha, voqealarning ob'ektiv tahlili muhim o'rin tutadi. Bu jihat Fitratning islom tarixini ilmiy asoslarga tayanib yozganligini ko'rsatadi. Uning bu yondashuvi, tarixiy faktlarni inobatga olgan holda, o'quvchilar uchun islom tarixi haqidagi tushunchalarni aniq va lo'nda tarzda taqdim etadi.

“Muxtasar islom tarixi” asari o'z davrida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Birinchidan, bu asar musulmonlarga o'z tarixlarini yaxshiroq bilib olishlariga ko'maklashgan bo'lsa, ikkinchidan, tarixiy voqealarni xolis va ilmiy tahlil qilishga undagan. Fitrat bu asar orqali musulmonlar orasida islom tarixini noto'g'ri talqin qilish yoki u haqdagi chalkash tushunchalarga qarshi kurashgan.

Ushbu asar o'sha davr musulmonlari uchun yengil tushunarli tilda yozilgani sababli keng ommaga mo'ljallangan. Fitrat o'z asarini faqat ulamolar yoki olimlar uchun emas, balki oddiy xalq uchun ham tushunarli bo'lishini maqsad qilgan. Bu jihat asarning o'z davrida keng ommalashuviga sabab bo'lgan omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, Fitratning asari, har bir insonning o'z tarixini bilish va ulardan saboq olish zarurligini ta'kidlaydi.

Yana shu narsani ta'kidlab o'tish zarurki, risolani o'qigan kitobxon asar yakuniga yetmagan degan xulosaga keladi. Albatta savol tug'iladi, asar rostan ham yakunlanmaganmi?, yoki asarni qolgan qismi bizgacha yetib kelmaganmi? Bu savol hanuzgacha o'z javobini topgani yoq.

## **XULOSA.**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Muxtasar islom tarixi” Fitratning Islom dini va uning tarixi haqidagi chuqur bilim va tushunchalarini aks ettiruvchi asar bo'lib, u musulmon ota bobolarimizga mustabid tuzum davrida milliy o'zlikni

anglashida diniy va tarixiy ma'lumotlarni sodda va aniq shaklda yetkazishni maqsad qilgan. Ushbu asar Fitratning milliy uyg'onish harakatiga qo'shgan hissasining bir qismi sifatida, Islomning nafaqat diniy, balki ijtimoiy va madaniy jihatlarini ham yoritib, o'z o'quvchilariga yuksak ma'naviyat va madaniyatga erishish yo'lida diniy merosni qadrlash va o'rganishni o'rgatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2017 yil. 124-bet
2. Hamidulla Boltaboyev. Abdurauf Fitrat. –Toshkent.: “Yoshlar nashriyot uyi”. 2022 yil. 3-bet
3. Фитрат А. Танланган асарлар: 6-жилдлик. 5-жилд. – Тошкент.: Маънавият, 2010 йил. 36-bet
4. Абдурауф Фитрат. Мухтасар ислом тарихи(сўзбоши муал. ва таржимон Ҳ.Болтабоев). –Т.: «Янги аср авлоди», 2004
5. Абдулла Авлоний. Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи Ислом(нашрга тайёрловчи, изоҳ. ва сўнгсўз муал. Р. Баракаев). –Т.: «ТИУ» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2008
6. Абдурауф Фитрат. Мухтасар ислом тарихи(сўзбоши муал. ва таржимон Ҳ.Болтабоев). –Т.: «Янги аср авлоди», 2004

## YAPON TILIDAGI ようだ VA らしい BIRLIKLARINING SEMANTIK TAHLILI

**M.X. Umarova**

UzDJTU kata o'qituvchisi

**Y.A. Sabirova**

UzDJTU magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ona tilisi boshqa bo'lgan yapon tili o'rganuvchilarining til grammatikasini o'rganishdagi qiyinchiliklarini inobatga olib, oddiy misollar orqali o'quvchiga tushunarli bo'lishini nazarda tutgan holda yapon tilidagi bir biriga ma'no jihatidan o'xshash bo'lgan ようだ [yo:da] va らしい [rashii] birliklarining semantik tahlilini o'z ichiga oladi. Bu birliklar taxminlar ifodalanishida o'zaro farqlanib, biri subyektiv kuzatishlarga, ikkinchisi esa bilvosita manbalarga asoslangan taxminni bildiradi. Bunga qo'shimcha ravishda ushbu konstruksiyar taxminlardan tashqari yana boshqa ma'nolarda qo'llanilishi va ishlatilish qoidalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** yapon tili, ようだ, らしい, semantik tahlil, o'xshatish, taqqoslash, taxminni ifodalash, konstruksiya, til, grammatika.

### АННОТАЦИЯ

Данная статья включает в себя семантический анализ схожих по значению японских выражений ようだ [yo:da] и らしい [rashii], принимая во внимание трудности изучения грамматики японского языка для студентов, чей родной язык отличается. Статья направлена на то, чтобы сделать материал доступным и понятным для читателя с использованием простых примеров. Эти выражения различаются в передаче предположений: одно основывается на субъективных наблюдениях, в то время как другое — на косвенных источниках информации. Кроме того, рассматриваются другие значения и правила использования этих конструкций, помимо выражения предположений.

**Ключевые слова:** японский язык, ようだ, らしい, семантический анализ, сравнение, выражение предположений, конструкция, язык, грамматика.

### ABSTRACT

This article includes a semantic analysis of the Japanese expressions ようだ [yo:da] and らしい [rashii], which are similar in meaning, taking into account the challenges faced by learners whose native language is different from Japanese. The goal is to make the content understandable to readers by using simple examples.

*These expressions differ in how they convey assumptions: one is based on subjective observations, while the other is based on indirect sources of information. Additionally, the article explores other meanings and usage rules of these constructions beyond assumption-making.*

**Key words:** *Japanese language, ようだ, らしい, semantic analysis, comparison, expression of assumptions, construction, language, grammar.*

## KIRISH

Yaponiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik doirasida yapon tili o‘rganilishi va madaniy aloqalar alohida o‘rin tutadi. O‘zbekistonda yapon tiliga bo‘lgan qiziqish va yapon madaniyatiga e‘tibor yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa davlatlar o‘rtasidagi strategik hamkorlikning bir qismi hisoblanadi. Yaponiyadan kelayotgan texnologik, iqtisodiy va madaniy yordam bilan bir qatorda, yapon tilini o‘rganish va o‘rgatish sohasidagi bitimlar va dasturlar ham kengayib bormoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning yapon tili va madaniyatiga bo‘lgan e‘tibori O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash yo‘lida katta ahamiyatga ega. 2019-yilda Yaponiyaga qilgan tashrifi davomida u quyidagicha fikr bildirgan edi: “Yapon tilini o‘rganish O‘zbekiston yoshlari uchun katta imkoniyatlar ochadi. Yapon tili orqali nafaqat madaniyatlararo muloqot mustahkamlanadi, balki innovatsiyalar va texnologiyalar sohasida ham yangi yutuqlarga erishiladi.”<sup>84</sup> Prezidentning ushbu so‘zlari yapon tilini o‘rganishga davlat miqyosida e‘tibor berilayotganidan dalolatdir. Ushbu hamkorlik natijasida o‘zbekistonlik yoshlar Yaponiyada ta‘lim olish va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shunday ekan biz yoshlar ushbu imkoniyatlardan samarali foydalangan holda yapon tilini chuqurroq o‘rganishimiz hamda Grammatik birliklar va iboralarni o‘z ona tilimizdek tahlil qila olishimiz lozim. Bu borada bir nechta tadqiqotchilar izlanishlar olib borishgan. Jumladan Kazuaki Shimura “Modality and Evidentiality in Japanese: A Study of Yo:da and Rashii” (2020) – Bu tadqiqotda Shimura [yo:da] va [rashii] birliklarining modal va dalillovchi (evidential) xususiyatlarini o‘rganadi. Natsuko Tsujimura “An Introduction to Japanese Linguistics” (2013) – Ushbu kitobda yapon tilining semantikasi va sintaksisi keng yoritilgan bo‘lib, [yo:da] va [rashii] kabi birliklarning ishlatilishi ham tahlil qilinadi. Satoru Saito “The Semantics of Modal Particles in Japanese: A Pragmatic Approach” (2018); Akmal Saidov “O‘zbek va Yapon Tillari Modal Birliklarining Semantik Qiyosiy Tahlili” (2021); Anna Wierzbicka “Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Japanese and Other

<sup>84</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil Yaponiyaga qilgan tashrifidagi so‘zlagan nutqi.  
<https://kun.uz/uz/news/2019.12.17>



Languages” (1992) – Ushbu tadqiqotlarda ham modal birliklar va turli tillarning madaniy va kognitiv jihatlari o‘rganilgan. Quyida shu izlanishlar asnosida bir-biriga o‘xshash bo‘lgan ようだ [yo:da] va らしい [rashii] birliklarining semantik jihatdan qanday farqlanishi va ularning yapon tilida ishlatilish xususiyatlariga kengroq to‘xtalamiz.

Yapon tilida muloqotning murakkabligini aks ettiruvchi juda ko‘p grammatik birliklar mavjud bo‘lib, ular orasida ようだ [yo:da] va らしい [rashii] birliklari ko‘pincha ajratib ko‘rsatiladi. Ushbu birliklar aniqlik darajasini, mulohazakorlikni va ma'lumotning manbasiga ishonchni, taxmin qilish, o‘xshashlik va tabiatga xos xususiyatlarni ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Har ikkala birlik ham ko‘pincha taxminiy so‘zlashuvda ishlatiladi, lekin ularning ishlatilish o‘rni va darajalari farqlanadi.<sup>85</sup>

### 1. ようだ [yo:da] birligining ma’no turlari va ishlatilishi

ようだ birligi ko‘proq vizual, akustik yoki umumiy kuzatishga asoslangan taxminlar uchun ishlatiladi. Bu birlik, kuzatuvchi tomonidan ko‘rilgan yoki tajriba qilingan biror narsaga asoslanib, natijada biror xulosaga kelish uchun ishlatiladi.<sup>86</sup>

➤ **Tashqi ko‘rinish va kuzatishlarga asoslangan taxminlar:** Biror narsaning shunday ko‘rinayotganini bildiradi, ya’ni gapiruvchi bu ma’lumotni o‘zining bevosita kuzatuvlari orqali olganini ifodalaydi. Misol:

(1) 彼は疲れている**ようだ**。

[Kare wa tsukarete iru **yo:da** ]

(U charchagan+**ga o‘xshaydi.**)

Ushbu jumlada yo:da birligi gapiruvchining subyektiv kuzatuv asosida taxmin qilingan holatni ifodalaydi. Gapiruvchi bevosita charchoq belgilari (masalan, yuz ifodasi yoki tananing hatti-harakati) orqali xulosaga keladi.

➤ **Bilvosita dalillarga asoslangan taxmin:** Bu yerda gapiruvchi bilvosita ko‘rsatmalar yoki dalillarga asoslangan holda taxmin qilmoqda, lekin hali to‘liq ishonch bilan ayta olmaydi. Misol:

(2) 雨が降った**ようだ**。

[Ame ga futta **yo:da** ]

(Yomg‘ir yog‘gan+**ga o‘xshaydi.**)

Gapiruvchi yomg‘irning izlarini ko‘rib (masalan, nam yer), ammo o‘z ko‘zi bilan yog‘ayotganini ko‘rmagan holda taxmin qilmoqda.

<sup>85</sup> Shibatani, Masayoshi. The Languages of Japan. Cambridge University Press, 1990.

<sup>86</sup> 松本節子 (Matsumoto Setsuko), 「日本語の文法」 2003.

➤ **O'xshashlik yoki taqqoslash:** shaxs yoki predmet qandaydir narsaga o'xshash degan ma'noda qo'llaniladi. Bu holatda ようだ [yo:da] ko'proq taqqoslash yoki metafora sifatida ishlatiladi.

(3) 彼はライオンの**ようだ**。

[Kare wa raion no **yo:da**]

(U sher+**ga o'xshaydi**.)

Bu jumlada "u" shaxs sherga o'xshatilmoqda, ya'ni gapiruvchi uni kuchli yoki qo'rqinchli deb tasvirlamoqda. Bu taqqoslash bo'lib, ma'no sherning baquvvat tabiati bilan bog'langan.

## 2. らしい[rashii] birligining ma'no turlari va ishlatilishi

らしい birligi ko'pincha kimdir yoki nimaningdir tabiatiga, xususiyatiga oid taxminlar va eshitgan gaplar orqali hosil qilingan tushunchalarni ifodalaydi. らしい [rashii] ようだ [yo:da] bilan solishtirganda shaxsiy kuzatuvga emas, balki umumiy tushunchalarga ko'proq tayanadi. U quyidagi asosiy ma'nolarga ega:<sup>87</sup>

➤ **Sifat yoki xarakterni ifodalash:** らしい[rashii] shaxs yoki narsaning kutilgan va odatdagi holatga mos bo'lgan asl tabiatini, eng aniq va odatiy xususiyatlarini ifodalaydi. Kimdir o'z tabiatiga mos ravishda harakat qilsa, u "rashii" bilan ifodalanadi.

(4) 彼は男**らしい**。

[kare wa otoko **rashii**.]

(U erkak+**ga o'xshaydi**.) (ya'ni, erkaklarga xos).

Bu jumlada らしい [rashii] kimningdir erkaklarga xos harakatlari yoki xarakterini ifodalaydi, ya'ni bu shaxs erkaklarga xos tarzda xulq-atvor qilmoqda.

➤ **Mish-mish yoki qayerdandir eshitgan ma'lumotlarga asoslangan xulosa:**

らしい [rashii] boshqa shaxslardan eshitgan ma'lumot yoki mish-mishlarga asoslanib xulosa chiqarishni bildiradi. Bu holda gapiruvchi shaxsan ko'rmagan, lekin o'zgalar orqali eshitgan narsaga asoslanadi.

(5) 彼は結婚する**らしい**。

[Kare wa kekkon suru **rashii**.]

(U uylanyapti, **shekilli**.)

(6) 明日雨が降る**らしい**。

[Ashita ame ga furu **rashii**.]

(Ertaga yomg'ir yog'ar **ekan**.)

<sup>87</sup> Tsujimura, Natsuko. An Introduction to Japanese Linguistics. Wiley-Blackwell, 2007.

(5) gapda gapiruvchi eshitganiga asoslanib, taxmin qilmoqda. Ehtimol, u bu ma'lumotni bevosita ko'rmagan yoki ishonchli manbadan bilmagan.

(6) gapda esa boshqa manbalardan (masalan, ob-havo ma'lumotidan) kelgan xabar asosida taxmin qilmoqda.

➤ **Voqealar xususiyatini ifodalash:** らしい [rashii] narsalar yoki hodisalarning ularning tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlarini ifodalaydi.

(7) 今日は春らしい天気だ。

[Kyou wa haru rashii tenki da.]

(Bugun bahor+ga xos ob-havo.)

Mazkur gapda bahorning odatiy ob-havo xususiyatlari ifodalanmoqda. Ya'ni, havo iliq va qulay bo'lishi bahorga xos deb hisoblanadi.

### 3. ようだ [yo:da] va らしい [rashii] birliklarining o'zaro farqlari<sup>88</sup>

Xususiyat	ようだ	らしい
<i>Ma'lumot manbasi</i>	Shaxsiy kuzatuvga asoslangan	Bilvosita eshitgan yoki boshqa manbalardan olingan
<i>Aniqlik darajasi</i>	Subyektiv taxmin	Ishonchliroq va umumiy qarash
<i>Qo'llanilishi</i>	Kuzatishga asoslangan taxmin, bilvosita dalillar	O'zgalardan eshitilgan ma'lumot va umumiy xulosalar
<i>Misol</i>	彼は先生のようだ。 [kare wa sensei no yo:da.] (u o'qituvchiga o'xshaydi)	彼は先生らしい。 [kare wa sensei rashii] (u o'qituvchi emish.)

## XULOSA

Umumiy qilib aytganda ようだ [yo:da] va らしい [rashii] birliklari taxminlarni ifodalashda ishlatiladigan ikki muhim grammatika birligi hisoblanadi. Ularning asosiy farqi taxminning manbasida va subyektivlik darajasida yotadi. ようだ [yo:da] shaxsiy kuzatuvga asoslangan subyektiv taxmini bildirsa, らしい [rashii] esa ko'proq tashqi manbaga tayanilgan, bilvosita ma'lumotlarga asoslangan taxmini anglatadi. Shu sababli, ushbu birliklarni to'g'ri ishlatish yapon tilida muloqotning aniq va mazmunli bo'lishida katta ahamiyatga ega. Ushbu birliklarining semantik va grammatik tahlili nafaqat yapon tilini o'rganish jarayonida, balki tilshunoslikdagi keng qamrovli tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu konstruksiyalar o'xshash va bir-biriga yaqin bo'lgan ma'nolarni ifodalasada, ularning to'g'ri qo'llanilishi va farqlanishi yapon tili tizimining nozik tomonlarini ochib beradi.

<sup>88</sup> Nitta, Yoshio. The Semantic Structure of Japanese Modalities. Kurosio Publishers, 1991.

Kelajakda ushbu sohada qilinishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar bir necha yo'nalishni qamrab oladi: Yapon tilidagi ma'nolarni aniqlashda kognitiv tilshunoslikning qo'llanishi; Til o'rgatuvchi texnologiyalarni qo'llash; O'quv materiallarini takomillashtirish; Sotsiolingvistik va pragmatik jihatlarni o'rganish. Kelajakdagi tadqiqotlarda ushbu birliklar orqali yapon tilining murakkab grammatik va semantik tizimini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu nafaqat yapon tili o'rganish jarayonini yaxshilaydi, balki til o'rgatuvchi texnologiyalarning rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kazuaki Shimura "Modality and Evidentiality in Japanese: A Study of 'Yōda' and 'Rashii'" (2020)
2. Matsumoto, Setsuko. 日本語の文法 (Nihongo no Bunpō). くろしお出版, 2003.
3. Nitta, Yoshio. Modality and Grammar: Comparative Syntax and Semantics in Japanese. John Benjamins Publishing, 2000.
4. Nitta, Yoshio. The Semantic Structure of Japanese Modalities. Kurosio Publishers, 1991.
5. Makino, Seiichi & Tsutsui, Michio "A Dictionary of Basic Japanese Grammar"
6. Satoru Saito "The Semantics of Modal Particles in Japanese: A Pragmatic Approach" (2018).

## TEACHING GRAMMAR FOR INTERMEDIATE LEVEL LEARNERS WITH MODERN TECHNOLOGIES

**Kakharova Nafisa**

Interfaculty department of the English language

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, senior teacher

### ABSTRACT

*The article considers that the use of modern technologies in teaching grammar is a modern requirement. In general, technology plays a key role in all areas. Grammar plays a crucial role in teaching English and is relevant to all aspects of the language. However, some students find grammar boring, difficult and confusing. The teacher should be a creator, actor and initiator in the classroom, constantly looking for ways to attract the attention of students and make lessons exciting. Creativity is important because it allows the teacher to introduce new styles and techniques in each lesson.*

**Keywords:** *grammar accuracy, grammar topics, modern equipment, grammar instruction, teacher's creativity*

The use of modern technologies in teaching grammar is a modern requirement. In general, technology plays a key role in all areas. Now let's look at how easy it is for teachers to teach grammar using modern technology.

First of all, let's get acquainted with various grammar programs. We analyze them by selecting two main types: Grammar (British Council) and Elementary English programs.

Grammar (British Council) - Improve your grammar skills with Learn English Grammar, the number one educational mobile app the best way to improve your English grammar at home, on the move, anywhere! Designed for all learners, whether you're a beginner or an expert! Practice sample questions at the Elementary and Intermediate level. Download more questions at Beginner, Elementary, Intermediate and Advanced levels. Each set of questions covers 12 grammar topics, with over 20 activities per topic.

Achieve better grammar accuracy. Forget about repetitive multiple choice questions that only help you recognize correct grammar. Answer over 1000 practice questions across 10 unique activity types, including fill-in-the-blanks, reordering words and labeling, to achieve better grammar accuracy.

Interactive practice activities help you learn. Drag and drop answers and rearrange words for a fun way of learning. Each question uses text, images and audio



to keep things interesting. Test yourself at the end of every level to check your understanding. <https://learnenglish.britishcouncil.org/>.

Elementary English – Best App for learning English Grammar from developers of Visual Vocabulary App. This English grammar app covers 100+ popular grammar topics using simple explanations, many examples, and colorful pictures. All grammar topics are available for free. This English Grammar app is perfect for Beginner and Intermediate levels. More than 2000 grammar questions will gradually improve your skills. When you complete your English test you see which aspects of English grammar you are good at and which of them require more practice. Our language app is the best way to study English. Minimalist design and clear user interface make it easy to test your grammar skills. Whether you are an English language learner or a native English speaker, this English grammar app will help you with the structure of English. By improving your English grammar, your writing and speaking will both improve. Entrance exams require the possession of extensive English knowledge. This grammar app can be helpful for improving required skills for exams like CAT, IELTS, TOEFL, GRE, GMAT, MAT, XAT, NMAT, SNAP, SAT, SSC, CGL, Bank PO, CET, GATE, IAS, IBPS, IES, UPSC, JKSSB, PTE, DU JAT, TOEIC, NIFT, JBPS, CFE.

Features: -100+ Grammar topics - 2000+ English exercises - 20 English grammar units in every test - simple explanations - colorful pictures - total score and progress analytics - clear user interface - beautiful design - no internet connection required Syllabus covered in English Grammar app: - Nouns, - Pronouns, and possessives, - Prepositions, - Adjectives and adverbs, - Present tenses, - Past tenses, - Present perfect, - Future forms, - Modal verbs, - Conditionals, - Sentence patterns, - Questions, - Verbs, - Reported Speech, - Relative clauses, - Linking words, - Passive forms, - Words that go together, - Forming words, - Spoken English And also if you want your students understand you easily , you can use from online websites for teaching grammar. Primarily, you must give some information you students offline, and then you can use from some kind of websites during the lesson, for your students understanding completely. For example, Study.com in this website students can take a lesson and also can do some exercises according to this lesson. English Grammar 101 this website gives 16 different grammatical chapters, your students can learn grammar rules online, each grammatical topics regarding a specific category of grammar. All websites and educational apps are now helping teachers to make their lessons easier, more convenient and more productive. In today's modern education system, of course, teachers can achieve lesson effectiveness by using a modern learning system. If every teacher uses modern equipment in the classroom, regardless

of the field, he will be able to attract the attention and attention of students to the lesson. Using such diagrams helps students visualize and understand the order and arrangement of adjectives in a sentence. It provides a clear and concise representation of the grammatical rule, making it easier for students to grasp the concept. Other effective and fun methods of teaching grammar to intermediate learners include:

Learning through writing: Encouraging students to practice grammar through writing activities, such as composing sentences, paragraphs, or short stories. This allows them to apply the grammar rules in a creative and practical manner.

Learning through literature: Using literary texts, such as stories, poems, or excerpts from books, to explore and analyze grammar concepts. This approach connects grammar with meaningful and engaging content, making it more enjoyable for students.

Inductive method: Presenting students with examples and guiding them to discover the grammar rule or pattern on their own. This approach promotes active learning and encourages students to make connections and understand the underlying principles of grammar.

Deductive method: Providing students with explicit grammar rules and explanations before engaging in practice activities. This method is useful for clarifying specific grammar concepts and rules.

Interactive method: Incorporating interactive activities, such as grammar games, group discussions, role plays, or online quizzes, to actively engage students in the learning process. These activities make grammar lessons more interactive, enjoyable, and memorable. By employing a variety of techniques, teachers can create a dynamic and engaging learning environment for their intermediate learners. This helps to alleviate the potential boredom associated with learning grammar and ensures that students can grasp the concepts more easily and quickly.

Teachers use language in their classes. These are often divided into two types. Receptive skill is a term used for reading and listening, skills where meaning is extracted from the discourse. Productive skill is the term for speaking and writing skills, where students actually have to produce language themselves. There are some skills they don't use in real life. We might also want to question a once commonly-held view that receptive skills are somehow passive, whereas production skills are in some way more active. When we speak or write we'll understand that language activation occurs. Reader uses listening and reading for language activation. We used to understand the texts as we have seen or heard. But in any case, whether we are reading or speaking we often mix what we are doing with other skills, as we shall see below.

## **CONCLUSION**

All in all, grammar plays a crucial role in teaching English and is relevant to every aspect of the language. However, it is true that some students find grammar

boring, difficult, and confusing. This is especially the case with older students who may not pay much attention to learning grammar, which can be a significant shortcoming.

To address these challenges, teachers need to learn how to teach grammar in a fast, easy, effective, and understandable way. They should consider various methods and approaches to make grammar lessons engaging and accessible to students. Teaching grammar requires careful attention from the teacher, who should focus on each rule and constantly monitor students' attitudes towards the topic.

Lessons can be organized based on different teaching styles and approaches to grammar instruction. The teacher's teaching skills are crucial in effectively implementing these methods. The teacher should be the creator, actor, and initiator in the classroom, constantly seeking ways to capture students' attention and make the lessons engaging. Creativity is essential because it allows the teacher to introduce new styles and techniques in every lesson. The teacher should approach each lesson as a journalist, covering the topic thoroughly.

European scholars emphasize the importance of qualified grammar teachers who can effectively utilize modern teaching methods and directions. The teacher should adapt their teaching to the students' age and individual requirements. Teaching grammar to middle school students is not overly difficult, as they already have some basic language skills. However, the teacher's ability to explain complex topics in a simplified manner and provide opportunities for application and consolidation is essential.

Being creative in teaching grammar is important because grammar rules themselves are interesting and unchanging. Intermediate learners often prefer to create something on their own rather than relying solely on the teacher's creativity. Providing students with opportunities to create, such as puzzles, games, and explanations, can enhance their knowledge and make the learning process more enjoyable. By incorporating such activities, teachers can increase the efficiency of students' knowledge.

When students have a solid understanding of grammar, it becomes the root of their language skills. Vocabulary serves as the stem, and the different aspects of language (writing, reading, speaking, listening) become the branches. The smaller elements, like leaves, contribute to the overall language proficiency. By imparting perfect knowledge, style, and approaches in grammar instruction, teachers empower their students to apply these skills in all aspects of language, enabling them to communicate effectively and fluently.

Ultimately, the teacher's role is to facilitate the learning process and guide students towards proficiency by making grammar lessons interesting, accessible, and applicable.

## **THE LIST OF USED OF LITERATURE**

### **I. Works of the President of the Republic of Uzbekistan**

1. Mirziyoev Sh.M. Together we will build a free and prosperous, democratic country of Uzbekistan. - Tashkent: Uzbekistan, 2016. - 56 p.
2. Mirziyoev Sh.M. We will resolutely continue our path of national development and raise it to a new level. - Tashkent: Uzbekistan, 2017. -592p.
3. II. Laws, Decrees and Decisions of the Republic of Uzbekistan
4. Law of the Republic of Uzbekistan "On Education". T. 2020;
5. Republic of Uzbekistan "National Personnel Training Program". T. 1997;

### **Internet resources**

1. [https://www.researchgate.net/figure/Statistics-about-English-language-teachers-in-Republic-of-Kosovo\\_fig1\\_318535363](https://www.researchgate.net/figure/Statistics-about-English-language-teachers-in-Republic-of-Kosovo_fig1_318535363)
2. <https://coursera.org/specialization/arizona-state-university-tesol>
3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Motivatio>
4. <https://dictionary.cambridge.org/>

### **Scopus based resources**

1. Jalolova Sh.M., Bolibekova M.M., Nematov O.N., Tangriyev V.A. The Importance of Modern Methods and Technologies in Learning English. Journal of Critical Reviews ISSN 2394-5125 –Kuala Lumpur, Malaysia, 2020. Volume 7, Issue 6. – P. 143-148. Scopus - (<http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.06.28>) ,  
H-index: <https://www.scopus.com/authid/detail.uri?authorId=57216655639>  
<https://www.scopus.com/authid/detail.uri?authorId=57216655639>
2. Nebila Dhieb-Henia, Evaluating the effectiveness of metacognitive strategy training for reading research articles in an ESP context, English for Specific Purposes, Volume 22, Issue 4, 2003, Pages 387-417, ISSN 0889-4906,  
[https://doi.org/10.1016/S0889-4906\(03\)00017-6](https://doi.org/10.1016/S0889-4906(03)00017-6)  
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0889490603000176>

## **A PERSONALITY-ORIENTED APPROACH TO TEACHING A FOREIGN LANGUAGE**

**Xidirova Zuhra Pulatovna**

Interfaculty department of the English language  
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, teacher

### **ABSTRACT**

*The relevance of this work is due to the conditions associated with the change in the higher education system. As well as the growing needs of society for highly qualified specialists in engineering specialties. The use of a personality-oriented approach in foreign language lessons is one of the main problems in modern education. Great attention should be paid to creating an educational environment at the university in which further socialization of the individual takes place and professionally oriented skills of each student are developed. Each student is a person with their own needs and desires. The teacher must take into account all aspects of a personality-oriented approach when developing and implementing a foreign language course.*

**Keywords:** *personality-oriented approach, personality, student, assessment, method.*

Modern society is undergoing changes in economic, social and cultural terms, these transformations could not but affect both the education system in general and higher education in particular. In this regard, the pedagogy of technogenic civilization is being changed to the "humanitarian pedagogy of anthropogenic civilization", which is based on the idea of such an organization of the learning and upbringing process in which "students become subjects of their own development". In the field of education in general and foreign language teaching in particular, personality-oriented learning is a priority. Teaching can be focused either on a teacher-centered or student-centered approach, or on a combination of both approaches. For centuries, the teacher has been the main link and leader of the entire learning process, preference has been given to teacher-oriented learning. The current system of teaching a foreign language is mostly traditional, although teachers are often required to use methods of a personality-oriented approach. For the most part, the curricula of the discipline "Foreign Language" are adopted by the educational and methodological department of universities, which describes the content, schedule, learning conditions, attendance policy and assessment process. The specifics of teaching a foreign language are not taken into account. A strict directive is prescribed to the teacher, which makes it clear



what the teacher is responsible for. These decisions, however, are for the teacher an initiative from above. For example, teachers are given a prescribed course with a certain number of hours, and they are required to complete it in a predetermined and predetermined period of time, usually a semester. If the course is not completed within the allotted time period, teachers must explain the reasons for not completing the curriculum. Thus, on the one hand, the teacher is asked to use student-oriented methods, and on the other hand, they are forced not to do so, limiting their freedom of choice and instructing them to cover certain topics of the curriculum and do it in a certain time. In these conditions, in order for a future specialist to become competitively capable, it is necessary to change authoritarianism to humanity, and the traditional learning process, where the teacher plays the main role, to learning, where the student is at the center. However, it should be clarified that this transition is possible only if all specialists at all levels of the educational system participate in it. Education professionals and management bodies should review the nature of the current system and curricula at all levels, whether in schools or higher education institutions, and make the necessary changes in order to ensure that learning is centered on the student.

- Teachers should be competent enough to use a person-centered approach.
- One of the main tasks of a teacher should be to encourage and motivate students to work hard and actively participate in classes.
- Teachers should start using teaching methods, within the framework of a personality-oriented approach. Students, in turn, should be ready to change their role in the learning process.
- Teachers should try to adapt the teaching materials used to the requirements of a personality-oriented approach. They should begin to apply student-centered assessment methods that, when used correctly, show an objective picture of student performance. The teacher should use various means (mass media, social networks, IT technologies) to maintain stable motivation among students when learning a foreign language. The lack of motivation to study is observed among a large number of students. This should be taken seriously by all stakeholders: administrators, educators, education policy makers, teachers, parents and the whole society. Everyone should take action to find out the causes of this problem. It is necessary to conduct research to identify the pitfalls of the entire education system in relation to a personality-oriented approach. A more comprehensive study is needed, covering a larger number of students, to learn about the state of implementation of the personality-oriented approach. Other difficulties associated with the whole system are the assessment and rigorous curriculum, the large number of students in the group, etc. All of this creates serious obstacles to making real progress in student-centered learning.

The current assessment system creates problems. Since teaching is still traditional, so is assessment too. The main task of traditional teaching methods is formal control, which is carried out using a single testing method. Traditional tests measure declarative knowledge: memorization of vocabulary and grammatical phenomena, correctness of translation of texts of various types. They do not necessarily relate to the depth of understanding or skills that students have acquired. Student assessment using student-centered methods is different and measures different skills and abilities such as thinking, critical and creative, deep understanding of the material, etc. Traditional tests are not suitable for a person-centered approach. New methods should be used, such as self-assessment or peer review using journals, files, blog diaries, and projects. Student-centered learning means that both students and teachers must have a sufficient number of resources ready and available from which both sides of the learning process can choose, give assignments, organize events, and so on. This is not always possible. In addition, well-equipped and modern libraries are not yet available everywhere. Thus, the current situation in education is such that the administrative system must follow an already defined program, where the developer or teacher is given little freedom of choice. When an enthusiastic teacher tries to implement student-centered methods or use them, he faces difficulties such as having to follow a prescribed program and finish it at a set time or teach certain topics not of his choice. Learning using a person-centered approach requires a small number of students in groups so that the teacher can use various types of group work. This does not apply to most situations where the average number of students in a class can reach twenty to twenty-five students.

## **REFERENCES**

1. Dubsikh A. I., Kisel O. V., Bosik G. A. Development of foreign-language professional and communicative competence of students through a differentiated approach // *Modern problems of science and education*. 2019. No. 4. P. 85.
2. Dubsikh A. I., Zerkina N. N. The role of a teacher in the process of teaching a professionally oriented foreign language in a technical university // *Modern trends in the development of the education system*. Cheboksary: Publishing House "Wednesday", 2018. pp. 108-110.
3. Kemerovo N. S. Designing an individual trajectory of teaching a foreign language at a technical university [Electronic resource]. Working hours: [http://vestnik.tspu.ru/index.php?option=com\\_content&task=view&id=2291&Itemid=276](http://vestnik.tspu.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=2291&Itemid=276)

4. Kisel O.V., Dubskikh A.I., Butova A.V., Zerkina N.N. Problems related to teaching vocabulary to students of non-linguistic specialties of the Moscow State Technical University named after G.I. Nosov // *Modern high-tech technologies*. 2019. No. 7. pp. 185-189.
5. Lomakina E. A., Dubskikh A. I., Kisel O. V., Butova A.V., Potrikeeve E. S. Differentiated approach as a factor in the development of professional communicative competence of Amazonia Investigation students. 2019. Vol. 8. No. 19. pp. 287-297
6. Romanova M. V., Romanov E. P., Varfolomeeva T. N., Lomakina E. A., Chernova E. V., Ruban K. A. Intellectual game application for control of students' knowledge // *Materials of the 2016 conference on information technologies in science, management, social sphere and medicine*, ISBN (online): 978-94-6252-196-4. included in the ACSR series, ISSN 2352-538X, volume 51 pages. 298–302.

## MOTIVES FOR IMPROVING THE PEDAGOGICAL COMPETENCE OF TEACHERS OF FOREIGN LANGUAGES

**Pidaeva Shahnoza Bahtiyarovna**

Interfaculty department of the English language

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, senior teacher

### ANNOTATION

*The article emphasizes the importance of pedagogical training of students of philology, the formation of pedagogical competence at the university. In this regard, the motives for improving the pedagogical competence of teachers and teachers of a foreign language are considered. Possession of a high level of linguistic competence does not mean that the same level of pedagogical competence is inherent in a teacher or a university teacher. The authors analyzed the differences in motivation for improving the pedagogical competence of teachers and teachers of foreign languages. The article also pays attention to the motives for choosing a profession and the orientation of teachers and lecturers.*

**Keywords:** *teachers and teachers of a foreign language, pedagogical competence, motives.*

Modern conditions have significantly changed and complicated the activity of a teacher. The requirements for the organization of the modern educational process, for the development of students are no less significant than the requirements for proficiency in the subject. Accordingly, the requirements for the professional training of future teachers are also increasing. It should take into account and use the research results of existing teachers and teachers.

Elektrokimyoviy usullardan foydalangan holda elektron va elektr uskunalari chiqindilaridan metallarni ajratib olishning bevosita va bilvosita strategiyalari tadqiq qilindi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida metallarni oksidlash va qaytarishda, ularni chiqindilardan ajratib olishda elektr tokidan foydalanish mumkin. Ba'zi olimlar elektrod turi, tok zichligi va ta'sir vaqtining jarayon samaradorligiga ta'sirini o'rganganlar. Mobil telefonlarning maydalangan



bosma platalari nitrat- xlorid kislota bilan tanlab eritilgan va  $6 \text{ A/dm}^2$  tok zichligida elektroliz qilingan, 93% eritilgan Cu (5g/l) 90 daqiqadan so'ng elektr cho'ktirilgan. Katod bilan ilashish yo'qolganligi sababli katod o'lchamini kattalashtirish tavsiya qilingan. Boshqa olimlar xlorning anod hosil bo'lishiga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi reaksiya sifatida elektr hosil qilgan xlordan metallarni tanlab eritish va keyinchalik grafitdan yasalgan katodda metallarni elektr bilan cho'ktirish uchun foydalanishgan. Fogarasi va boshqa olimlar tomonidan elektron va elektr uskunalari chiqindi filtratidan rekuperatsiyani ikki xil elektrokimyoviy usullarda qiyosiy ekologik baholash amalga oshirilgan. Ikkala elektrokimyoviy jarayon ham bosma platalar chiqindilaridan misni eritishni va bir vaqtning o'zida olingan tanlab eritish eritmasidan katodli elektr cho'ktirishni o'z ichiga olgan. Birinchi jarayonda sulfatli muhitda to'g'ridan to'g'ri elektrokimyoviy oksidlashdan foydalanilgan bo'lsa, ikkinchi jarayonda Cu ning erishi xloridli muhitda  $\text{Fe}^{3+}/\text{Fe}^{2+}$  oksidlanish-qaytarilish bug'ining bilvosita elektrokimyoviy oksidlanishi orqali sodir bo'lgan. Oxirgi jarayon atrof-muhitga kamroq ta'sir ko'rsatishi aniqlangan, chunki regeneratsiyalangan  $\text{Fe}^{3+}/\text{Fe}^{2+}$  eritmasidan yangi reagent qo'shmasdan keyingi ishlov berish uchun foydalanish mumkin sanaladi [7].

Yaroqlilik muddati tugagan elektron mahsulotlar nafaqat sog'liq uchun xavfli, balki daromad keltirishi mumkinligi sababli, bu elektron chiqindilarni boshqa maishiy chiqindilar bilan birga utilizatsiya qilmaslik uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lishi mumkin. Elektron chiqindilarni uloqtirmaslik kerakligi haqida keng jamoatchilikning xabardorligini oshirish kerak. Shuningdek, har bir shahar va qishloqda elektron chiqindilarni yig'ish punktlari tashkil etilishi kerak. Shundagina ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali natijaga erishish mumkinligini ta'kidlash lozim.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Самадов А.У., Хужамов У.У. Буронов А.Б. Исследование технологии переработки электронного лома // Научный журнал Universum: Технические науки 2021. - № 10(91) - Москва.
2. Самадов А.У., Усманов Ш.А., Хужамов У.У. Электронный лом как дополнительный источник получения цветных металлов // X Международная научно-практическая конференция «Проблемы, перспективы и инновационный подход эффективной переработки минерального сырья и техногенных отходов» - 2021. - Алмалык.
3. Погосян А.Т. Разработка оптимальной технико-экономической структуры переработки электронного лома: автореф. дис. канд. техн. наук / А.Т. Погосян.. - Москва, 2007. - 24 с.

4. Самадов А.У., Хужамов У.У. Анализ способов переработки электронного лома // Научный журнал Universum: Технические науки 2023. - № 1-2(106) - Москва.
5. А.У. Самадов, Н.Б. Хужакулов, А.Р. Арипов, У.У. Хужамов Гидрометаллургик заводларнинг чиқинди омборини геотехнологик тадқиқоти методологияси // Ўзбекистон кончилиқ хабарномаси. – Навоий, 2019.
6. А.А. Саидахмедов, А.С. Хасанов, У.У. Хужамов Исследование интенсификации процесса фильтрации растворов выщелачивания при переработке техногенных отходов // Universum: технические науки, 2020.
7. Р.А. Хамидов, У.У. Хужамов, Т.Т. Сирожов, Ш.Н. Туробов Исследования эффективной технологии извлечения цветных металлов из электронного лома // XI International correspondence scientific specialized conference «International scientific review of the technical sciences, mathematics and computer science» Бостон, 12-13 февраль, 2019.

## **ОБУЧЕНИЕ ОПТИМИЗАЦИИ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДЛЯ МИКРОКОНТРОЛЛЕРОВ: СРЕДА FLOWCODE И ПРАКТИЧЕСКИЕ ИНСТРУМЕНТЫ.**

**Очиллов Муроджон Ашуркулович**

Доцент Каршинского инженерно-экономического института  
[ochilov22@mail.ru](mailto:ochilov22@mail.ru)

**Жураев Абурайхон Холикулович**

Старший преподаватель Каршинского инженерно-экономического института  
[aburayxonjurayev75@gmail.com](mailto:aburayxonjurayev75@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматриваются подходы к обучению оптимизации программного обеспечения для микроконтроллеров с использованием среды визуального программирования Flowcode. Представлены основные принципы работы с микроконтроллерами, методы минимизации использования памяти и повышения быстродействия программ. Освещаются практические аспекты, такие как управление реле, взаимодействие с датчиками (DHT и LDR) и использование ротарного энкодера. Особое внимание уделяется созданию энергоэффективных и функциональных систем на базе Flowcode. В заключение предлагается ряд практических проектов для закрепления знаний, включая интеграцию микроконтроллеров с IoT-платформами.*

**Ключевые слова:** Микроконтроллеры, Flowcode, визуальное программирование, оптимизация программного обеспечения, управление реле, датчики DHT и LDR, ротарный энкодер, энергоэффективность, IoT, практические проекты.

### **ABSTRACT**

*The article discusses approaches to teaching software optimization for microcontrollers using the visual programming environment Flowcode. The basic principles of working with microcontrollers, methods for minimizing memory use and increasing program performance are presented. Practical aspects are covered such as relay control, interaction with sensors (DHT and LDR) and the use of a rotary encoder. Particular attention is paid to creating energy-efficient and functional systems based on Flowcode. In conclusion, a number of practical projects are proposed to consolidate knowledge, including the integration of microcontrollers with IoT platforms*

**Keywords:** *Microcontrollers, Flowcode, Visual Programming, Software Optimization, Relay Control, DHT and LDR Sensors, Rotary Encoder, Energy Efficiency, IoT, Hands-On Projects.*

## **ВВЕДЕНИЕ**

Компания Microchip предлагает стартовый набор разработчика PICkit 2 Debug Express, который включает демонстрационную плату с 44-выводным микроконтроллером и один из самых компактных программаторов в мире. Этот комплект разработан для того, чтобы предоставить пользователям все необходимые инструменты для изучения и освоения работы с микроконтроллерами серии PIC. Компактные размеры программатора делают его удобным для повседневного использования, а функциональность набора позволяет реализовывать как простейшие проекты, так и более сложные задачи, требующие программирования на низком уровне.

Важным дополнением к этому является среда разработки Flowcode, созданная компанией Matrix Multimedia. Flowcode предоставляет пользователю графический интерфейс, интуитивно понятный даже для начинающих разработчиков. Благодаря поддержке разработки программ в виде блок-схем, пользователи могут сосредоточиться на функциональности проекта, не углубляясь в сложные технические детали программирования [1, 2]. Это делает Flowcode мощным инструментом для обучения, ускоряя процесс разработки и снижая вероятность ошибок.

## **ОБСУЖДЕНИЕ**

Данная статья ориентирована на начинающих разработчиков, которые только начинают свой путь в изучении микроконтроллеров. Многие из них сталкиваются с необходимостью изучать сложные профессиональные среды, такие как MPLAB IDE, которые, хотя и предоставляют широкий функционал, могут быть сложными для понимания. Flowcode, напротив, предлагает упрощённый подход к проектированию, что делает её идеальной для первых шагов в этой области.

Одним из ключевых преимуществ Flowcode является её совместимость с различными микроконтроллерами, включая популярные модели серии PIC. Среда позволяет быстро разрабатывать и тестировать проекты, экономя время и силы разработчиков [2, 3]. Это особенно важно для образовательных целей, где время на изучение инструментов ограничено, а основной упор делается на практическое применение знаний.

Для демонстрации возможностей набора разработчика PICkit 2 и среды Flowcode мы рассмотрим построение простейшего проекта управления светодиодом. Такой проект позволяет на практике изучить базовые операции, такие как:

- Инициализация портов микроконтроллера;
- Работа с логическими уровнями;
- Управление периферийными устройствами;
- Использование блоков в Flowcode для реализации базовой логики.

В процессе создания проекта мы изучим не только основы работы с микроконтроллерами, но и принципы взаимодействия между программным обеспечением и аппаратной частью. С помощью Flowcode разработчик сможет создавать блок-схемы, которые автоматически преобразуются в программный код, минимизируя вероятность синтаксических ошибок. Это делает процесс обучения более продуктивным и увлекательным.


## РЕЗУЛЬТАТЫ

Обычно создание проекта начинается с планирования последовательности действий (алгоритма), которые должен выполнять микроконтроллер. В среде разработки Flowcode для данных целей предусмотрен наглядный интерфейс по созданию блок-схемы программы.

В качестве первого примера разработаем систему, которая будет приводить в действие один из двух режимов «моргания» светодиодами в соответствии с положением внешнего переключателя. Алгоритм программы приведен на рис. 1.

Шаг второй — реализация блок-схемы в Flowcode

- Этапы реализации блок-схемы в Flowcode (рис. 2):
- Запустите программу Flowcode.










Рис. 2. Блок-схема, созданная во Flowcode


- Нажмите ОК, когда откроется окно Reminder Screen.
- Создайте новый проект (Create a new FlowCode flowchart).
- Выберите в качестве контроллера (Choose a target) PIC16F887 (он

установлен на демонстрационной плате 44-pin Demo Board комплекта PICkit 2 Debug Express).

- Откройте новую рабочую область (workspace) с названием “Main”.
- Добавьте необходимые блоки для блок-схемы. Для этого наведите курсор на нужную иконку в левой панели и, удерживая левую кнопку мыши, перетащите ее в рабочую область.
- Добавьте необходимые элементы (светодиоды LED, переключатель). Для этого щелкните мышью по иконке соответствующего элемента в верхней панели.
- В выпадающем меню окна LEDs («Светодиоды») выберите пункт Component Connections. В меню Connect to Port («Соединение с портом») выберите PORT D (светодиоды демонстрационной платы 44-pin Demo Board выведены на PORT D). Данный диалог должен принять вид, который представлен на рис. 3.




**Рис. 3.** Выпадающее меню окна LEDs («Светодиоды»)



**Рис. 4.** Выпадающее меню окна Switches («Переключатели»)

• В выпадающем меню окна Switches («Переключатели») выберите пункт Properties («Свойства») и укажите количество кнопок— 1 (рис. 4).

• В пункте Connect to Port выпадающего меню выберите PORT B (кнопка на плате 44-pin Demo Board подключена к PORT B, бит 0). Диалог Connect to Port примет вид, который представлен на рис. 5.




**Рис. 5.** Диалоговое окно Connect to Port


### **Настройка элементов блок-схемы**

Теперь настало время настройки элементов, составляющих блок-схему. Для настройки элемента нужно дважды щелкнуть на его иконке мышью. Для удобства чтения блок-схемы в строке Display name напишите короткое пояснение о функциональном назначении блока.

#### ***Loop («Основной цикл»)***



**Рис. 6.** Основной цикл




**Рис. 7.** Добавление новой переменной с названием Input

### *Input*

Для начала необходимо создать переменную, отвечающую за информацию о положении кнопки. Щелкните по Variables («Переменные»), чтобы открыть диалог Variables Manager. Щелкните по Add New Variable («Добавить новую переменную») и добавьте новую переменную с названием Input (рис. 7).


Нажмите ОК. Вернувшись в окно Variables Manager, нажмите кнопку Use Variable. Вернувшись в окно Properties, выберите PORT B, Single Bit (рис. 8).



**Рис. 8.** Настройка новой переменной в окне Variables Manager

### *Decision*


В окне Properties нажмите на Variables и выберите Input, затем щелкните на Use Variable. Дайте название (Display name) — “Is switch pressed?” (рис. 9).



**Рис. 9.** Введение названия для новой переменной

### ***Ветка No/Output***

Чтобы зажечь крайние светодиоды, необходимо выставить в единицу биты 0 и 7 порта PORT D, то есть ввести в PORT D число 129 ( $27+20$ ) (рис. 10).




**Рис. 10.** Введение в PORT D числа 129

### ***Ветка Yes /***

#### ***Первый блок Output***

Чтобы зажечь светодиоды с 0 по 3, необходимо ввести в PORT D число 15 ( $20+21+22+23$ ) (рис. 11).



**Рис. 11.** Введение в PORT D числа 15

### ***Оба блока Delay***

Длительность задержки может быть задана в миллисекундах и секундах.




Необходимо задать задержку в полсекунды (рис. 12).



**Рис. 12.** Задание длительности задержки

### ***Второй блок Output***


Чтобы зажечь светодиоды с 4 по 7, необходимо ввести в PORT D число 240 (24+25+26+27) (рис. 13).



**Рис. 13.** Введение в PORT D числа 240

Теперь блок-схема должна иметь вид, представленный на рис. 14.

Программа Flowcode предоставляет возможность проверить работу программы через симуляцию, что является ключевым этапом при разработке и тестировании алгоритмов. Симуляция доступна в двух режимах: непрерывная и пошаговая. В первом режиме программа выполняется на полной скорости, что позволяет быстро получить общий результат. Во втором режиме выполнение программы происходит поэтапно, блок за блоком, что полезно для более детального анализа каждого шага.



В обоих режимах на экране отображаются данные в окнах Variables и Call Stack, где можно наблюдать текущие значения всех переменных и состояния стека вызовов. В случае, когда симуляция запускается на полной скорости, данные в этих окнах обновляются не так часто, что позволяет ускорить процесс, но исключает подробный мониторинг переменных. Однако, если скорость симуляции ниже максимальной или выполнение программы идет пошагово, все изменения в переменных и стеке отображаются в реальном времени, обновляясь на каждой итерации. Это дает возможность более детально анализировать поведение программы, отслеживать изменения значений и выявлять потенциальные ошибки или неточности в логике работы алгоритмов.

Теперь посмотрим на симуляцию на полной скорости. Нажмите Run на панели инструментов. Используйте возможность остановки и продолжения работы программы (F5 или Go/Continue в меню Run). При этом можно увидеть текущие значения в окнах Variables и Call Stack, а также крайние свето-диоды (0-й и 7-й светятся). Щелкните по иконке кнопки и убедитесь, что светодиоды 0-3 моргают в противофазе со светодиодами 4-7. Программа работает

корректно.

Если вы не получили нужного результата, вернитесь к началу и повторите все заново.

### **Программирование PIC-контроллера**

Подготовительная часть закончена, вы получили полнофункциональную программу, работающую по заданному алгоритму. Выполните следующие инструкции для программирования контроллера:

- Подключите PICkit2 к ПК через USB.
- Подключите PICkit2 к демонстрационной плате 44-pin Demo Board.
- В меню Chip выберите пункт Compile to Chip (для компиляции необходимо сохранить созданную программу).
- Откроется окно Compile Messages, в котором отображается текущий прогресс. При программировании контроллера засветятся индикаторы Target и Busy на PICkit2. Когда программирование закончится, появится строка Finished, после чего следует нажать кнопку Close.
- Ваша программа должна запуститься. Светодиоды 0-3 должны мигать в противофазе со светодиодами 4-7. При нажатии кнопки должны светиться только светодиоды 0 и 7.

• Незаметно для пользователя программа Flowcode сформировала по графической блок-схеме C-файл и компилировала его в ассемблер. Полученный C- и asm-код можно просмотреть, выбрав в меню Chip соответственно команды “View C” и “View ASM”

либо просмотрев содержание файлов *progname.c* и *progname.asm* в папке, где сохранен данный проект.

### **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

В данной статье показано, как просто создать программу для микроконтроллера по заданному алгоритму с использованием среды Flowcode. Приведенный пример охватывает лишь небольшую часть функциональных возможностей этой платформы [4, 5]. Остались незатронутыми такие аспекты, как выполнение вычислительных операций, работа со строковыми переменными, создание пользовательских макросов, вставка пользовательского C-кода, а также взаимодействие с более сложными периферийными устройствами.

Для изучения этих возможностей Flowcode предлагает подробные справочные материалы, доступные в меню Help, которые помогают пользователям освоить новые инструменты и расширить свои знания.

Дополнительно среда поддерживает широкий набор библиотек, упрощающих внедрение сложных решений, таких как работа с коммуникационными интерфейсами (UART, SPI, I2C) и интеграция с IoT-платформами.

Использование Flowcode в образовательных и исследовательских целях способствует значительному упрощению процесса разработки программного обеспечения для микроконтроллеров [9, 10]. Это не только ускоряет реализацию проектов, но и повышает наглядность изучаемых материалов, что особенно важно для начинающих разработчиков.

Flowcode открывает возможности для создания как простых, так и сложных автоматизированных систем, интеграции с современными технологиями и оптимизации работы микроконтроллеров. Благодаря своей интуитивности и богатому функционалу, Flowcode является эффективным инструментом как для обучения, так и для профессионального использования.

### **ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА**

1. Flowcode User Guide. Official documentation from Matrix TSL. URL: [<https://www.matrixtsl.com>](<https://www.matrixtsl.com>)
2. Matrix TSL. Flowcode 8: Introduction to Flowcode. – Matrix Technology Solutions, 2020.
3. Mazidi, M. A., Naimi, S., & Naimi, S. The PIC Microcontroller and Embedded Systems Using Assembly and C for PIC18. – Pearson Education, 2016.
4. Barnett, R. H., Cox, L., & O'Cull, L. Embedded C Programming and the Atmel AVR. – Cengage Learning, 2012.
5. Волков, С. А. Микроконтроллеры в автоматизированных системах управления. – Москва: МИЭТ, 2019.
6. Malvino, A., & Bates, D. Electronic Principles. – McGraw-Hill Education, 2016.
7. Алиев, Т. А. Оптимизация программирования микроконтроллеров на языке С. – СПб: Питер, 2018.
8. Ponnusamy, S., & Thiagarajan, R. Optimization of Embedded System Design. – Springer, 2020.
9. Джонсон, С. Микроконтроллеры PIC: от новичка к профессионалу. – Москва: ДМК Пресс, 2020.
10. Palamar, R. IoT и микроконтроллеры: практическое руководство. – Москва: БХВ-Петербург, 2021.
11. Penfold, R. A. Practical PIC Projects. – Bernard Babani Publishing, 2017.
12. Google Scholar. Поиск по ключевым словам: "Flowcode", "PIC"

- microcontroller optimization", "Embedded systems programming". URL: [\[https://scholar.google.com\]](https://scholar.google.com)(<https://scholar.google.com>)
13. Спецификации микроконтроллеров семейства PIC. URL: [\[https://www.microchip.com\]](https://www.microchip.com)(<https://www.microchip.com>)
14. Ochilov, M. A., Juraev, F. D., Maxmatqulov, G. X., & Rahimov, A. M. (2020). Analysis of important factors in checking the optimality of an indeterminate adjuster in a closed system. *Journal of Critical Review*, 7(15), 1679-1684.
15. Jo'rayev, F. D. S., & Ochilov, M. A. (2023). Algorithms for multi-factory polynomial modeling of technological processes. *Chemical Technology, Control and Management*, 2023(1), 59-67./ <https://ijctcm.researchcommons.org/journal/vol2023/iss1/8/>.
16. Ashurkulovich, O. M., & Kholiqulovich, J. A. (2024). IMPLEMENTATION OF ROUTING ON A COMPUTER IN A CISCO PACKET TRACER ENVIRONMENT. *American Journal of Innovation in Science Research and Development*, 1(4), 36-43.
17. ОЧИЛОВ, М. А. (2023). РОЛЬ CISCO PACKET TRACER В МОДЕЛИРОВАНИИ И АНАЛИЗЕ СЕРВЕРНЫХ УСЛУГ В КЛИЕНТ-СЕРВЕРНЫХ СЕТЯХ. *Academic research in educational sciences*, 4(11), 275-286.
18. Dustmirzayevich, J. F., & Ashirkulovich, O. M. (2023). THE ROLE OF CISCO PACKET TRACER SOFTWARE IN STUDYING COMPUTER SYSTEMS AND NETWORKS. *PEDAGOGS*, 46(2), 17-27.
19. Ochilov, M. A. (2023). DESIGNING TECHNOLOGICAL PROCESS AUTOMATION SYSTEMS BASED ON SCADA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 1025-1032.
20. ЖУРАЕВ, А. (2020). Таълим тизимида педагогик дастурий воситаларни жорий этиш афзалликлари. *UNIVERSITETI XAVARLARI*, 1(1).
21. Жураев, А. Х., & Тожибоев, С. Ж. Ў. (2022). СИМУЛЯТОР ДАСТУРЛАРИДАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ФОЙДАЛАНИШ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 557-565.
22. Juraev, A. K., Jurayev, F. D., Eshkobilov, S. B., Ibragimov, B. S., & Norboev, O. N. (2023). Nonlinear control object identification problems: Methods and approaches. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 392, p. 02043). EDP Sciences.
23. Жураев, А. Х. (2022). ЭЛЕКТРОН ЎҚУВ ВА ДИДАКТИК МАТЕРИАЛЛАРНИ ЯРАТИШ ИМКОНИНИ БЕРУВЧИ ДАСТУРЛАР ТАХЛИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3(2), 572-577.



24. Xoliqulovich, J. A. (2023). THE USE OF MATLAB IN TEACHING THE PROCESS OF AUTOMATIC TEMPERATURE ADJUSTMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(2), 351-356.
25. Jurayev, A. K. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE TEACHING OF TECHNICAL SCIENCES. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(5), 842-850.

## ХАЙБАР АДАБИЙ МАКТАБИ ВАКИЛЛАРИ ИЖОДИДА РАНГЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ РАМЗЛАР

**С.Қорабоев,**

филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

### АННОТАЦИЯ

*Ушбу мақолада Хайбар адабий мактаби вакиллари ижодида ранглар билан боғлиқ рамзлар масаласи таҳлил қилинган. Шоирлар ижодида бадиийликни таъминлашда рамзларнинг қанчалик маҳорат билан қўлланилганига аҳамият қаратилган.*

**Калим сўзлар:** *рамз, ранглар билан боғлиқ рамзлар, рангларнинг пушту адабиётидаги маънолари масаласи.*

### ABSTRACT

*This article analyzes the issue of symbols related to colors in the work of representatives of the Khyber literary school. Attention is paid to the skillful use of symbols in ensuring artistic quality in the work of poets.*

**Keywords:** *symbol, symbols related to colors, the issue of the meaning of colors in Pashto literature.*

Барча халқлар адабиётида бўлгани каби ранг билан боғлиқ рамзлар пушту адабиётида ҳам қадимдан қўлланилган. Бу XX аср назмий адабиётининг асосини ташкил этган Хайбар адабий мактаби вакиллари ижодида ҳам ўз аксини топди. Улар аксарият ҳолларда умуминсоний тушунчалар билан мувофиқ келади. Масалан, оқ ранг – яхшилик, қора ранг – ёмонлик, ёвузлик, мотам ранги ҳисобланган. Бу рангларни инсоният онгида шундай рамз сифатида шаклланишини ўзбек олимаси Насиба Жуматова қуйидагича тушунтиради: “Инсон онги ҳали мураккаб, мавҳум тушунчаларни яратиш иқтидорига эга бўлмай туриб, оддий эмприк тасаввурларни рамзлаштиришга интилган. Масалан, инсон дастлаб ёруғлик ва қоронғуликни фарқлаган. Кундузи у овда ўзгалар билан жанг олиб боришда турли қийинчиликларга учрамаган. Сабаби, у ўз атрофини яхши кўра олган, турган жойининг жуғрофий тузилишини тўла идрок эта олган. Тун қоронғисида эса бунинг бутунлай акси бўлган ва кўп зарар кўрган. Мана шунинг учун у қоронғиликдан кўрққан. Бу кўрқиш унинг онгида қора рангни ёвузлик ва даҳшат ранги сифатида

шакллантиришга олиб келган. Ёруғликни эса эзгулик, қулайлик ва фаровонлик сифатида оқ рангда мужассамлаштирган.”<sup>93</sup>

Хайбар адабий мактаби вакиллари ижодида ҳам оқ ва қора ранглар аксарият ҳолларда мос равишда ижобий ва салбий рамзий маъноларда ишлатилган.

Қора ранг билан боғлиқ ассоциацияларда афғон ва ўзбек тилларида кўпгина умумийлик мавжуд. Масалан, “қора кун”, “қора бозор”, “бахтиқаро” ва “қораламоқ” (“айбламоқ” маъносида) тушунчалари худди шу шаклда ва шу маънода пашту тилида ҳам қўлланилади.

Қора рангни ўзбек тилида салбий маънода қўлланилишига мисол сифатида Алишер Навоийнинг қуйидаги шеърини келтириш мумкин. Унда қора ранг очкўзлик ортидан келадиган шармандалик сифатида талқин қилинган.

Насиби анинг бир аёқ ош эрур бас,  
Агар ганжи Қорун эрур муддаоси.  
Бировким бўлур бир аёқ ош учун қул,  
Юзига керактур қозоннинг қароси.<sup>94</sup>

Шу каби кўпгина халқларда ёвузлик, даҳшат, тун, мотам ва ўлимни ифодалаган қора ранги Хайбар адабий мактаби шеърлятида буларга қўшимча тарзда айрилик, хижрон туни, беморлик, йўқчилик, омадсизлик, тушкунлик, қалб сири каби тушунчаларни ифодалаб келди.

Калим Шинворийнинг қуйидаги байтида эса қора ранг мавҳумликни ифодалаб келадиганини кўраимиз.

د مکان او د زمان په توره شپه کښي  
راته ښکاری صباڼی په ژوندانه<sup>95</sup>

Таржима: “Замон ва маконнинг қора (қоронғи) тунида

Менга эртанги ҳаётни (келажакни) кўрсатасан”.

Оқ ранг афғонларда кўп маъноларга эга: масалан, “спин” – “оқ”, “тозаллик”, “кумуш”, “қор”, “пә спина вразд” – “куппа-кундузи” (сўзма-сўз таржимаси “оқ кундузида”), “спинбахр” – “оқ денгиз”(дан ташқари “ўрта ер денгизи” маъносини ҳам беради), “спинхулай” – “кўса”, “соқолсиз” (сўзма-сўз таржимаси “оқ оғиз”), “спиндрўбай” – “хурматли” (сўзма-сўз таржимаси “оқ погонли”), “спинзар” – “кумуш” (сўзма-сўз таржимаси “оқ олтин”), “спинзрб” – “софдил” (сўзма-сўз таржимаси “оқ юрак”). Хайбар адабий мактаби вакиллари ижодида эса оқ ранг эзгулик, поклик, бахт-саодат шодлик, соғлик, тинчлик,

<sup>93</sup> Жуматова Насиба. Ҳозирги ўзбек шеърлятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар. – Т., 2000. – Б. 13.

<sup>94</sup> Сотиболдиева Сарвиноз. Фоний ғазалларининг бадийяти (Фонийнинг Амир Хусрав Деҳлавий ғазалларига ёзган татаббуълари асосида). – Т., 2001. – Б. 37. (номз дис 138 бет)

<sup>95</sup> کليم شينوارى ، د خيبر ليکوال ، پښور ۱۹۸۸ ، ۱۴۷ مخ

мусаффолик, бахтиёрлик, қувонч, чирой, кадр-қиммат ва барҳаётлик маъноларини ифодалади. Мурод Шинворийнинг қуйидаги байтида эса оқ ранг чиройни ифодалаб келаётганини кўрамиз.

په سپين مخ وهي خالونه كله يو خوا كله بل خوا  
راکوي په زره داغونه كله يو خوا كله بل خوا<sup>96</sup>

Таржима: “Оппоқ юзингга хол кўясан, бир бу томонга, бир у томонга  
Юракка доғлар берасан, бир бу томонга, бир у томонга”.

Оқ ва қора ранглар биргаликда эса “сир” тушунчасини ифодалайди. Ҳамзанинг қуйидаги байтида “ҳаётнинг мазмун-моҳиятини” иборасини шу ранглар билан берган.

د ژوند په تور او سپين خبر نه شومه  
خدای زده چې ماته ورځو شپو څه ووي<sup>97</sup>

Таржима: “Ҳаётнинг қора ва оқ (моҳият)ига тушунолмадим  
Худо билади, кун ва тунлар менга нима деяётир”.

Қизил ранг қадимдан қон ва жанг маъноларини аниқлаган. Лекин ўрта аср шарқ адабиётида уни ғалаба ранги сифатида ҳам талқин қилишган. Ўзбек фольклоршуноси Ш.Турдимов эса қизил ранг иссиқлик, севги, аёл, олтин ва бойлик каби маъноларни аниқлатади, деган хулосага келади.<sup>98</sup> Шулар орасидан қизил рангининг олтин маъносига эътибор қаратмоқчимиз. Маълумки, кўпгина тиллар каби ўзбек тилида ҳам олтин сариқ ранг билан сифатланади. Лекин пашту тилида олтин қизил ранг билан сифатланади ва олтин “зар” ёки “срээр” – “қизил олтин” дейилади.

Мумтоз шеъриятда жанг, қон, ғалаба маъноларини ифодалаган қизил ранг Хайбар адабий мактаби вакиллари ижодида эҳтирос, баркамоллик ва куч-қувват тушунчаларини ўзида мужассамлади. Шу билан бирга ибодат, ҳаё ва уят маъноларини ифодалаб келди. Ҳамза Шинворийнинг қуйидаги шеърида бунга гувоҳ бўламиз.

هيڅ نه يم خبر چې د نظر په گستاخي مي  
زور دی د خيا که له غضبه ئي مخ سور دی<sup>99</sup>

Таржима: “Билмадим, менинг қарашимда қандай густоҳлик бор  
Агар ғазабдан юзлари қизарган бўлса, ҳаёси зўр экан”.

Булардан ташқари ранглар траферет (қолиплаган) рамзий образлар (شین خال) яшил хол – гўзал ёр маъносига, دسترگو توره қўзнинг қораси – кадрли инсон, توره شپه қора тун – ғам образи сифатида ҳам қўлланди.

<sup>96</sup> مراد شينواری، آئينه، پېښور - ۲۰۱۲ م، ۷۸ مخ

<sup>97</sup> د حمزه شينواری ديوان، پېښور - ۲۰۱۳، ۵۴۵ مخ

<sup>98</sup> Турдимов Ш. Ранго-ранг дунё. - Т., 1987. “Ёшлик” 8-сон. -- Б. 60-62.

<sup>99</sup> د حمزه شينواری ديوان، پېښور - ۲۰۱۳، ۵۶۶ مخ

Рамзларсиз ҳеч қандай поэтик фикр том маънодаги шеърый асарга айланмайди. Шоирлар ижодидаги юксак бадиийликни таъминлашда рамзларнинг қанчалик маҳорат билан қўлланганлиги ҳам катта аҳамиятга эга. Мурод Шинворий қуйидаги ғазали ҳам ўзига хос оҳангдорлиги билан ажралиб туради.

په سپين مخ وهي خالونه كله يو خوا كله بل خوا  
راکوي په زره داغونه كله يو خوا كله بل خوا  
په دوو زرونو کښي شم پاتي ستا کوڅي ته چې نزدې شم  
اخلم ځکه قدمونه كله يو خوا كله بل خوا

...

كله يو خوا كله بل خوا ته چې گوري آئيني ته  
زره زما وهي توپونه كله يو خوا كله بل خوا  
ستا په هجر کښي ژوندون مي د ازغو په بستره شو  
بدلوم ځکه اړخونه كله يو خوا كله بل خوا<sup>100</sup>

Таржима: “Оппоқ юзингга хол қўясан, бир бу томонга, бир у томонга,  
Юрагимга доғлар берасан, бир бу томонга, бир у томонга.  
Сенинг қўчангга яқинлашганимда юрагим ўйнаб қолади,  
Шунинг учун қадам ташлайман, бир бу томонга, бир у томонга.

...

Ойинада қараганингда, бир бу томонга, бир у томонга,  
Менинг юрагим уради, бир бу томонда, бир у томонда.  
Сенинг ҳажрингда менинг ҳаётим тиканли тўшак бўлди,  
Шунинг учун тўлғонаман, бир бу томонга, бир у томонга”.

Худди шундай китобхон қалбига таъсир эта оладиган юксак нафосат билан ёзилган, кучли ҳис-туйғуларга бой шеър Хайбар Афридий тахаллуси билан шеър ёзган Саид Аҳмаджон ижодидаги қуйидаги шеърда учратиш мумкин. Хайбар Афридийнинг ушбу ғазали ўзининг коса тагида нимкоса қабалидаги қочиримлари билан машҳур.

هر شئی وی په پرده کښي لکه ساز وی په پرده کښي  
حیران مشه لتون کره گوره راز وی په پرده کښي<sup>101</sup>  
[ҳар шайи вий нә парда ке, ләка соз вий нә парда ке]  
[ҳайрон маша, латун кра, гўра роз вий нә парда ке]

Таржима: “Ҳамма нарса бўлади парда ортида, ҳаммаси яхшидек бўлади парда ортида,  
Ҳайрон бўлма, қидир, қара! Сир бўлади парда ортида”.

مراد شينوارى، آئينه، پيښور - ۲۰۱۲ م، ۷۸ مخ 100  
کليم شنوارى، د خيبر ليکوال، پيښور - ۱۹۸۸، ۴۷ مخ 101



Кўриб турганимиздек, шоир ғазалнинг матласидаёқ шеърни кульминацион даражага олиб чиқа олган. Биринчи мисрадаёқ шоир ўқувчини огоҳликка чорлайди: “парда ортида ҳамма нарса бўлиши мумкин, лекин парда бизни тўсиб тургани учун биз парда ортида нима борлигидан беҳабармиз. Ҳар қандай ҳолатда ҳам, яъни, парда ортида нимага дуч келсанг ҳам, ҳайрон бўлма! Шоир ўз фикрини тадрижий давом эттиради – унинг фикрича, кўришнинг ўзи ҳам камлик қилади. Чунки у ерда сир бор. Шунинг учун ўқувчини қидиришга, яна изланишга ундайди.

په انار كېنى كوركى وى ، كوركى وى په پرده كېنى  
كه وه ئى سپرى پانه سره پياز وى په پرده كېنى

[*пә анор ке кўракай вий, кўракай вий пә парда ке*]

[*ка ва йе спарай пона срә пиёз вий пә парда ке*]

Таржима: “Анорда хонача бўлади, хонача бўлади парда ортида,  
Агар у дарахт барги бўлса ҳам, қизил пиёз бўлади парда ортида”.

Анор хоначалардан ташкил топганини шоир пардага ҳам қўллаш орқали чиройли ўхшатиш қилган бўлса, иккинчи томондан парда ортида ҳам хонача бор, дейиш орқали муаллиф парда ортидаги ваъзият анча мураккаблигини билдирмоқда. Чунки كوركى لول [*кўракай ларал*] – “хонача бор” ибораси пашту тилида “мураккаблик бор”, “қийинчилик, машаққат бор” маъносини ҳам ифодалайди. Масалан, دا كور هم كوركى لرى [*до кўр ҳам кўракай лари*]<sup>102</sup> ибораси “бу уйда ҳам хонача бор”, тарзида эмас, “бу ишнинг ҳам ўзига яраша машаққати бор” шаклида таржима қилинади.

Дарахт баргини парда ортида қизил пиёзга айланишини таъкидлаш биринчи мисрадаги фикримизни исботлагандек бўлади. Шу ўринда “қизил пиёз” тушунчасига ҳам ойдинлик киритиб ўтиш жоиз. Афғон ошхонасида оқ ва қизил пиёзнинг ўз ишлатилиш ўрни бор. Оқ пиёз унчалик аччиқ ҳисобланмайди, шунинг учун у, асосан, салатлар тайёрлашда ишлатилади. Қизил пиёз эса оқ пиёзга нисбатан аччиқ бўлганлиги учун салатга қўшилмайди, у овқат тайёрлашда қўлланилади.

مجاز باندى كه پوهى شي خقيقت باندى به پوهى شي  
كه وغرومى سترگى نو مجاز وى په پرده كېنى<sup>103</sup>

[*мажоз бонди ка пўхе ше, ҳақиқат бонде бә пўхе ше*]

[*ка вузуруми стәрги, ну мажоз вий пә парда ке*]

Таржима: “Мажозга тушунсанг, ҳақиқатга ҳам тушунасан  
Агар кўзларингни каттароқ очсанг, мажоз бор парда ортида”.

<sup>102</sup> Асланов М. Г. Пушту-русский словарь. – М., 1985. – С. 702.

<sup>103</sup> کليم شنوارى ، د خيبر ليکوال ، پېښور – ۱۹۸۸ ، ۴۷ مخ

رسوا كرى خان پخپله چه مئین كرى فریادونه  
د مینې محبت خو تل آغازوی په پرده كښې

[расво крий дзон пхпъла, че маян крий фарёдуна]

[да мене муҳаббат хў тал, оғозави нә парда ке]

Таржима: “Ошиқ фарёд урса, ўзини шарманда қилади,  
Севги-муҳаббат ҳам доим бошланади парда ортида”.

نازونه په ظاهره څه شېدل غونډى لگيرى

قربان له پوهه ياره چه يې ناز وى په پرده كښې<sup>104</sup>

[нозуна нә зоҳира ҷа шадал гунди лагежи]

[қурбон лә нўҳа ёра че йе ноз вий нә парда ке]

Таржима: “Очиқ қилинган ноз-карашма бачкана (қўпол) кўринади,  
Нозлари парда ортида бўлган ақлли ёрга қурбон бўл”.

Ғазалнинг кейинги байтларида шоир юрагида қўрқув бор одам пардага яқинлаша олмайди, чунки парда ортида дунёнинг барча сир-асрори яширинган, деган фикрни ифодалайди.

Ўзбек адабиётшунос олими О.Шарафиддинов таъкидлаганидек, “Ҳақиқий шеър нимаси биландир мусиқага ўхшайди – унда мазмун теранлиги билан бирга китобхон қалбига таъсир эта оладиган юксак нафосат бўлиши керак.”<sup>105</sup> Кўриб турганимиздек, мазкур ғазалларда ранглар билан боғлиқ рамзлар шеърнинг оҳангдорлигини шакллантиришда ўз аҳамиятига эга.

Хайбар адабий мактаби вакиллари ижодида ранглар билан боғлиқ рамзларнинг бадиий санъатлар билан биргаликда ишлатилганини ҳам кўришимиз мумкин. Қуйидаги мисолда Лаълзода Нозир Шинворий - “кун” ва شپه - “тун” каби антоним сўзларни ишлатиш орқали тазод санъатини вужудга келтирган.

خو دى تور د تورو سترگو شو راپورى

چه رنا ورخ ئي حما په سترگو شپه كره<sup>106</sup>

Таржима: “Сенинг қоп-қора кўзларинг,

Ёруғ кунни менинг кўзимга тун қилди”.

Шеърда ёрнинг қоп-қора кўзлари қоронғу тун рамзи сифатида ишлатилган.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Хайбар адабий мактаби вакиллари мумтоз адабиётда асрлар давомида яшаб келаётган рамзлар доирасини кенгайтirdилар. Айниқса, ранглар билан боғлиқ рамзлар яна янги маънолар касб эта бошлади. Хайбар адабий мактабининг анъанавий шеъринг жанрларида

<sup>104</sup> Ўша манба. – Б. 47.

<sup>105</sup> Шарафиддинов О. Адабиёт-ҳаёт дарслиги. – Т., 1991. – Б. 93.

<sup>106</sup> مراد شنوارى ، د خبير ادب ، پېښور – ۱۹۵۸، ۱۹۴، مخ

иждод қилган вакиллари пашту адабиётидаги мумтоз рамзларини замон руҳи билан бойитиб, уларнинг нафақат сақланиб қолишига, балки янада кенг тарқалишига сабабчи бўлдилар. Шу билан бирга улар мумтоз рамзларни қўллашда ўзларининг юксак бадиий маҳоратга эга эканликларини кўрсатдилар.

**UDK 37.06**

## **QURILISH CHIZMACHILIGI FANINI O'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**K.S.Niyazov**

UrDU "San'at" kafedrası katta o'qituvchisi

**S.Q.Yoqubboyeva**

UrDPI, "Muhandistlik grafikasi va dizayn nazariyasi"  
mutahassisligi 1-bosqich magistranti

### **ANNOTATSIYA:**

*Bizning xududimizga qurilish madaniyati juda qadimdan kirib kelgan. Arxeologik qazilmalar natijalariga asoslangan holda, miloddan avval mustahkam qal'a va shaharlar qurilganligi va turli kanallar barpo qilinib, ulardan foydalangan holda yuqori hosil olinganligini guvohi bo'lamiz. Bu borada zamonaviy va badiiy ta'lim sistemasining rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi ushbu yangi maqsad va vazifalarni ta'kidlab o'tishimiz muhimdir.*

**Kalit so'zlar:** *Yer osti metrolar, yer usti sport komplekslari, milliy banklar, ko'priklar, bozor, akademik litsey, kollej, axborot texnologiyalar, «integratsion media», «Klipcha fikrlash», arxitektura, «elektron muhit», multimediya proeksion ekran.*

### **АННОТАЦИЯ:**

*Строительная культура пришла на нашу территорию очень давно. По результатам археологических раскопок мы можем стать свидетелями того, что еще до Рождества Христова строились крепости и города, строились различные каналы и с их помощью получали высокие урожаи. В связи с этим важно подчеркнуть эти новые цели и задачи, которые определяют направления развития современной системы художественного образования.*

**Ключевые слова:** *Метрополитен, наземные спортивные комплексы, национальные банки, мосты, рынок, академический лицей, колледж, информационные технологии, «интегрированные медиа», «клиповое мышление», архитектура, «электронная среда», мультимедийный проекционный экран.*

### **ANNOTATION**

*The culture of construction has existed in our region for ages. According to the results of archaeological excavations, it is clear that strong fortresses and cities were built before our era, various canals were built, and high yields were obtained as*

a result of their use. In this regard, it is necessary to emphasize these new goals and objectives that determine the development directions of the modern and artistic education system.

**Key words:** *Underground metros, above-ground sports complexes, national banks, bridges, market, academic lyceum, college, information technologies, "integrative media", "clip thinking", architecture, "electronic environment", multimedia projection screen.*

### **KIRISH**

Kunimizda Respublikamizning barcha hududlarida ko'plab qurilishlar olib borilmoqda. Yangi turli ko'rinishdagi binolar qatorida ajdodlarimiz barpo etgan tarixiy yodgorliklar ta'mirlanmoqda, mutloq buzilib ketganlari qaytadan tiklanmoqda. Bunday qurilishlar ko'lami yangi yer osti metrolarimiz, yer usti sport komplekslari, milliy banklarimiz, ko'priklar, bozor, akademik litsey, kollejlarni nafaqat shaharlarimizning ko'rki, balki dunyo miqyosida Respublikamizning rivojlanayotgan davlatlari qatoriga qo'shilishiga kafolat beradigan omillardan biri hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Zamonaviy taraqqiyot, globallashuv insoniyat ongiga ko'plab yangicha hayot tarzi qonun-qoidalarini olib kirmoqda. Ko'plab ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko'rsatyaptiki, hozirgi zamon talablarini chizmachilik fanini muammolari bilan tanishtirishda XXI asr bo'sag'asida axborotlarning haddan ziyod ko'payganligi, ta'lim sohasining butunlay o'zgartirishni talab etmoqda. Dunyo bo'yicha elektron madaniyat, jaxon texnologik timsollari va belgilari zamonida yashayotgan talabani qabul qilish qobiliyati tubdan o'zgardi. O'qituvchi talaba bilan mukammal muloqotda bo'lishi uchun esa zamonaviy metodika va yangi texnologik bilimlar majmui bilan qurollangan bo'lishi talab etiladi. Shunday texnologiyalardan biri o'qituvchining ish jarayonida «integratsion media» bilim sistemasi hisoblanadi. Talabani «elektron muhit»da o'zini qanday his qilish, uni o'qish tajribasi axborotlarni tahlil qilish va qayta ishlash har xil manba'lardan olinayotgan ma'lumotlarni tanqidiy anglash hozirgi zamon ta'limi oldidagi muhim vazifalardan biridir, desak yanglishmaymiz.

Bu borada zamonaviy badiiy ta'lim sistemasining rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi ushbu yangi maqsad va vazifalarni ta'kidlab o'tishimiz muhimdir:

- talabalarining zamonaviy ijtimoiy-madaniy muxitga moslashuvi;
- o'quvchi-yoshlarning umumiy ta'lim mazmunini anglashda va yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida zamonaviy umumta'lim va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;
- talabalarining bilim darajasini kengaytiruvchi mashg'ulotlar tizimida media bilim texnologiyalarini integratsiyalash.



Ayni sharoitda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, hamda qurilish chizmalarining o'ziga xos xususiyatlari, bino turlari va qurilish norma hamda yo'riqnomalar haqida qisqacha ma'lumotlarga bevosita aloqasi bo'lgan bir qator an'anaviy va zamonaviy arxitektura kasblarni egallashda eng malakali mutaxassislarni tayyorlashga imkon beruvchi ta'lim sohasining muayyan maqsadda shakllanish usullarini aniqlash, o'ta muhim masalaga aylanmoqda.

### **TAHLIL**

Hozirgi kunda madaniyat yuksalishining asosiy tendentsiyalaridan biri – bu madaniyat turlarining bir-biriga o'tishi va singib ketishiga bo'lgan intilishdir. Bu jarayonga ommaviy axborot vositalarining keng tarqalishi katta ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot qabul qilish jarayoni tezlashgani esa albatta bor haqiqatdir. Hatto «Klipcha fikrlash» termini ham paydo bo'lgan. Ma'lumot olishning eng ommaviy manbasi – televidenie hisoblanadi. U orqali turli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin, shu jumladan arxitektura haqida ham. Televizion axborotlarni uzatishning o'ziga xosligi uning «diskret»ligida ko'rinadi. Shuning uchun inson ongida umumlashtirish va sintez qilish qobiliyati o'sib bormoqda. Asosiysi esa turfa odam mutanosibligini anglay olish, uni yaxlit tasvirda ko'ra bilish va eshitish orqali keng tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Shuning natijasida zamonaviy talabaning assotsiativ fikrlash, tasavvur qilish, badiiy tarzda his etish holati rivojlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- fikrdagi ochiq aytilmagan ma'noni «o'qiy bilish»;
- axborot oqimini tanqidiy qabul qilishni shakllantirish va undagi shaxsiy ma'noga ega bo'lgan qismini ajrata olish;
- Qurilish chizmachiligi tilini tushunish zamonaviy arxitekturani o'tmish tajribasi orqali anglash shakllantirishga suyanadi.

Masalan bu holat ijodiy tasvirlash bino muxitini yaratib, ifodalash jarayoni vositasida amalga oshadi.

Multimediya prezentatsiyasi – o'z tarkibiga animatsiya, audio va videofragmentlarni jamlagan elektron diafilmlar, interaktiv elementlar (foydalanuvchi xatti-harakatlariga reaksiya) – namoyish etilayotgan materiallar taqdimotining eng keng tarqalgan turidir.

Kompyuter yordamida ham, multimediya proeksion ekranlar yordamida ham multimediya proeksion ekranlari yordamida ham multimediya prezentatsiyalarini yangi mavzuning va darsning xohlagan bosqichida ishlata bilish maqsadga muvofiqdir.

«PowerPoint» dastur imkoniyatlaridan foydalanish ham o'z navbatida, darslarni qiziqarli sermazmun tashkil etishga yordam beradi. Masalan:

- arxitektura – qurilish chizmalarini chizish va o'qish darslarida;
- Qurilish chizmachiligining binolar (turar joy, maktab, korxonalar, kasalxonalar va boshqalar) chizmalarini chizish, tanishtirish vaqtida;
- asosiy konstruktiv elementlar: poydevor, devor, ustunlar, zinalar, to'siqlar, tom, derazalar, eshiklar kabi nazariy ma'lumotlarni va amaliy ko'nikmalarini o'rganishda.

### **XULOSA**

Yuqorida aytib o'tilgan darslarni tashkil etish o'qituvchidan ham kompyuter texnikasidan foydalana olishni talab etadi. Natijada u talabaning fanga bo'lgan e'tiborini, qiziqishini o'stira oladi.

Darslarda prezentatsiya usullaridan foydalanish, an'anaviy usulda o'tadigan darslarga nisbatan quyidagi yutuqlarga ega bo'ladi:

1. Axborotni eshitibgina qolmasdan, balki uni ko'rish imkoniyatini ta'minlaydi.
2. Mazmuni ketma-ketlik tarzida ko'rish va idrok qilishni ta'minlaydi.
3. Illyustratsiyani barcha talabalarga yetkazish bilan birgalikda, ekrandagi tasvirning mayda detallarigacha ko'rish imkoniyatini va badiiy asarning qiymatini to'liq ochib beradi.
4. Yangi axborot texnologiyalari o'quv jarayonini tezlashtiradi.

Yuqorida biz ko'rsatib o'tgan yangicha dars o'tish tamoyillari albatta dars xonalarini zamonaviy jihozlash kerakligi talab qiladi. kafedramizda ham bu sifat holatiga o'tish tezlashmoqda. Bu pedagoglar bilim saviyalarini tobora oshirib borishlari orqali ham o'z takomilini topadi deb o'ylaymiz.

### **ADABIYOTLAR**

1. Ro'ziyev E.I., Xo'janiyozov Sh.R., Kenjayev Sh. "Qurilish chizmachiligidan topshiriqlar" (Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun metodik qo'llanma) Urganch: 2010 y.
2. Ro'ziyev E.I., Latipov R.A. "Chizmachilikdan ijodiy topshiriqlar" (umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari uchun qo'llanma) Urganch: 2012 y.
3. Xo'janiyozov Sh.R. Elektron o'quv qo'llanma Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024 yil 4 martdagi №55-son Urganch: 2023 y.
4. Архитектурного- Строительные чертежи. Общие сведения. Правила Выполнения (учебное пособие) Москва 2018
5. Колесникова И.В. Информационно-компьютерные технологии на уроках искусства. – [www.festival.I September.ru](http://www.festival.I September.ru)
6. Ястребов Л.И. Создание мультимедийных презентаций в программе MS PowerPoint 2002. – Ж-л «Вопросы Интернет - образования», №44.

## **MA'NAVIIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY BARQARORLIGIDAGI ROLI**

**Matchanova Barno Irkinovna**

Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ularning jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Maqolada ma'naviy qadriyatlar va axloqiy me'yorlar jamiyat hayotining turli jabhalariga, jumladan, fuqarolarning huquqiy g'oyalari, oilaviy qadriyatlari va ijtimoiy adolat tuyg'usini shakllantirishga qanday ta'sir qilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, jamiyatdagi adolatsizlik va korrupsiyaga qarshi kurashda axloqiy qadriyatlar qanday yordam berishi va ularning ijtimoiy muhitni yaxshilashdagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy barqarorlik, jamiyat, axloqiy me'yorlar, adolat, korrupsiya, jamiyatdagi muhit, oilaviy qadriyatlar.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье анализируется вклад морально-этических ценностей в социальную стабильность общества. Рассматривается влияние моральных ценностей и этических норм на различные аспекты жизни общества, включая правовые идеи граждан, семейные ценности и чувство социальной справедливости. Также анализируется роль моральных ценностей в борьбе с несправедливостью и коррупцией и их значение в улучшении социальной среды.*

**Ключевые слова:** *моральные ценности, социальная стабильность, общество, этические нормы, справедливость, коррупция, социальная среда, семейные ценности.*

### **ANNOTATION**

*This article analyzes the contribution of moral and ethical values to the social stability of society. It examines how moral values and ethical standards impact various aspects of social life, including citizens' legal ideas, family values, and the sense of social justice. Additionally, it discusses the role of moral values in combating injustice and corruption and their importance in improving the social environment.*

**Keywords:** *moral values, social stability, society, ethical standards, justice, corruption, social environment, family values.*

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyatdagi o'rni beqiyos. Ular odamlar o'rtasida o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlash orqali ijtimoiy muhitni yaxshilaydi. Axloqiy qadriyatlar turli jamiyatlar uchun zarur bo'lgan umumiy axloqiy qoidalar va normalarni belgilaydi, ular fuqarolarning bir-biriga munosabatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Axloqiy qadriyatlar shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi va uning harakatlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Misol uchun, halollik, adolat va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar odamlar o'rtasida o'zaro hurmatni rivojlantirishga yordam beradi va natijada ijtimoiy muhitni yaxshilaydi.

